

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT FARMATSEVIKA INSTITUTI  
FARMATSIYA FAKUL’TET I**

**«IJTIMOIY FANLAR»  
KAFEDRASI**

**“TASDIQLAYMAN”  
O‘quv ishlari bo‘yicha  
prorektor, f.f.n Aliev S.U**

**“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2016 yil**

**“YOSH DAVRLAR PSIXOLOGIYASI”  
fani bo‘yicha**

**O‘QUV–USLUBIY MAJMUUA**

**Tuzuvchi: katta o‘qituvchi Yuldasheva S.M**

**Toshkent -2016**

O'quv –uslubiy majmuani ishlab chiqishda Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan yaratilgan “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” (loyixa muxarirri i.f.d. prof. Bekmurodov A.SH., p.f.n. dots. Golish L.V) uslubiy qo‘llanmasidan hamda “Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat” malaka oshirish kursida olingan bilimlaridan foydalanildi.

### **Taqrizchi:**

Toshkent farmatsevtika institutining ijtimoiy fanlar kafedrasida dosenti ,  
P.f.n. S.M.T o‘iychieva

*O'quv -uslubiy majmua institut - uslubiy kengashining 2016 yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-sonli qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan*

### **Mundarija**

<b>1. Ishchi dastur.....</b>	.....
<b>2. Sillabus .....</b>	.....
<b>3. Fanni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlari..</b>	.....
<b>4. Nazariy materiallar.....</b>	.....
<b>5. Seminar mashg‘ulotlari uchun materiallar .....</b>	.....
<b>6. Keyslar banki .....</b>	.....
<b>7. Mustaqil ta’lim mavzulari.....</b>	.....
<b>8. Testlar .....</b>	.....
<b>9. Gllasariy .....</b>	.....
<b>10. Adabiyotlar .....</b>	.....

# **“YOSH DAVRLAR PSIXOLOGIYASI ”**

**fanidan**

## **I SH CH I O ‘ Q U V D A S T U R I**

### **Kirish**

Mazkur dastur hozirgi kunda Yosh davrlarni o‘rganish muhim hisoblanadi, chunki har bir Yosh davrining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud, ularni to‘g‘ri tahlil qilinsa va ularga to‘g‘ri maslahatlar berilsa kelajakda narkomaniya, fohishabozlik, turli og‘imlarga kirib ketish, har xil kasalliklarni oldini olish ko‘nikmasini hosil qilgan bo‘linardi, shuning uchun ham bu fan sohasi dolzarb hisoblanadi. Innovatsion ta‘lim texnologiyalari, Yosh va pedagogik psixologiya fanining mazmun mohiyati, tarkibiy tuzilishi, Yosh davrlar psixologiyasi, pedagogik psixologiya, turli Yosh davrlarda psixologik o‘zgarishlarni yuzaga kelishi, pedagogik psixologiya qismida esa o‘qituvchi, ta‘lim, tarbiya psixologiyalari batafsil yoritilgan bo‘lib, oliy ta‘lim muassasalaridagi o‘quv-tarbiya jarayoninni tashkil etishga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi noan‘anaviy ishlanmalar orqali keltirilgan.

### **“Yosh davrlar psixologiyasi ” fanining maqsadi va vazifalari.**

Yosh davrlariga oid qonuniyatlar, omillar hamda sabablar, ularning rivojlanish va shakllanishining mohiyati hamda tuzilishini aniqlash. Yosh davrining shakllari va tiplari, muammoga oid biologik, psixologik va nazariy yondoshuvlarning tahlili, uning profilaktikasi, psixodiagnostikasi hamda psixokorreksiya xususiyatlarining o‘ziga xosligi haqidagi nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantirish. Statistik adaptatsion yondoshuv, normaning negativ mezonlari, madaniy reletivizm, rasmiy yondoshuvni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifalari – talabalarni yoshga oid psixologiya fanining nazariy asoslari va inson taraqqiyoti qonuniyatlarini tadqiq etish uchun amaliy materiallar bilan qurollantirish.

Taraqqiyot psixologiyasining nazariy asoslarining talabalar tomonidan ongli ravishda o‘zlashtirilishi; mazkur fan amaliyoti bilan tanishish; mustaqil bilim olish muhimligini anglash.

### **“Yosh davrlar psixologiyasi ” bo‘yicha talabalarning bilimiga, o‘quviga, ko‘nikmasiga qo‘yiladigan talablar**

- Psixologiya fanlar tizimi tuzilishi, ularning rivojlanish istiqbollari haqida;
- Psixologik tadqiqotlarni tashkil etish, o‘tkazish metodlari va uning vositalaridan foydalana olish;
- Umumiy psixologiyaning tizimlari, tamoyillari, mexanizmlari, kategoriyalari haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- Psixologiya nazariyasi va metodologiyasi aloqalar tizimlar, kategoriyalar, mexanizmlar, qonuniyatlar, asosiy holatlar;
- Insonlarning ish qobiliyatini oshirish va funksional holati optimallashtirishni bilishi va ulardan foydalana olishi;

- Turli xil hayotiy vaziyatlarda shaxsni o'rganishda umumiy psixologiyaning har xil usullarini qo'llash;
- Psixologik, ijtimoiy-etnik va Yosh pedagogik tadqiqotlarning metodlarini qo'llash;

- SHaxsning bilish jarayonlari xususiyatlari, uning shaxslilik xususiyatlarini shakllantirish vositalarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

### **“Yosh davrlar psixologiyasi ” fanining boshqa o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatidan ketma- ketligi.**

Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya fani umumkasbiy fani hisoblanib, VIII - semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan Kasbiy pedagogika, Kasbiy psixologiya, Ta'limda axborot texnologiyalari, Kasb ta'limi metodikasi va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq xolda o'rganiladi. Ta'lim texnologiyasi fanini chuqur o'rganish uchun yuqoridagi fanlardan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi, xamda shu fanlar bilan ketma-ketlikda organiladi.

### **“Yosh davrlar psixologiyasi ” fannini o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar.**

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va mul'timedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'yantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

**“Yosh davrlar psixologiyasi ”** fanini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

**SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim.** Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondoshuv.** Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.** SHaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

**Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.** SHaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va

intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

**Dialogik yondoshuv.** Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratadi.

**Muammoli ta'lim.** Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni o'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash** - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

**O'qitishning usullari va texnikasi.** Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O'qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O'qitish vositalari:** o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

**“Yosh davrlar psixologiyasi ”** fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, “excel” elektron jadvallar dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimlari baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. “Internet” tarmog'idagi rasmiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

**“Yosh davrlar psixologiyasi ” fanidan fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi.**

№	Mavzuning nomi	Ja mi	Ma `ruz	A ma	T M	Ja mi
---	----------------	----------	------------	---------	--------	----------

			<b>a</b>	<b>liy</b>	<b>I</b>	
1	Yosh davrlar psixologiyasi fanining predmeti va vazifalari	6	2	4	4	10
2	Yosh davrlar psixologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi	6	2	4	6	12
3	Yosh davrlar psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish. Psixik rivojlanish va ta'lim. Yosh davrlarini tabaqalash muammolari	6	2	4	6	12
4	O'smirlarning psixik xususiyatlari	6	2	4	-	6
5	O'spirinlik yoshining psixologik xususiyatlari	6	2	4	6	12
6	Ta'lim jarayonini boshqarish.	6	2	4	6	12
7	Tarbiya psixologiyasi. O'qituvchi psixologiyasi	6	2	4	-	6
	<b>Jami;</b>	42	14	28	$\frac{2}{8}$	70

### **Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Asosiy qismda (ma'ruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DTS asosida etkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalardagi islohatlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'ngi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi

### **Ma'ruza mashg'ulotlari.**

#### **Yosh davrlar psixologiyasi fanining predmeti va vazifalari**

Pedagogik va Yosh davrlar psixologiyasi turli yoshdagi bolalarning o'qish faoliyatini, shuningdek pedagogikaning o'qitish jarayonida, ularning psixik taraqqiyoti va psixologik xususiyatlari haqidagi fan pedagogik va Yosh psixologiyani bolalarning fe'l-atvorlarini va umuman ularning shaxsini kamol toptiradigan shart-sharoitlarini ham o'rganadi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, 3X4 texnologiyasi muammo texnologiyasi, FSMU usulu, T-chizma usulu, insert.*

**Adabiyotlar ro'yhati: A1, A2, A3, A4, A5, Q1, Q2, Q7, Q10, Q11, Q12**

### **Yosh davrlar psixologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi.**

Yosh avlodning ta'lim va tarbiya bilan bog'liq psixologik muammolari yirik olimlar, faylasuf va yozuvchilarning ham muntazam jalb etib kelgan. Dastlabki pedagogik-psixologik mazmundagi asarlar XVII-XVIII diniy-axloqiy ta'limotlar zamirida yoritilgandir. Rossiyada psixologik tadqiqot namunalari SHarq va G'arb madaniyati ta'sirida inson ruhiyati bilan bog'liq turli asarlarda shakllanib kelgan.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, tushuhchalar taxlili* ,, *muammo texnologiyasi, FSMU usulu* , *T-chizma usulu* , insert.

**Adabiyotlar ro'yhati: A1, A2, A3, A4, A5, Q1, Q2, Q7, Q10, Q11, Q12**

**Yosh davrlar psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish. Psixik rivojlanish va ta'lim. Yosh davrlarini tabaqalash muammolari.** Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya fani ham psixologiya ilmining boshqa sohalari singari o'zining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Psixologik qonuniyatlarni muayyan reja asosida olib boriladigan tekshirishlar tufayligina holisona aniqlik kiritish mumkin. Psixologiya fanida Yosh davrlarini tabaqalash bo'yicha turlicha usullar mavjuddir. Bu inson shaxsini tadqiq qilishga turli nuqtai-nazardan yondoshuvi va mazkur muammoning mohiyatini turlicha yoritadi.

Ma'lumki, har birdavr o'zining muhim hayotiy, sharoitlari, ehtiyojlari va faoliyati, o'ziga xos qarama-qarshiliklari, psixikasining sifat xususiyatlari va psixik jihatdan xarakterli yangi sifatlarning hosil bo'lishi bilan ajralib turadi. Har bir davr o'zidan , uning , o'zidan keyingi davrning paydo bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. SHu o'rinda psixologiyada mavjud Yosh davrlarini tabaqalash nazariyalariga urg'u berib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, tushuhchalar taxlili* ,, *3X4 texnologiyasi, muammo texnologiyasi, FSMU usulu* , *T-chizma usulu* , insert.

**Adabiyotlar ro'yhati: A1, A2, A3, A4, A5, Q1, Q2, Q7, Q10, Q11, Q12**

**O'smirlarning psixik xususiyatlari.** O'smirlik insonni balog'atga etish davri bo'lib, o'ziga xos xususiyati bilan kamolotning boshqa pog'onalaridan keskin farq qiladi. O'smirda ro'y beradigan biologik o'zgarishlar natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. Balog'at davriga 11-15 yoshli qizlar va o'g'il bolalar kiradilar. Kamolotning mazkur pallasida jismoniy o'sish va jinsiy etilish amalga oshadi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, tushuhchalar taxlili* ,, *muammo texnologiyasi, FSMU usulu* , insert.

**Adabiyotlar ro'yhati: A1, A2, A3, A4, A5, Q1, Q2, Q7, Q10, Q11, Q12**

**O'spirinlik yoshining psixologik xususiyatlari.** Ilk o'spirinlik davri «kamolot bo'sag'asi» deb ta'riflanadi. Bu kamolot bosqichi fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni o'z ichiga oladi. Psixologiya fani o'spirinlik muammosini kompleks o'rganishni da'vat etadi. Yosh psixologiyasi o'spirinlikning yoshini I-II bosqichlar bilan bog'lab kelar edi. Akseleratsiya munosabati bilan o'spirinlik yoshining chegarasi endi 15-16 dan 18 yoshgacha bo'lmoqda.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, 3X4 texnologiyasi, tushuhchalar taxlili, muammo texnologiyasi, FSMU usulu, insert.*

**Adabiyotlar ro'yhati: A1, A2, A3, A4, A5, Q1, Q2, Q7, Q10, Q11, Q12**  
**Ta'lim jarayonini boshqarish.**

Psixologlar ta'lim jarayonini tahlil qilar ekanlar, uni etarli darajada boshqarib bo'lmaydigan jarayon deb ta'kidlaydilar. Boshqaruv bu shunday yo'naltiruvchi kuchki, u insonlardagi ijodiy potensial imkoniyatlarini oladigan sharoitlarni yuzaga chiqarishni maqsad qilib qo'yadi. Ta'limdan kutiladigan natija psixologiyada maqsad deyilib: o'quv jarayonini to'g'ri tashkil eta olish, o'quvchilarning shaxsiy qiziqish va ehtiyojlarini qondirish. Ana shu maqsadlar boshqarishning vazifalarini belgilab beradi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, 3X4 texnologiyasi, muammo texnologiyasi, FSMU usulu, insert.*

**Adabiyotlar ro'yhati: A1, A2, A3, A4, A5, Q1, Q2, Q7, Q10, Q11, Q12**  
**Tarbiya psixologiyasi. O'qituvchi psixologiyasi**

Tarbiya psixologiyasi maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilgan pedagogik jarayon sharoitida inson shaxsiy shakllanishining qonuniyatlarini o'rganadi. Tarbiya har qanday jamiyatning muhim vazifasidir. Tarbiya - bu shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonidir.

Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas. SHuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, 3X4 texnologiyasi, muammo texnologiyasi, FSMU usulu, insert.*

**Adabiyotlar ro'yhati: A1, A2, A3, A4, A5, Q1, Q2, Q7, Q10, Q11, Q12**

**Yosh davrlar psixologiyasi fanidan ma'ruza mashg'uloti kalendar tematik rejasi**

№	Mavzuning nomi	Jam i
1	Yosh davrlar psixologiyasi fanining predmeti va vazifalari	2
2	Yosh davrlar psixologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi	2
3	Yosh davrlar psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish. Psixik rivojlanish va ta'lim. Yosh davrlarini tabaqalash muammolari	2
4	O'smirlarning psixik xususiyatlari	2
5	O's pirinlik yoshining psixologik xususiyatlari	2
6	Ta'lim jarayonini boshqarish.	2
7	Tarbiya psixologiyasi. O'qituvchi psixologiyasi	2



**Amaliy mashg'ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari.**

**Yosh davrlar psixologiyasi fanining predmeti va vazifalari.**

Yosh davrlar psixologiyasining predmeti, vazifalari va ahamiyati.

Komil inson tarbiyasi SHarq mutafakkirlarining talqinida.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: "Aqliy xujum", "Klaster",

**Adabiyotlar ro'yhati: A1, A2, A3, A4, A5, Q1, Q2, Q7, Q10, Q11, Q12**

**Yosh davrlar psixologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi.** Yosh davrlar psixologiyasining vujudga kelishi, rivojlanishi tarixi. Yosh davrlar psixologiyasi fanining boshqa psixologiya sohasi orasida tutgan o'rni.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: "Aqliy xujum", "Muammoli vaziyat"

**Adabiyotlar ro'yhati: A1, A2, A3, A4, A5, Q1, Q2, Q7, Q10, Q11, Q12**

**Yosh davrlar psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlaridan**

**foydalanish.** Yosh davrlar psixologiyasining prinsiplari. Psixologik tadqiqotlarning asosiy bosqichlari. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyaning ilmiy tadqiqot metodlari

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: "Klaster", "BBB"

**Adabiyotlar ro'yhati: A1, A2, A3, A4, A5, Q1, Q2, Q7, Q10, Q11, Q12**

**Psixik rivojlanish va ta'lim.** Yosh davrlarini tabaqalash muammolari. Inson shaxsining tarkib topishi va psixik rivojlanishning sharoitlari. Biogenetik nazariya va uning yo'llari. Sotsiogenetik nazariya. Psixik taraqqiyot va ta'limning o'zaro munosabati

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: "Klaster", "Venn-diagrammasi"

**Adabiyotlar ro'yhati: A1, A2, A3, A4, A5, Q1, Q2, Q7, Q10, Q11, Q12**

**O'smirlarning psixik xususiyatlari.** O'smirlik yoshining o'ziga xos xususiyatlari.

O'smirlik davridagi psixofiziologik o'zgarishlar. O'smir shaxsining rivojlanishi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: "Qora quti", "Aqliy xujum"

**Adabiyotlar ro'yhati: A1, A2, A3, A4, A5, Q1, Q2, Q7, Q10, Q11, Q12**

**O'spirinlik yoshining psixologik xususiyatlari.** Ilk o'spirinlik davri va uning psixik xususiyatlari. O'spirinlik davri fiziologik bosqichlari. O'spirinlik davrida o'z-o'zini anglash.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: "BBB", "3x4"

**Adabiyotlar ro'yhati: A1, A2, A3, A4, A5, Q1, Q2, Q7, Q10, Q11, Q12**

**Ta'lim jarayonini boshqarish.** Ta'lim jarayonini boshqarish vazifalari. Ta'lim jarayonini boshqarishda. Programmalashtirilgan ta'limning ahamiyati. Ta'lim jarayonini boshqarishning tarkibiy qismlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: "Klaster", "Venn-diagrammasi".

**Adabiyotlar ro'yhati: A1, A2, A3, A4, A5, Q1, Q2, Q7, Q10, Q11, Q12**

**Tarbiya psixologiyasi O'qituvchi psixologiyasi.** SHaxsni tarbiyalash usullari va shakllari. Mustaqillik sharoitida tarbiyaning asosiy vazifalari. Jamiyatda o'qituvchining tutgan o'rni va vazifalari. O'qituvchi faoliyati mahsulining psixologik shartlari. O'qituvchining kasbiga xos xislatlari. O'qituvchining pedagogik qobiliyatlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: "pinbord", «T-sxema»

*Adabiyotlar ro'yhati: A1, A2, A3, A4, A5, Q1, Q2, Q7, Q10, Q11, Q12*

**«Yosh davrlar psixologiyasi» fanidan amaliy mashg'uloti kalendar tematik rejasini**

<b>№</b>	<b>Mavzuning nomi</b>	<b>Jami</b>
1	Yosh davrlar psixologiyasi fanining predmeti va vazifalari	4
2	Yosh davrlar psixologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi	4
3	Yosh davrlar psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish. Psixik rivojlanish va ta'lim. Yosh davrlarini tabaqalash muammolari	4
4	O'smirlarning psixik xususiyatlari	4
5	O'spirinlik yoshining psixologik xususiyatlari	4
6	Ta'lim jarayonini boshqarish.	4
7	Tarbiya psixologiyasi. O'qituvchi psixologiyasi	4
	<b>JAMI</b>	<b>28</b>

**Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni.**

“Yosh davrlar psixologiyasi” fani bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, misol va masalalar echadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan misol va masalalarni echadi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar echadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. SHuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini

tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

“Yosh davrlar psixologiyasi” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning deyarli barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi 5 ta katta mavzu ko'rinishida shakllantirilgan.

### **Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi**

<b>t/r</b>	<b>Mustaqil ta'lim mavzulari</b>	<b>Bajarilish tartibi</b>	<b>Bajarish muddat</b>	<b>Xajmi (soat)</b>
<b>1</b>	O'quvchi shaxsiga psixologik xarakteristika tuzish	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat	2-3 haftalar	4
<b>2</b>	Guruh jamoasiga psixologik xarakteristika tuzish.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Dalolat noma	3-4 haftalar	6
<b>3</b>	Darsni psixologik taxlil qilish.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Mashq to'plami	5-6 haftalar	6
<b>4</b>	O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Ishlanma topshirish	7-8 haftalar	6
<b>5</b>	KHK o'quvchilarining bilim egallashi va mehnatga munosabati	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Vaziyatdan chiqish usullari	9-10 haftalar	6
	<b>Jami</b>			<b>28</b>

**Dasturning informatsion uslubiy ta'minoti**

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash nazarda tutilgan: Fanni o'rganish uchun o'quv jarayoni bo'yicha diafilmlar, o'qitishning texnik vositalari, diagramma va sxemalar, metodik adabiyotlar bo'lishi lozim.

O'qitish jarayonida quyidagi informatsiya-texnik vositalardan foydalaniladi: knrgazmali qurollar, kinofilmlar, videofilmlar, diafilmlar va slaydlar, internet saytlari.

Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, seminar shaklida olib boriladi, shuningdek fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ish sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fan zamonaviy pedagogik texnologiyaning «Klaster», «Aqliy xujum», «Muammoli vaziyat» «Bumerang», metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o'tkaziladi va mashg'ulotlardagi ma'lumotlar multimedia vositalari yordamida taqdimot qilinadi.

### **«Yosh davrlar psixologiyasi» fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezonlari.**

«Yosh davrlar psixologiyasi» fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalar bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollektivum, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;
- **oraliq nazorat (ON)** – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda bir marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;
- **yakuniy nazorat (YAN)** – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. YAKuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan «YOzma ish» shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YAN ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, YAN natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda YAN qayta o'tkaziladi.

Talabaniing bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaniing fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

«Yosh davrlar psixologiyasi» fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi

o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

YA.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N( MI).-55+5 ball va O.N.-10 ball qilib

taqsimlanadi.

1. Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB)
- talabalarning mustaqil ishi (TMI)
- oraliq baholash (OB)
- yakuniy baholash (YAB)

Har bir fan bo'yicha talabaniing semestr (yil sikl) davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimida baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

No	Baholash turi	Maksimal ball	Saralash ball
1	Joriy baholash	55	30,2
2	Talabaniing mustaqil ishi	5	1,7
3	Oraliq baholash	10	5,5
4	Yakuniy baholash	30	16,5
	JAMI	100	55

Talabalarning fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir baholash turlarida to'plagan ballar yig'indisiga teng bo'ladi.

#### **Joriy baxolash (JB)**

JB da fanning xar bir bo'lim bo'yicha talabaniing bilimi va amaliy ko'nikmalarini aniqlab borish ko'zda tutiladi va u amaliy mashg'ulotlarda amalga oshiriladi. Baholashda talabaniing bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv uslublarida qatnashishining faollik darajasi, shuningdek amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi xisobga olinadi. Har bir fan bo'yicha o'quv soatidan kelib chiqqan holda maksimal ball belgilanadi. Masalan, Yosh va pedagogik psixologiya fani misolida ko'rsatamiz. Semestr davomida 12 ta dars rejalashtirilgan, unda 11 ta JB o'tkaziladi. Maksimal ball  $5 \times 11 = 55$  ballni tashkil qiladi.

JB har bir fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda og'zaki, yozma ish, test yoki ularning kombinatsiyasi shaklida amalga oshiriladi. Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart.

**Talabaniing ballarda ifodalangan o'zlashtirishi quyidagicha baholanadi:**

No	Ball	Baho	Talabaniing bilim darajasi
----	------	------	----------------------------

	ar		
1	5-4,3	A'lo "5"	Talabalar uy vazifasini bajargan, og'zaki savollarga aniq javob beradi, mavzu bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, mazmunini tushunadi mavzu bo'yicha mustaqil fikrlay oladi. Vazifalarni mustaqil bajaradi, natijalarini rasmiylashtirib tahlil qila oladi.
2	4,2-3,5	Yaxshi "4"	Talaba uy vazifasini bajargan, og'zaki va test savollariga javob bera oladi. Ijtimoiy fanlar qonuniyatlarini va ta'riflarni yod biladi. Mavzuni tushungan, lekin ayrim masalalarni taxlil qila olmaydi.
3	3,5-2,7	Qoniqarli "3"	Talaba uy vazifasini bajarib kelgan, og'zaki va test savollariga qiynalib javob beradi, ta'riflarni yod biladi, lekin mohiyatini yaxshi tushunmaydi.
4	2,7	Qoniqarsiz "2"	Talaba uy vazifasini daftoriga yozib kelgan, lekin mavzu bo'yicha savollarga javob bera olmaydi. Mohiyatini tushunmaydi.

Talaba darsga kelib unga mutloq tayyorlanmaganda va muhokamada mutloq ishtirok etmaganida 1-2 ball qo'yiladi.

#### **Talabaning mustaqil ishi (TMI)**

Talabaning mustaqil ishi O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 25-avgust 333-sonli buyrug'i va institut rektori tomonidan 2013 yil 27 fevralda tasdiqlangan "Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risida Nizom" asosida tashkil etiladi.

Mustaqil ish bo'yicha belgilangan maksimal reyting balining 55% dan kam ball to'plagan talaba fan bo'yicha yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.

Talabaning mustaqil ishi kafedra arxivida ro'yxatga olinadi va 2 yil mobaynida saqlanadi.

Ijtimoiy fanlar kafedrasida talaba mustaqil ishi bo'yicha kafedra nizomi ishlab chiqiladi. Bunda talaba mustaqil ishining shakl va turlari, har bir ish turiga soatlarni taqsimlash va aniq baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

5.TMI ning o'zlashtirishi quyidagicha baxolanadi. Maksimal ball

<b>Ballar</b>	<b>Baho</b>
4,3-5,0	"5" a'lo
3,6-4,2	"4" yaxshi
2,8-3,5	"3" qoniqarli
2,8 dan kam	"2" qoniqarsiz

Talabaning mustaqil ishdan olgan bali JB baliga qo'shiladi.

#### **Oraliq baxolash (OB)**

OB da fanning bir necha mavzularini qamrab olgan bo'limi yoki qismi bo'yicha mashg'ulotlar o'tib bo'lingandan so'ng, talabaning nazariy bilimlari

baholanadi va unda talabaning muayyan savolga javob berish yoki muammoni echish qobiliyati aniqlanadi.

Bir semestrda o'tiladigan fanlardan bitta OB o'tkaziladi.

Ikki semestrda o'tiladigan fanlardan ikkita OB o'tkaziladi. OBga o'quv mashg'ulotlarining qarzi bo'lmagan talabalar qo'yiladi.

Oraliq baholashning maksimal bali 10 ball;

O'zlashtirish	10 ball
A'lo	8,6-10
YAxshi	7,1-8,5
Qoniqarli	5,5-7
Qoniqarsiz	5,5

OB kafedra majlisi qarori bilan yozma ish, test, og'zaki suhbat shakllarida yoki ularning kombinatsiyalarida o'tkazilishi mumkin. OB bo'yicha belgilangan maksimal reyting balining 55% dan kam ball to'plagan talaba YAB ga qo'yilmaydi.

### **Yakuniy baxolash (YAB)**

YAB da talabaning bilim, ko'nikma va malakalari fanning umumiy mazmuni doirasida baholanadi. YAB fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tugagandan so'ng o'tkaziladi. YAB ning maksimal bali - 30 ball.

O'zlashtirish	30 ball
A'lo	30-25,8
YAxshi	25,5-21,3
Qoniqarli	21-16,5
Qoniqarsiz	16,5 dan kam

JB va OB ga ajratilgan umumiy ballarning har biridan saralash balini to'plagan talabaga YAB ga ishtirok etishga huquq beriladi.

YAB o'tkazish shakli – test, og'zaki, yozma ish yoki ushbu usullar kombinatsiyasida Ilmiy Kengash qarori bilan belgilanadi.

JB, OB va YAB turlarida fanni o'zlashtira olmagan (54 % dan kam ball to'plagan) yoki uzurli sabablar bilan baholash turlarida ishtirok eta olmagan talabalarga quyidagi tartibda qayta baholashdan o'tishga ruxsat beriladi:

- qoldirilgan amaliy mashg'ulot kelgusi darsga qadar guruh o'qituvchisiga qayta topshirish va maslaxat kunida topshiriladi. 3 ta mashg'ulotni qoldirgan talaba fakultet dekani ruxsati bilan qayta topshiradi;

- OB ni 2 hafta muddatda qayta topshirishga ruxsat beriladi va bali koeffitsentsiz qayt etiladi;

- semestr yakunida fan bo'yicha saralash balidan kam ball to'plagan talabaning o'zlashtirishi qoniqarsiz (akademik qarzdor) hisoblanadi;

- akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin dekan ruhsatnomasi asosida qayta o'zlashtirish uchun – 2 hafta muddat beriladi. SHu muddat davomida o'zlashtira olmagan talabaga belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiri.

### **Reyting natijalarini qayd qilish tartibi**

Fandan reyting nazorati bo'yicha yakunlovchi qaydnoma varaqasi (vedomost) fan tugagan kundan bir kun muddatda kafedra 2 nusxada to'ldiradi va mas'ul xodim kafedra mudiriga imzolatib, 1 nusxasi dekanatlarga topshiriladi.

Talabanning fan bo'yicha baholash turlarida to'plagan ballari reyting qaydnomsiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasining "Umumiy soat" ustuniga fanga ajratilgan umumiy yuklama soatlari, "Ball" ustuniga esa talabanning mazkur mezonning 3.1 bandiga muvofiq 100 ballik tizimdagi o'zlashtirish bali, "Reyting" ustuniga hisoblangan reyting ko'rsatkichi qo'yiladi.

Talabanning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi "Reyting daftarchasi" da qayd etilmaydi.

Dekanat va kafedralar tomonidan belgilangan tartibda fan bo'yicha talabanning JB, OB hamda YAB turlarida ko'rsatilgan o'zlashtirish reyting ko'rsatkichlarining monitoringi olib boriladi. O'zlashtirish natijalari kafedra tomonidan reyting nazorati ekranida muntazam ravishda yoritib boriladi va belgilangan tartibda qaydnomalarga kir itiladi. Reyting nazorati ekranining tashkil etishi va uning belgilangan muddatlarda to'ldirish vazifasi kafedra mudiri va fakultet dekani zimmasiga yuklatiladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

#### **O'zbekiston Respublikasi Qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- T.: O'zbekiston, 2009. – 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. T. «SHarq» 2001. Oliy ta'lim me'yoriy xujjatlari. 3-18 betlar.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T. «SHarq» 2001. Oliy ta'lim me'yoriy xujjatlari. 18-52 betlar.

#### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari**

1. Islom Karimov. Barkamol avlod orzusi T., «SHarq» 1999 y.
2. Prezident Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari». T.: "O'zbekiston" 2009.- 56 b
3. Karimov I. Eng asosiy mezon-hayot haqiqatini aks ettirish.T.: O'zbekiston, 2009.-24 b.
4. Islom Karimov. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T., «O'zbekiston», 2000 y.
5. Islom Karimov. «YUksak ma'naviyat-engilmas kuch». T., «Ma'naviyat».2008
6. "Prezidentga maktublar" T., «Ma'naviyat» 2013y
7. Islom Karimov " O'zbek xalqiga tinchlik va Omonlik kerak "T., «O'zbekiston», 2013 y
8. I.A.Karimov O'zbekiston erishgan yutuq va marralar – biz tanlagan islohatlar yo'lining tasdig'idir. T. "O'zbekiston", 2014. 22 jild

#### **Asosiy adabiyotlar.**

1. Ibragimov X.I., YUldashev U.A., Bobomirzaev X Pedagogik psixologiya. Toshkent, 2009 y
2. Ivanov R.I., Zufarova M.E Umumiy psixologiya .Toshkent, 2009 y
3. Maxsudova M.A Muloqat psixologiyasi . Toshkent, 2006 y



4. Nishonova Z., Asomiddinova SH Psixologik maslahat. Toshkent, 2010
5. Nishonova Z.T Psixologik xizmat. Toshkent, 2007 y

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. To'ychieva S.M.«Maktab bitiruvchilarining ma'naviy qiyofasi» Toshkent,2000 y
2. Do'stmuxammedova S.A «O'quvchilar o'quv faoliyatlarini boshqarish psixologiyasi» Toshkent, 2000 y
3. psixologiyasi» Toshkent, 2000 y
4. Ochilov M.O. «YAngi ta'lim texnologiyasi». Karshi, 2000 y
5. Nishonova Z.T. «Oliy maktab psixologiyasi» Toshkent, 20003 y
6. Qodirov B.R., Qodirov I.B. “Kasbiy tashxis metodikalari to‘plami” Toshkent, 2003 yil
7. G‘oziev e.G‘., Mamedov K.K. “Kasb psixologiyasi” Toshkent 2003 yil
8. A.F. Kudryashova «Luchshie psixologicheskie testy dlya profotbora i proforientatora» Moskva, 1992 g.
9. E.A.Klimov «Kak vьbrat professiyu», Moskva 1990 g.
- 10.Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.O‘quv metodik qo‘llanma.Toshkent,2004.
- 11.Petrovskiy A.V.tahriri ostida. Yosh davrlari va pedagogik psixologiyasi Toshkent,1989.
- 12.G‘oziev e.G‘. Umumiy psixologiya:darslik.1-2-kitob.Toshkent,2002.
- 13.Sunnatova R.I., Parpiev U. «Kasbga yo‘naltirish maslahatlari: metodlar, muammolar, imkoniyatlar», Toshkent 2001 yil.
- 14.Qodirov K.B. “Kasb tanlashga tayyorgarlikning psixologik jihatlari va kasbiy tashxis”, Toshkent 2001 yil
- 15.Rashidov F.X., Xodjaboev A.R., R.K.Jo‘raev, X.F.Masudov va boshqalar “O‘rta maxsus, kasb-hunar talimdagi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi” Toshkent 2000 yil

### **Elektron ta'lim resurslari**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.Uz](http://www.pedagog.Uz)
3. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
4. [www.Edu.Uz](http://www.Edu.Uz)
5. [tdpu-INTRANET.Ped](http://tdpu-INTRANET.Ped)
6. [www.inetlibrary.com](http://www.inetlibrary.com). Internet-kutubxona
7. [www.expert.psychology.ru](http://www.expert.psychology.ru)
8. [www.psycho.all.ru](http://www.psycho.all.ru)
9. [www.psychology.net.ru](http://www.psychology.net.ru)
10. [www.psy.piter.com](http://www.psy.piter.com)

**Biz o‘z iste’dodli , fidoiy bolalarimiz, farzandimizga bilim va kasb cho‘qqilarini zabt etish uchun qanot berishimiz zarur.**

**I.A.Karimov**

**“ Yosh davrlar psixologiyasi” fani bo‘yicha tayyorlangan Sillabusi  
2016/2017 o‘quv yili uchun mo‘ljallangan**

<b>Fanning qisqacha tavsifi</b>							
<b>OTMning nomi va joylashgan manzili:</b>	<b>Toshkent farmatsevtika instituti</b>			<b>M.Oybek ko‘chasi, 45-uy</b>			
<b>Kafedra:</b>	<b>Ijtimoiy fanlar</b>			<b>Sanoat farmatsiyasi fakul’teti tarkibida</b>			
<b>Fan nomi va kodi:</b> <b>2.23.</b>	<b>Yosh davrlar psixologiyasi</b>						
<b>Ta’lim sohasi va yo‘nalishi:</b>	5111000-kasb ta’limi	Bilim sohasi: 500000 – Ijtimoiy ta’minot va sog‘liqni saqlash Ta’lim sohasi: 510000 - Sog‘liqni saqlash					
<b>Fanni (kursni) olib boradigan o‘qituvchi to‘g‘risida ma’lumot:</b>	Katta o‘qituvchi YUldasheva Saodat Mamasahatovna	e-mail:  telefon	saodat.yuldasheva.67@ mail.ru +998917780341				
<b>Dars vaqti va joyi:</b>	2-bino 112-auditoriya	Kursning davomiyligi:	22.12.2016-10.04.2017				
<b>Individual grafik asosida ishlash vaqti:</b>	Dushanba, seshanba,chorshanba kunlari 10.00 dan 16.00 gacha						
<b>Fanga ajratilgan soatlar</b>	<b>Auditoriya soatlari</b>					<b>Mustaqil ta’lim:</b>	28
	<b>Ma’ruza:</b>	1 4	<b>Amaliyot</b>	2 8			
<b>Fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi :</b>	pedagogika, pedagogik mahorat, pedagogik texnologiya, psixologiya, kasbiy ta’lim metodikasi, kasbiy pedagogika, axborot texnologiyasi, maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi.						
<b>Fanning asosiy maqsadi:</b>	Talabalarda pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish. – Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida bo‘lajak mutaxassislarni ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishga o‘rgatish hamda ularda kasbiy faoliyatning pedagogik mohiyatini to‘la anglay olish						

	qobiliyatini hamda pedagogik tafakkurini shakllantirishdan iborat.
<b>Fanning mazmuni</b>	
<b>Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:</b>	<p><b>Fanning dolzarbligi:</b> “Yosh davrlar psixologiyasi” fanini o‘rganishning maqsadi talabalarni kasbiy pedagogik tayyorgarlik ta’lim sohasini 5111000 «Kasb ta’limi» yo‘nalishi ta’lim sohalari bo‘yicha ta’lim olayotgan bakalavrlarda kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarining psixologik xususiyatlarini bilib olish, ularni ta’limi va tarbiyasi jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni eng olishida hamda ularning texnologiya va ishlab chiqarish ta’limi darslarini olib borishiga yordam beradigan metodik bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdir.</p> <p><b>Fanning qisqacha mazmuni:</b> Yosh davrlar psixologiyasi fanini belgilangan maqsad asosida talabalarni kasbiy tayyorlashning quyidagi vazifalarini hal etadi: bo‘lajak mutaxassislarining «“Yosh davrlar psixologiyasi » fanida mutaxassislik bo‘yicha bilimlarini kengaytiradi hamda yangi tushuncha va qarashlar bilan qurollanadi. Ushbu dastur ta’lim oluvchilarni milliy mafkura tarbiyasi, talabaning kasbiy ta’lim asoslari bo‘yicha bilimlarini rivojlantirish, o‘qituvchi va o‘quvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablarning psixologik aspektlarini puxta egallash, vazifasini bajaradi.</p>
<b>O‘quv fanini prerekvizitlari</b>	<b>Talaba:</b> psixologiyaga oid dastlabki bilimlarga ega bo‘lishi, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va xulosalar chiqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi talab etiladi.
<b>Fanni o‘rganish jarayonida talabalar quyidagi natijalarga erishadi</b>	<p><b>Bilib oladi:</b> fanga oid tushunchalar: psixologiya. Psixologik jarayonlarni qonunyatlarini va tamoyillari, Psixologik jarayonini mazmuni, tarbiyaning umumiy metodlari va vositalari, ta’limni tashkil etish shakllari, tarbiya turlari ta’lim sifati haqida.</p> <p><b>Bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilinishi:</b> “Yosh davrlar psixologiyasi” fani bo‘yicha joriy, oraliq va yakuniy nazorat o‘tkaziladi. Joriy nazorat uchun 60 ball, oraliq nazorat uchun 10 ball, yakuniy nazorat uchun 30 ball. (maksimal 100 ball)</p> <p><b>Fan bo‘yicha egallagan bilimlari asosida:</b> ta’lim muassasasida o‘quv jarayonini tashkil etish o‘quvchilar bilan ishlashning samarali shakl, metod va vositalarini qo‘llay oladi hamda innovatsion faoliyat va kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo‘llarini egallaydi.</p>
<b>Postrekvizitlar</b>	<i>Ushbu o‘quv modulini o‘zlashtirish natijasida talabalardan:</i> Nazariy ta’lim texnologiyasini mustaqil loyihalashni bilish; Ishlab chiqarish ta’limini o‘tishni mustaqil loyihalashni bilish; Nazariy va amaliy ta’lim bo‘yicha mashg‘ulotlarni mustaqil

	<p>o‘tkazish;  Trenajyorlarda mashg‘ulot o‘tkazishni bilish;  Mashg‘ulotlarda o‘quvchilar bilan to‘g‘ri muloqat olib borish, faol o‘qitish metodlarini qo‘llash olish;  Mashg‘ulotlarda fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish;  O‘quvchilar bilimni reyting tizimida baholash haqida bilimlarga ega bo‘lish talab qilinadi.</p>
<b>Talabalar uchun talablar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- professor-o‘qituvchiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;</li> <li>- institut ichki tartib-qoidalariga rioya qilish;</li> <li>-intitut uniformasini kiyish;</li> <li>- mobil telefonni dars davomida o‘chirish;</li> <li>- berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish;</li> <li>- guruhdoshlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;</li> <li>- darsga o‘z vaqtida kelish;</li> <li>- 6 soatdan ortiq dars qoldirgan taqdirda, dekan ruxsati bilan darsga kirish.</li> </ul>
<b>Elektron pochta orqali munosabatlarning tartibi</b>	<p>Professor-o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina institut hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. elektron pochta ochish vaqti soat 15.00 dan 20.00 gacha</p>

### **Yosh davrlar psixologiyasi fanidan ma`ruza mashg`uloti kalendar tematik rejasi**

№	Mavzuning nomi	Jam i
1	Yosh davrlar psixologiyasi fanining predmeti va vazifalari	2
2	Yosh davrlar psixologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi	2
3	Yosh davrlar psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish. Psixik rivojlanish va ta’lim.Yosh davrlarini tabaqalash muammolari	2
4	O‘smirlarning psixik xususiyatlari	2
5	O‘s pirinlik yoshining psixologik xususiyatlari	2
6	Ta’lim jarayonini boshqarish.	2
7	Tarbiya psixologiyasi. O‘qituvchi psixologiyasi	2
	<b>JAMI</b>	<b>14</b>

**« Yosh davrlar psixologiyasi » fanidan amaliy mashg`uloti kalendar tematik rejasi**

No	Mavzuning nomi	Jam i
1	Yosh davrlar psixologiyasi fanining predmeti va vazifalari	4
2	Yosh davrlar psixologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi	4
3	Yosh davrlar psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish . Psixik rivojlanish va ta'lim.Yosh davrlarini tabaqalash muammolari	4
4	O'smirlarning psixik xususiyatlari	4
5	O's pirinlik yoshining psixologik xususiyatlari	4
6	Ta'lim jarayonini boshqarish.	4
7	Tarbiya psixologiyasi. O'qituvchi psixologiyasi	4
	<b>JAMI</b>	<b>28</b>

t/r	Nazorat turlari va topshiriqlarning nomlanishi	Nazorat turlari bo'yicha maksimal ball	O'tkazish vaqti
	<b><i>I. Joriy nazorat uchun ballar taqsimoti</i></b>	60 ball	Semestr davomida
	<b><i>II. Oraliq nazorat</i></b>	10 ball	
	<b><i>III. YAkuniy nazorat</i></b>	30 ball	Semestrning oxirgi haftasi
1.	Umumiy o'quv kursi bo'yicha tuzilgan topshiriqlar asosida o'tkaziladi		
	<b>JAMI:</b>	<b>100 ball</b>	


***Talabning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari namunaviy mezonlari***

t/r	Talabning fanni o'zlashtirish (bilim, ko'nikma va malaka) darajasi	Ballar
	Xulosa va qarorlar qabul qilishi	
A)	Ijodiy fikrlay olishi	

	Mustaqil mushohada yuritish	<b>86-100 ball</b>
	Olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi	
	Mohiyatini tushunish	
	Bilish, aytib berish	
	Tasavvurga ega bo'lish	
B)	Mustaqil mushohada yuritish	<b>71 -85 ball</b>
	Olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi	
	Mohiyatini tushunish	
	Bilish, aytib berish	
	Tasavvurga ega bo'lish	
V)	Mohiyatini tushunish	<b>55 - 70 ball</b>
	Bilish, aytib berish	
	Tasavvurga ega bo'lish	
G)	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik	<b>0 - 54ball</b>

<b>Asosiy adabiyotlar:</b>	<p>Ibragimov X.I., YUldashev U.A., Bobomirzaev X Pedagogik psixologiya. Toshkent, 2009 y</p> <p>Ivanov R.I., Zufarova M.E Umumiy psixologiya .Toshkent, 2009 y</p> <p>Maxsudova M.A Muloqat psixologiyasi . Toshkent, 2006y</p> <p>Nishonova Z., Asomiddinova SH Psixologik maslahat. Toshkent, 2010</p> <p>Nishonova Z.T Psixologik xizmat. Toshkent, 2007 y</p>
----------------------------	---

## Fanni o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari



**Ma'ruzaning tuzilishi (strukturasi).** Ma'ruza odatda uch qismdan: kirish, asosiy va yakuniy qismdan iborat bo'ladi (2.4-chizma).

**“Ma'ruza” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

**1. Kirish qismi:**

- ✓ Qutlash
- ✓ Mavzu
- ✓ Maqsad
- ✓ Tashkiliy savollar
- ✓ Motivatsiya, qiziqishni uyg'otish

**2. Asosiy qism:**

- ✓ 1-asosiy fikr
- ✓ 2-asosiy fikr
- ✓ 3-asosiy fikr va hokazo.

**3. Yakuniy qism**

- ✓ Natija va xulosa
- ✓ Umumlashtirish

Ta'lim oluvchilar bilan ta'lim beruvchining birgalikdagi ushbu faoliyatini tashkil etishning samarali shartlari quyidagilardan iborat:

- ma'ruzaning batafsil rejasini tuzish;
- ma'ruza rejasini eshittirish;
- rejaning har bir qismini yoritishdan so'ng qisqacha umumiy xulosa qilish;
- ma'ruzaning bir qismidan boshqa qismiga (bo'limiga) o'tishda mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash;
- muammoli bayon qilish;
- yozib olish zarur bo'lgan joylarni ajratish (yozdirish);

- ma’ruzalarni uning alohida holatlarini batafsil tahlil qilish imkonini beruvchi seminar-mashg‘ulotlari va amaliy mashg‘ulotlar bilan qo‘shib olib borish.

“Ma’ruza” metodidan foydalanganda ma’lumotlar, tushuntirishlar (izohlar) va faktlar samarali ravishda taqdim etiladi.

**“Ma’ruza” metodining afzalliklari:**

- aniq ilmiy bilimlarga tayanadi;
- vaqtdan unumli foydalaniladi;
- ta’lim beruvchi tomonidan o‘quv jarayonini to‘liq nazorat qilish imkoniyati paydo bo‘ladi.


**“Ma’ruza” metodining kamchiliklari:**

- ta’lim oluvchilar passiv ishtirokchi bo‘lib qoladilar;
- ta’lim beruvchi bilan ta’lim oluvchilar bevosita muloqotga kirisha olmaydilar;
- katta miqdordagi bilimlarni o‘zlashtirish ta’lim oluvchilar uchun qiyin kechadi;
- uzoq vaqt davomida diqqat bilan tinglab o‘tirish ta’lim oluvchilarni tez toliqtiradi;
- eslab qo‘lish darajasi barcha ta’lim oluvchilarda turlicha bo‘lganligi sababli, guruh bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi past bo‘lib qo‘lishi mumkin.

**“To‘rt pog‘onali metod” metod** - amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonining to‘rt pog‘ona doirasida kechadigan metodidir.

Bu metod ta’lim oluvchilarga bir xilda takrorlanadigan qo‘l ko‘nikmalarini tez va mukammal o‘rganib olishlariga yordam beradi. “To‘rt pog‘onali” metod qo‘llanilganda, ta’lim oluvchilar iloji boricha oddiy operatsiyalar bilan tanishtiriladi, so‘ng uni takrorlaydilar va to mukammal o‘zlashtirmaguncha mashq qiladilar. Ushbu metod quyidagi bosqichlardan iborat (2.5-chizma):

- tushuntirish;
- nima qilish kerakligini ko‘rsatib berish;
- ko‘rsatilgan tarzda qaytarish;
- mashq qilish.





## 2.5-chizma. “To‘rt pog‘onali” metodning tuzilmasi

### “To‘rt pog‘onali” metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:


1. “Tushuntirish” bosqichida muhandis-pedagog ta’lim oluvchilarga avval oddiy operatsiya bosqichini tushuntirib beradi.

2. “Nima qilish kerakligini ko‘rsatib berish” bosqichida muhandis-pedagog ta’lim oluvchilarga topshiriqni qanday bajarish kerakligini amalda ko‘rsatib beradi.

3. Uchinchi bosqichda ta’lim oluvchilar muhandis-pedagog ko‘rsatgan ish harakatlarini takrorlaydi. Muhandis-pedagog ta’lim oluvchilar bajarayotgan harakatlar yuzasidan o‘z fikrini bildirib, xatolarini to‘g‘rilab turadi.

4. “Mashq qilish” bosqichida ta’lim oluvchilarning hatti-harakati muhandis-pedagog tomonidan nazorat qilib boriladi. Ta’lim oluvchilar ish amallarini mukammal o‘zlashtirganlaridan so‘ng, uni mustaqil bajaradilar.

“To‘rt pog‘onali” metodning asosiy belgisi-ta’lim oluvchilarning harakatlari muhandis-pedagog ko‘rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklanganligidadir.



## 2.6-chizma. “To‘rt pog‘onali” metodda muhandis-pedagog va ta’lim oluvchining faoliyati

### **“To‘rt pog‘onali” metodning afzalliklari:**

- ta‘lim oluvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda yordam beradi;
- vaqtdan unumli foydalanish imkoniyati mavjud;
- oddiy ish bosqichlarini o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi.

### **“To‘rt pog‘onali” metodning kamchiliklari:**

- ta‘lim oluvchilarning harakatlari ta‘lim beruvchi ko‘rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklanib qoladi;
- ta‘lim oluvchilar yakka tartibda o‘rganishga yo‘naltiriladilar, lekin mustaqil fikrlash imkoniyati chegaralangan bo‘ladi;
- ish bosqichlarini amalga oshirishda hech qanday yangicha yondoshuvlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

### **Ta‘lim jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash**

Hozirgi vaqtda ta‘lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta‘lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An‘anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta‘lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta‘lim beruvchi tomonidan ta‘lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta‘lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta‘lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. **Interfaol metodlar** deganda-ta‘lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta‘lim jarayonining markazida ta‘lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta‘lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta‘lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta‘lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta‘lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e‘tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta‘lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta‘lim oluvchining tashabbuskorligi va mas‘uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

**“Aqliy hujum” metodi** - biror muammo bo‘yicha ta‘lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma‘lum bir

echimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va ogʻzaki shakllari mavjud. Ogʻzaki shaklida taʼlim beruvchi tomonidan berilgan savolga taʼlim oluvchilarning har biri oʻz fikrini ogʻzaki bildiradi. Taʼlim oluvchilar oʻz javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. YOzma shaklida esa berilgan savolga taʼlim oluvchilar oʻz javoblarini qogʻoz kartochnalarga qisqa va barchaga koʻrinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni maʼlum belgilar boʻyicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod toʻgʻri va ijobiy qoʻllanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga oʻrgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda taʼlim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati boʻladi, shu jumladan taʼlim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Taʼlim oluvchilar oʻz fikrini faqat ogʻzaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish koʻnikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi taʼlim oluvchilarda turli gʻoyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod taʼlim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi taʼlim beruvchi tomonidan qoʻyilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Taʼlim oluvchilarning boshlangʻich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qoʻyilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.


2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bogʻlash maqsad qilib qoʻyilganda –yangi mavzuga oʻtish qismida amalga oshiriladi.

3. Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qoʻyilganda-mavzudan soʻng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

#### **“Aqliy hujum” metodini qoʻllashdagi asosiy qoidalar:**

1. Bildirilgan fikr-gʻoyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-gʻoyalar, ular hatto toʻgʻri boʻlmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir taʼlim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida (2.7-chizma) “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



## 2.7-chizma. “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

### “Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo’yicha o’z javoblarini (fikr, g’oya va mulohaza) bildirishlarini so’raladi;
2. Ta’lim oluvchilar savol bo’yicha o’z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta’lim oluvchilarning fikr-g’oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog’ozlarga yoki doskaga) to’planadi;
4. Fikr-g’oyalar ma’lum belgilar bo’yicha guruhlanadi;
5. YUqorida qo’yilgan savolga aniq va to’g’ri javob tanlab olinadi.

### “Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g’oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g’oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta’lim oluvchilarning boshlang’ich bilimlarini tekshirib ko’rish imkoniyati mavjud;
- ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg’otadi.


### “Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchi tomonidan savolni to’g’ri qo’ya olmaslik;
- ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o’quv materialini o’rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo’llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo’lishga, bir-biridan o’rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo’ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo’llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo’ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o’zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan (2.8-chizma).



## **2.8-chizma. “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi**

**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Faoliyat yoʻnalishi aniqlanadi. Mavzu boʻyicha bir-biriga bogʻliq boʻlgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Taʼlim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan boʻlinishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Taʼlim beruvchi tomonidan aniq koʻrsatmalar beriladi va yoʻnaltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

### **«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:**

- oʻqitish mazmunini yaxshi oʻzlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish koʻnikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha taʼlim oluvchilar jalb etiladi;
- oʻz-oʻzini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud boʻladi.


### **«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:**

- baʼzi kichik guruhlarda kuchsiz taʼlim oluvchilar boʻlganligi sababli kuchli taʼlim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha taʼlim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past boʻladi;
- guruhlararo oʻzaro salbiy raqobatlar paydo boʻlib qolishi mumkin;
- guruh ichida oʻzaro nizo paydo boʻlishi mumkin.

**“Davra suhbat” metodi** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan taʼlim oluvchilar tomonidan oʻz fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan oʻqitish metodidir.


“Davra suhbat” metodi qoʻllanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir taʼlim oluvchining bir-biri bilan “koʻz aloqasi”ni oʻrnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining ogʻzaki va yozma shakllari mavjuddir. Ogʻzaki davra suhbatida taʼlim beruvchi mavzuni boshlab beradi va

ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



### 2.9-chizma. Davra stolining tuzilmasi

YOzma davra suhbatida (2.9-chizma) ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. SHundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. YAkuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbat" metodining tuzilmasi keltirilgan (2.10-chizma).



## **2.10-chizma. “Davra suhbatı” metodining tuzilmasi**

### **“Davra suhbatı” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Mashg‘ulot mavzusi e‘lon qilinadi.
2. Ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta‘lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta‘lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta‘lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta‘lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta‘lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta‘lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta‘lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta‘lim oluvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta‘lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta‘lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta‘lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta‘lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta‘lim oluvchilar o‘zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta‘lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta‘lim beruvchi ham ta‘lim oluvchilarni ob‘ektiv baholashi mumkin.

### **“Davra suhbatı” metodining afzalliklari:**


- o‘tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta‘lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta‘lim oluvchi o‘zining baholanishi mas‘uliyatini his etadi;
- o‘z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

### **“Davra suhbatı” metodining kamchiliklari:**

- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta‘lim beruvchining o‘zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi;
- ta‘lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi.

**“Ishbop o‘yin” metodi** - berilgan topshiriqlarga ko‘ra yoki o‘yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.

O‘yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining hulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o‘yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko‘ra ishtirokchilar o‘z faoliyatlarini o‘zgartirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Ishbop o‘yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo‘ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat‘iy belgilangan va o‘yin davomida o‘zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o‘z maqsadlarini belgilaydilar. Ishbop o‘yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. SHuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli harakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o‘zining vazifasi bo‘yicha qaror qabul qiladi, so‘ngra guruh bilan maslahatlashadi. O‘yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi. Quyida “Ishbop o‘yin” metodining tuzilmasi keltirilgan (2.11-chizma).



**2.11-chizma. “Ishbop o‘yin” metodining tuzilmasi**

**“Ishbop o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta‘lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yo‘riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.



2. Ta'lim oluvchilarni o'yinning maqsadi, shartlari va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.
4. Ta'lim oluvchilar o'z rollari bo'yicha tayyorgarlik ko'radilar.
5. Ta'lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o'yinni amalga oshiradilar. Ta'lim beruvchi o'yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.
6. O'yin yakunida ta'lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. Ekspertlarning xulosalari tinglanadi, fikr-mulohazalar aytiladi.
7. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi.

Har bir rolni ijro etuvchi o'z vazifasini to'g'ri bajarishi, berilgan vaziyatda o'zini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko'rsata olishi kerak.

**“Ishbop o'yin” metodining afzalliklari:**

- ta'lim oluvchilarning bilimlarini va tajribalarini o'z qarashlari va hulqlari orqali ifoda etishga yordam beradi;
- ta'lim oluvchining boshlang'ich bilimlari va tajribalarini safarbar etish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilar o'z bilimlari doirasidan kelib chiqqan holda imkoniyatlarini namoyish etishlari uchun sharoit yaratiladi.

**“Ishbop o'yin” metodining kamchiliklari:**


- ta'lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- vaqt ko'p sarflanadi;
- tanlangan mavzu ta'lim oluvchining bilim darajasiga mos kelishi talab etiladi;
- ta'lim oluvchining his-hayajoni to'g'ri qaror qabul qilishga halaqit berishi mumkin.

**“Rolli o'yin” metodi** - ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o'yinlarning ishbop o'yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidir. SHu bilan birga “Rolli o'yin” metodida ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop o'yin” metodida rol ijro etuvchilar ma'lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o'zlari hal etadilar.

Rolli o'yinda ham ishbop o'yin kabi muammoni echish bo'yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo'lga qo'yilgan. Rolli o'yinlar ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o'yin” metodida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lishi lozim. CHunki rollarni o'ynashda har bir ta'lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o'yinlar o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o'yin” metodining tuzilmasi keltirilgan (2.12-chizma).



## **2.12-chizma. “Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi**

### **“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O‘yin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo‘llash uchun ssenariy ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba’zi hollarda ta’lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo‘yicha o‘tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba’zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta’lim oluvchilar ushbu rolli o‘yin ko‘rinishidan so‘ng o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

### **“Rolli o‘yin” metodining afzallik tomonlari:**

- o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishni o‘rgatadi;
- ta’lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

### **“Rolli o‘yin” metodining kamchilik tomonlari:**

- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta’lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta’lim oluvchilarning o‘yinga tayyorgarligi turlicha bo‘lishi mumkin;
- barcha ta’lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.

**“Bahs-munozara” metodi** - biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o'ng qo'l” qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioya qilish;
- fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o'zaro hurmat.

Quyida (2.13-chizma) “Bahs-munozara” metodini o'tkazish tuzilmasi berilgan.

#### **“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta'lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammo bo'yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta'lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya'ni turli g'oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta'lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul echimi tanlanadi.

#### **“Bahs-munozara” metodining afzalliklari:**

- ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- ta'lim oluvchilar o'z fikrining to'g'riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

#### **“Bahs-munozara” metodining kamchiliklari:**

- ta'lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

**“Muammoli vaziyat” metodi** - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular

qo'yilgan muammoning echimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o'rganadilar. Quyida «Muammoli vaziyat» metodining tuzilmasi keltirilgan (2.14-chizma)

#### **2.14-chizma. «Muammoli vaziyat» metodining tuzilmasi**

##### **«Muammoli vaziyat» metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni echishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni echish yo'llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning echimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil echimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni echish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

##### **«Muammoli vaziyat» metodining afzalliklari:**

- ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta'lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va echimlarni topishni o'rganadilar;
- ta'lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.

##### **«Muammoli vaziyat» metodining kamchiliklari:**

- ta'lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo'yilgan muammo ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- ko'p vaqt talab etiladi.

**«Loyiha» metodi** - bu ta'lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta'lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa

chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruh bo'lishi mumkin, lekin har bir loyiha o'quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta'lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning echimini topishdan iborat. Ta'lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo'lishi va u ta'lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo'llay olishni talab qiladigan topshiriq bo'lishi kerak.

Loyiha o'rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishi, ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak.

Quyidagi chizmada "Loyiha" metodining bosqichlari keltirilgan (2.15)



2.15-chizma. "Loyiha" metodining bosqichlari

**"Loyiha" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Muhandis-pedagog loyiha ishi bo'yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma'lumotlar yig'adilar.

2. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta'lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarni rejalashtirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta'lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo'yicha qaror qabul qiladilar. Ta'lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo'yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Muhandis-pedagog ta'lim oluvchilar bilan birgalikda "Baholash varaqasi"ni ishlab chiqadi.

4. Ta'lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5. Ta'lim oluvchilar ish natijalarini o'zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini "Baholash varaqasi"da qayd etiladi. Ta'lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og'zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko'rinishidagi yozma hisobot.

6. Muhandis-pedagog va ta'lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O'quv amaliyoti mashg'ulotlarida erishilgan ko'rsatkichlarni me'yoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me'yoriy ko'rsatkichlarga erisha olinmagan bo'lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Muhandis-pedagog "Loyiha" metodini qo'llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta'minlanishi lozim.

"Loyiha" metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:

- yakka tartibdagi ish;
- kichik guruhiy ish;
- jamoa ishi.

**"Yo'naltiruvchi matn" metodi** - ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda yo'naltiruvchi savollar yordamida ma'lumot yig'ish, rejalashtirish, amalga oshirish vazifalarini bajaradigan metoddir.


Quyida (2.16- chizma) “Yo‘naltiruvchi matn” metodida muhandis-pedagog va ta’lim oluvchilarning faoliyati keltirilgan.



**2.16-chizma. “Yo‘naltiruvchi matn” metodida muhandis-pedagog va ta’lim oluvchi faoliyati**

“Yo‘naltiruvchi matn” metodining barcha bosqichlarida muhandis-pedagog faoliyati “passiv”, ta’lim oluvchi faoliyati esa “aktiv” bo‘ladi. Chunki ta’lim oluvchilar muhandis-pedagog tomonidan oldindan tayyorlangan materiallar asosida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsatadilar. “Yo‘naltiruvchi matn” metodidan o‘quv amaliyot darslarida foydalaniladi. Ushbu metodni o‘tkazish bosqichlari “Loyiha metodi”ning bosqichlari bilan bir-xildir. Ma’lumot yig‘ish, rejalashtirish, amalga oshirish va tekshirish bosqichlarida ta’lim oluvchi mustaqil ishlaydilar. Qaror qabul qilish va xulosa qilish bosqichlarida ta’lim oluvchi va muhandis-pedagog orasida “qaytar aloqa” o‘rnatilib, birgalikda muhokama qiladilar. Ta’lim oluvchilarga boshlang‘ich bosqichlarda muhandis-pedagog tomonidan tuzilgan yozma hujjatlar beriladi. Bunday hujjatlarga texnik chizmalar, jadvallar, yo‘naltiruvchi savollar, tarqatma materiallar, topshiriqlar varaqasi, baholash varaqasi va boshqalar kiradi.

Quyidagi chizmada “Yo‘naltiruvchi matn” metodining tuzilmasi keltirilgan (2.17-chizma).



**2.17-chizma. “Yo‘naltiruvchi matn” metodining tuzilmasi**  
**“Yo‘naltiruvchi matn” metodining bosqichlari:**

1. Muhandis-pedagog topshiriqlarni, tarqatma materiallarni va yo‘naltiruvchi savollarni ishlab chiqadi.



МА+САД:	ЙЫНАЛТИРУВЧИ САВОЛЛАР:	ТАРҚАТМА МАТЕРИАЛЛАР	ЧИЗМАЛАР, СХЕМАЛАР
			  
ТОПШИРИ+ ТАЪРИФИ:			

2. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar, yo'naltiruvchi savollar asosida topshiriqqa oid ma'lumotlar yig'adilar va "Yo'naltiruvchi matn" tuzadilar.

3. So'ngra ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda "yo'naltiruvchi matn" asosida ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta'lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalar va yordamchi vositalarni rejalashtirilishi lozim.

ЙЫНАЛТИРУВЧИ МАТН:

ИШ РЕЖАСИ			
№	Иш тартиби	Зарур былган асбоблар	Ва =т

4. Ta'lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo'yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Ta'lim oluvchilar bajariladigan ishlar ketma-ketligi bo'yicha qaror qabul qiladilar, muhandis-pedagog esa faqat maslahatchi sifatida ishtirok etadi.

5. Ta'lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda yakka tartibda yoki guruhlarda amalga oshiradilar. Bu bosqichda ta'lim oluvchilarning amaliy ko'nikmalari shakllanadi. Muhandis-pedagoglar topshiriqning bajarilishini "Nazorat varaqasi"ga qayd qilib boradi.

БАҲОЛАШ ВАРАҚАСИ		
№	Мезонлар	БЇ=увчи Ф.И.Ш.

НАЗОРАТ ВАРАҚАСИ		
№	БЇ=увчи Ф.И.Ш.	Мезонлар

Ta'lim oluvchilar ish natijalarini o'zlarini tekshiradilar va "Baholash varaqasi"ni to'ldiradilar. "Baholash varaqasi"da sifat mezonlari, ya'ni talab etilgan me'yorlar beriladi va ular erishilgan natija bilan taqqoslanadi.

6. Muhandis-pedagog va ta'lim oluvchilar birgalikda ish jarayonini va erishilgan natijalarni yakuniy suhbat davomida tahlil qiladilar. Ushbu suhbatda barcha ta'lim oluvchilarning natijalari baholanadi va kelajakda ish jarayonida nimalarga e'tibor berish kerakligi ta'kidlanadi.

"Yo'naltiruvchi matn" metodi "Loyiha" metodi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu ikki metodni bir-biridan quyidagi nuqtai nazar bo'yicha farqlash mumkin:

- "Yo'naltiruvchi matn" metodi ta'lim oluvchilarning mustaqil o'rganishiga qaratilgan;
- "Loyiha" metodi esa ta'lim oluvchilarning mustaqil o'rganishidan tashqari, e'tiborni kasb o'rganishda kerak bo'ladigan shaxsiy qobiliyatlar va ko'nikmalarni takomillashtirishga qaratilgan.

#### **"Yo'naltiruvchi matn" metodining afzalliklari:**

- ta'lim oluvchilarning ko'nikma va malakalarining shakllanishiga olib keladi;
- ta'lim oluvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi;
- ta'lim oluvchilarda muloqot qilish, o'z natijalarini o'zi tekshirish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- ta'lim oluvchilarda ish-harakatlarni rejalashtirish, mustaqil qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi.

#### **"Yo'naltiruvchi matn" metodining kamchiliklari:**

- ko'p vaqt talab qiladi;
- tanlangan mavzu ta'lim oluvchining bilim darajasiga mos kelishi talab etiladi;
- ta'lim beruvchidan katta tayyorgarlik ko'rish talab etiladi.

### **Nazariy materiallar**

## **YOSH DAVRLAR PSIXOLOGIYASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI**

Yosh davrlari psixologiyasi fani predmeti to'g'risida fikr yuritilayotganda inson umrining turli Yosh bosqichlarida kechishi, Yosh o'sishiga va psixik taraqqiyotga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, turli ta'sirlar tufayli turlicha tarzda ro'y beradigan psixik rivojlanish xarakteristikasi nazarda tutiladi. Demak, Yosh davrlari psixologiyasi fanining mavzu baxsi turli yoshdagi odamlarning (bolalar, o'quvchilar, kattalar, erkaklar, ayollarning (ontogenezda) tug'ilgandan umrining oxirigacha) psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi hamda o'zaro munosabati qonuniyatlarini o'rganishdan iboratdir. Yosh davrlari psixologiyasi insonda turli psixik jarayonlar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini, uning har xil faoliyatini, er va ayolning jins tafovvutlarini, shuningdek inson shaxsining tarkib topishini ilmiy jihatdan tadqiq qiladi.

Yosh davrlari psixologiyasi turli yoshdagi insonlarning psixik rivojlanishi, psixik xususiyatlari va ularning o'ziga xos omillari, mezonlari hamda mexanizmlari haqidagi fandir. SHuningdek u muayyan yoshdagi insonlarning Yosh o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarini ham o'rganadi. SHuning uchun ijtimoiy xayotda, ta'lim-tarbiya jarayonida, guruxlar hamda jamoalarda, ishlab chiqarish va oilaviy munosabatlarda Yosh davrlari psixologiyasi alohida o'rin tutadi. Inson shaxsining tarkib topishi va bilish jarayonlarining rivojlanishi muammosini inson psixikasining rivojlanishi qonuniyatlarini xisobga olmay turib oqilona hal etib bo'lmaydi. SHuning uchun hozirgi kunda «inson omili» masalasi dolzarb mavzuga aylandi. Yosh davrlari psixologiyasi inson psixikasining rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari hamda shu rivojlanishning bosqichlarininazariy va amaliy jihatdan tadqiq etadi.

Yosh davrlari psixologiyasining asosiy vazifasi shaxsning kamol topishi qonuniyatlari va turli Yosh davridagi odamlarda vujudga keladigan psixik faoliyat, xolat va shart sharoitlarning o'zaro ta'siri xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Yosh davrlari psixologiyasi ana shu vazifalarni xal qilish bilan amaliy maqsadlarni ruyobga chiqaradi. Ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishga yordam beradi. Moddiy ne'matlar ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga, millatlararo munosabatlarni yaxshilashga, shaxslararo muloqotni to'g'ri yo'naltirishga, jamoada ijobiy psixologik iqlim yaratishga, uzoq umr ko'rish sirlarini ochishga, oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga ajralishlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, YUusuf Xos Xojib, A.Navoiy va boshqa bir qator allomalar Yosh davrlari psixologiyasi mavzusiga doir o'z qarashlarini bildirganlar.

Abu Nasr Farobiyning inson psixikasi haqidagi ahloqiy-falsafiy fikrlari "Hikmat ma'nolari", "Falsafiy savollar va ularga javoblar", "Jism va aksidensiyalarning shakllariga qarab bo'linishi" kabi asarlarida o'z aksini topgan.

Abu Rayxon Beruniy kishilarning jismoniy tuzilishi, umrlarining uzun-qisqaligi kabilarning umumiy hayot xususiyatlaridagi ahamiyati haqida o'zining

“O‘tmish yodgorliklari” deb nomlangan asarida bayon qilgan. Allomaning fikricha, inson uzoq umr ko‘rishining sabablari biologik va irsiy omillar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ibn Sino inson umri va Yosh o‘sishi bilan bog‘liq xolda kechadigan psixik taraqqiyot masalalari xususida hamda inson shaxsini shakllantirish muammolarini “Odob haqida” risolasi orqali bayon qilgan. SHuningdek Ibn Sino “Tib qonunlari” nomli asarida inson organizmining tuzilishi, undagi nerv tolalari va nerv yo‘llari, fiziologik jarayonlar bilan bog‘liq psixik jarayonlar xususida bir qancha ma‘lumotlar keltirgan.

Ilmiy psixologik adabiyotlarda qayd etilishiga ko‘ra Yosh davrlari psixologiyasi fani 19-asrning boshlarida vujudga kelgan, lekin dastlabki ildizi qadimgi YUNon madaniyatiga borib taqaladi. Uning predmeti va qonuniyatlari to‘g‘risida jaxon psixologiyasi olamida turli qarashlar va nazariyalar mavjud. Ularning juda keng tarqalganlari biogenetik (V.SHtern), sotsiogenetik (K.Levin) bixevioristik (E.Torndayk) psixoanalitik (Z.Freyd) nazariyalaridir. SHuningdek, mazkur fan metodlarga asoslanib tadqiqotlar olib borgan olimlar ham juda ko‘p. Ilmiy psixologik adabiyotlarda keltirilgan emperik ma‘lumotlar asosida Yosh davrlari psixologiyasining mustaqil fan sifatida ajralib chiqishiga qator omillar va xolatlar sabab bo‘lgan degan xulosaga kelish mumkin. Quyida ana shu omillar haqida bayon qilamiz:

1.Barcha fanlar negiziga kirib borgan evolyusiya g‘oyasining (CH.Darvin) inson psixikasining rivojlanish jarayonida o‘rganish zarurligi;

2.Umuminsoniy, umumpsixik qonuniyatlar turli yoshdagi odamlar xatti xarakatini, psixik xususiyatlarini va bolalarning o‘shishiga biror bir faoliyatning ta’sirini aniqlash uchun etarli emasligini e’tirof etish;

3.Yosh davrlari psixologiyasi insonning (tug‘ilganidan umrining oxirigacha) kamoloti uchun metodologik va nazariy ahamiyatga ega ekanligi tan olinganligi;

4.Turli yoshdagi odamlar (maktabgacha yoshdagi bolalar, maktab o‘quvchilari, o‘rta va oliy o‘quv yurtlarining talabalari, ishchilar, xodimlar qariyalar xar xil psixologik xususiyatlarga ega ekanligi sababli tarbiya, ishlab chikarish, ijtimoiy ta’minot muassasalari, etimxonalar, bolalar uylari, koloniyalar, maxsus maktablar, internatlar, psixonevrologik dispanserlar, qariyalar uylari, shifoxonalar, va boshqalar)ning extiyojlari ortib borayotganligi;

5.Tibbiyot fani va uning tarmoqlari rivojlanishi psixiatriya, psixonevrologiya, psixogigiena, neyroxirurgiya, bolalar va kattalar potologiyasi, genetika, oliy nerv faoliyati va xokozolar bo‘yicha kopleks tadqiqotlarning vujudga kelishi hamda psixologiya biologiya, meditsina, sotsiologiya fanlari bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishi;

6.YUridik psixologiya va uning soxalari ijtimoiy xayotimizda sezilarli o‘rin egallayotganligi hamda yoshlar o‘rtasida qonunbuzarlikning ortib borayotganligi (sud ishi psixologiyasi, kriminal psixologiya, voyaga etmagan qonunbuzarlar muammosi va jinoyatning oldini olish masalasi);

7.Amaliy psixologiyaning ijtimoiy siyosiy tus olayotganligi va turmushning xar bir jabhasiga kirib borishi, shuningdek o‘z o‘rnini

topayotganligi (psixologik konsultatsiyalar, maslahatlar auto va sotsial treninglar, ishbilarmonlik o'yinlari, professiogramma, psixodiagnostika va xokozolarga talabning ortishi);

8. Psixologiya fani soxalarining inson ontogenezidagi o'zgarishlariga doir, bilimlarga extiyoji va talabi ortayotganligi (harbiy, sport, savdo, mehnat, kosmik, injenerlik, ijod, aviatsiya) psixologiyaga aniq ma'lumotlarning zarurligi;

9. Ekologiya muammolari, zoopsixologiya va etologiya vazifalari, millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish, insonparvarlik g'oyalarini turmush tarziga olib kirish masalalarining dolzarbligi;

10. Moddiy ishlab chiqarishni ko'paytirish, sanoatda va qishlok xo'jaligida kishilarning xaqiqiy xo'jayinlik tuyg'usini uyg'otish, aqliy va jismoniy imkoniyatlarni qidirish, ishlab chikarish samaradorligini oshirish, "inson-inson", "inson-texnika", "er-inson", munosabatlarni izchil o'rganish zarurligi;

11. Oilaviy munosabatlarni yaxshilash, ajralishlarning oldini olish. Inoq oila yaratish, yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash, o'z joniga qasd qilish xollarini bartaraf etish, oilada teng xuquqlilikni qaror toptirish va bolalar tarbiyasini yaxshilash vazifalari;

12. Inson uzoq umr ko'rishining sirlarini – gerontopsixologik qonuniyatlarni ochish va targ'ib qilish, davlat muassasalarida psixologik bilimlarlardan o'z o'rnida foydalanish, uzoq umr ko'rishga zamin tayyorlash, qariyalar uylarida ularning ruhiyatiga mos munosabatda, odilona muloqotda bo'lish kerakligi Yosh davrlari psixologiyasi fanini rivojlantirishni taqozo etmokda.

Yosh davrlari psixologiyasi fanini o'rganish nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Yosh davrlar psixologiyasi fani boshqa fanlar bilan bog'liq xolda rivojlandi, bunda eksperimental biologiya va genetika, meditsina, sotsiologiya kabi fanlarning xizmati katta bo'ldi. Yosh davrlari va differensial psixologiya fani dialektika prinsiplariga, oliy nerv faoliyati qonunlariga, differensial psixofiziologiya qonuniyatlariga, psixologlar to'plagan materiallarga tayanib, inson psixikasining kechishi, rivojlanishi, o'zgarishi yuzasidan baxs yuritadi. Ijtimoiy turmushning barcha jabhalaridagi amaliy masalalarni hal qilishda faol ishtirok etadi.

Mazkur fan soxasi o'zining predmeti hamda vazifasini umumiy psixologiyaning asosiy tamoyillari va qoidalariga tayangan xolda belgilaydi. Yosh davrlar psixologiyasi quyidagi tamoyillarga rioya qiladi:

1. Psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyati va yoki miyaning mahsulidir. Odatda psixika tashqi dunyoning sezgi organlari orqali insonning miyasiga bevosita ta'sir etishi asosida vujudga kelib, sezgi, idrok, tassavur, xotira tafakkur, nutk xayol kabi bilish jarayonlarida, shuningdek shaxsning xususiyatlari va xolatlarida diqqati xis-tuyg'usi va xarakter xislatlarida, qizikishi va ehtiyojlarida o'z ifodasini topadi.

2. Psixikaning negizida miyaning reflektor faoliyati yotadi. Tashqi dunyodan kirib keladigan qo'zg'atuvchilarga ichki yoki tashqi biologik organlar javob reaksiyasini bildiradi. Bosh miya katta yarim sharlarida vujudga

keladigan muvaqqat nerv bog'lanishlari psixik xodisalarning fiziologik asoslari xisoblanadi va ular tashqi ta'sirning natijasida xosil bo'ladi. Bosh miya po'stlog'ida vujudga keladigan muvaqqat nerv bog'lanishlari I.P.Pavlovning nerv jarayonlarining irradiatsiyasi, konsentratsiyasi hamda o'zaro induksiyasi qonunlari zahirida ruy beradi. Bu qonunlar turli yo'sinda muvaqqat bog'lanishlar, assotsiatsiyalar qanday yuz berayotganini, qanday shart-sharoitda tormozlanish va qo'zgalish sodir bo'lishini, muvaqqat nerv bog'lanishlarining yo'qolayotgani yoki paydo bo'layotganini tushuntirish imkonini beradi.

Psixofiziologik qonuniyatlarga binoan miyaning funksiyasi muvaqqat nerv bog'lanishlarining birlashish mexanizmi hamda analizatorlar faoliyati mexanizmlari ta'sirida xosil bo'ladi. YUqoridagi ta'limotga ko'ra har ikkala mexanizm xayvonlarning tashqi olamga munosabatini aks ettiradi. SHuning uchun psixik faoliyat vokelikni aks ettirishdan, oliy nerv faoliyatining tashqi olamni timsollar sifatida ifodalanishidan iboratdir.

3. Psixikani tadqiq etish insonning butun ongli faoliyatini - uning nazariy hamda amaliy hayot faoliyatini o'rganishdan iboratdir. Odam zotining ongliligi uning turli tuman faoliyatida, hatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Inson shaxsi xar xil shakl va mazmunga ega bo'lgan nazariy va amaliy faoliyat jarayonida tarkib topa boradi. Bunda muhit, irsiy belgilar, tarbiya asosiy omillar xisoblanadi.

Inson o'zi yashab turgan davrni, moddiy turmushni aks ettiradi, ijtimoiy-siyosiy muhit ta'siri ostida bilimlarni o'zlashtirib boradi, ijtimoiylashadi, tarixan o'zgaradi. Ontogenezda uning his-tuygulari, xarakteri, qobiliyati, iqtidori, tafakkuri, extiyojlari, e'tiqodlari, uni faollikka da'vat qiluvchi harakat motivlari, xoxishlari, pozitsiyasi ham asta-sekin o'zgarib boradi.

4. Insoning bilish faoliyati rivojlanishi unga o'zini qurshab turgan borliqni yanada chuqurroq, to'g'riroq, to'larok va aniqrok aks ettirish imkoniyatini yaratadi va u borliqning asl mohiyatini, turli yo'sindagi o'zaro bog'lanishlari, murakkab munosabatlair va aloqalarini tabora aniqrok yoritadi. SHu bilan birga mazkur jarayonlarda shakllanib kelayotgan insonning borliqqa, vokelikka, jismlarga, kishilarga va o'ziga munosabati vujudga keladi.

5. Inson ongining rivojlanishi uning tashqi olamni faol aks ettirishda namoyon bo'ladi. Tarixiy materializm ta'limotiga ko'ra, insoning moddiy turmushi, u xayot kechirayotgan tuzumning moddiy asosigina emas, balki uni qurshab olgan odamlarning turmush tarzlari, umuminsoniy qiyofalari, extikodlari, dunyoqarashlari, ijtimoiy vokelikka munosabatlari, intilishlari, faoliyatlari, ijod maxsullari va xatti-xarakatlarining majmuasidir.

6. Insoning borliqni aks ettirishi faol jarayondir. Ma'lumki, inson zotining rivojlanishi ob'ektiv borliqqa va o'ziga faol ta'sir ko'rsatishida sodir bo'ladi. Bolaning katta yoshdagi kishilar tashkil qiladigan amaliy faoliyati, masalan uyini, kuzatishi, mexnati, o'qishi, adabiy asarni mutoala qilishi hamda qiziqishining barqarorlashuvi, iqtidorning takomillashishi va boshqalar uning psixik rivojlanishini ifodalaydi.

Psixologiyada psixik taraqqiyot inson shaxsining tarkib topishi jarayoni sifatida qaraladi. Psixik taraqqiyot bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq qator bosqichlarda amalga oshadi. Jumladan, bola aql-zakovatining ko'rsatkichi,

sifati, xarakteri uning atrofdagi odamlar bilan o'zaro kundalik munosabatlari va u bajaradigan amaliy faoliyat jarayonida vujudga keladi. Bunday o'zaro ta'sirlar natijasida bolada turli sifatlar tarkib topa boradi. Masalan, savol-javob, baxs-munozara ta'sirida aqlning ijodiy maxsuldorligi, tezligi va teranligi orta boradi. Kun sayin rivojlanib borayotgan hozirgi davrda shaxs psixik taraqqiyotini yanada jadallashtiruvchi vositalar mavjud. SHu tufayli bolalarning aqliy o'sish darajasini turli darajadagi murakkablikda tuzilgan testlar bilan aniqlash mumkin.

Yosh davrlari psixologiyasi predmeti ta'lim va psixik taraqqiyot muammosining o'zaro munosabatini ilmiy asosda talqin etib, bu ikki jarayon bir-biri bilan uzviy bog'liq ekanligini e'tirof etadi. Mazkur muammo yuzasidan tadqiqotlar olib borgan olimlarning fikricha, ta'lim bolaning psixik taraqqiyotidan oldinda borib, uni o'z ortidan ergashtirishi lozim (L.S. Vygotskiy, B.G. Anan'ev va boshqalar). Ammo hozirgi davr nuqtai nazaridan tahlil qilganimizda ta'limning yuqori bosqichlarida o'quvchi va talabalarning o'z bilim va ko'nikmalarini mustaqil rivojlantirish imkoniyatlarini ishga solishi muammoga nisbatan boshqacha qarashlarni ham vujudga keltirmoqda.

Ontogenez-(yunoncha, ontos-mavjudot, jonzot; genesis-kelib chiqish, paydo bo'lish)-individning paydo bo'lishidan umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayoni.

Yoshning ulg'ayib borishi, psixik jarayonlarining rivojlanishidagi qonuniyatlar, undagi etakchi omillar hamda inson hayot yo'lining turli bosqichlarida uning shaxsiga xos xususiyatlar-Yosh psixologiya fanining tadqiqot predmeti hisoblanadi. Ma'lumki shaxs tarkib topishi jarayonining psixologik qonuniyatlarini, uning ilmiy asoslarini mukammal bilmay turib, ta'lim va tarbiyaning nazariy hamda amaliy masalalarini muvaffaqiyatli hal etib bo'lmaydi. Yosh psixologiyasi fani ham o'z navbatida o'ziga tegishli masalalarni tor eksperimental ravishda o'rganish bilangina cheklanib qolmay, balki o'z muammolarini inson hayoti va faoliyatining tabiiy sharoitlarida, bolaga beriladigan ta'lim va tarbiyaning mazmun va mohiyatidan kelib chiqqan holda o'rganilsa yanada muvaffaqiyatli rivojlanishi tabiiydir.

Tabiat va jamiyatning qonunlari singari kamol topayotgan inson shaxsi rivojlanishining ham o'z qonunlari mavjud. Bu qonunlar Yosh psixologiyasi fanining turli tarmoqlarida o'rganiladi. Bular: bolalar psixologiyasi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixologiyasi, o'smirlar psixologiyasi, o'spirinlar psixologiyasi, katta yoshdagi kishilar psixologiyasi va qariyalar (gerontopsixologiya) psixologiyasidir.

Yosh psixologiyasi fanining vazifalarni mazmuniga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin. Yosh psixologiyasi fanining nazariy vazifalari g'oyat muhim va murakkab bo'lib, u shaxsning kamol topishi qonuniyatlari va turli Yosh davridagi odamlarda vujudga keladigan psixik faoliyat, holat va shart-sharoitlarining o'zaro ta'siri xususiyatlarini o'rganishdan iboratdir.

Yosh psixologiyasi fanining amaliy vazifalarini esa psixik jarayonlarning namoyon bo'lishi va taraqqiy etishi hamda inson shaxsi psixologik xususiyatlarining tarkib topishi qonuniyatlarini o'rganishda qo'lga kiritilgan ilmiy dalillarni ta'lim-tarbiya sohalariga tadbiiq qilish tashkil etadi.

Jamiyat a'zosi bo'lgan bolaning rivojlanishi qonuniyatlarini, uning psixikasini, ongining rivojlanishini, umuman, bolaning tug'ilganidan boshlab voyaga etgunicha bo'lgan psixik rivojlanishini psixologiyaning alohida sohasi bo'lgan bolalar psixologiyasi fani o'rganadi.

Tabiat va jamiyat qonuniyatlari ichida bola psixikasining rivojlanishi qonuniyatlari, o'sib kelayotgan bola shaxsining rivojlanishi qonuniyatlari ham mavjuddir. Mana shu qonuniyatlar umumiy psixologiyaning maxsus tarmog'i bo'lgan bolalar psixologiyasining predmetini tashkil qiladi. Yosh psixologiyasi, bolaning psixik xususiyatlari miqdor jihatidagina emas, sifat jihatidan ham rivojlanadi va o'zgaradi, degan qoidaga asoslanadi. Shu tufayli Yosh psixologiyasi bolaning psixik rivojlanishi qonuniyatlari va psixikaning namoyon bo'lishi xususiyatlarini taraqqiyotning turli Yosh bosqichlardagi xolatini tadqiq etadi.

SHunday qilib, Yosh psixologiyasining asosiy vazifasi shaxsning kamol topishi qonunlarini va turli Yosh bosqichlaridagi bolaning rivojlanishida vujudga keladigan psixik faoliyat xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Mamlakatimizda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda barkamol shaxsni tarbiyalash xususidagi davlat xujjatlari ta'limning turli bosqichlarida ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga, barkamol shaxsni kamol toptirishga qaratilgan. Bu dolzarb vazifani amalga oshirish, ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri, ilmiy asosda tashkil etishni talab qiladi. Buning uchun esa talim jarayoni va bola shaxsi taraqqiyotining o'ziga xos psixologik qonuniyatlarini yaxshi bilish kerak bo'ladi.

Bola jamiyatning a'zosi, mukammal shaxs sifatida muayyan ijtimoiy muhitda kamol topar ekan, uning butun bilish jarayonlari o'ziga xos xususiyatlari va ruhiy holatlari, ongi ham rivojlanadi. Ana shu rivojlanish natijasida uning ongi go'dakning dastlabki oddiy aks ettirish (in'ikos) tarzidagi sodda ongidan balog'atga etgan insonlarga xos tevarak-atrofni, borliqni, odamlarni aniq, yaqqol to'la va anglab aks ettirish darajasigacha rivojlanadi.

Xulosa sifatida aytish joizki, agar umumiy psixologiya psixika haqidagi, psixikaning zohir bo'lish va taraqqiyot qonuniyatlari haqidagi fan bo'lsa, Yosh davrlar va differensial psixologiya turli yoshdagi bolalarning o'qish faoliyatini, ularning psixik taraqqiyoti va psixologik xususiyatlari haqidagi fan bo'lib, Yosh psixologiyasi va differensial psixologiya shaxsning kamol topishi jarayonida psixik faoliyatning individual xususiyatlari taraqqiyoti, fe'l-atvorlarini va umuman shaxsni kamol toptiradigan shart-sharoitlarini ham o'rganadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

## **2- Mavzu: Yosh davrlar psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlari**

### **R e j a :**

1. YOshdavrlar psixologiyasida qo'llaniladigan metodlar.
2. Qiyoslash va longityud metod.
3. Biografiya metodi va boshqa yordamchi metodlar.

Yosh davrlar psixologiyasi o'rganadigan faktlarni muayyan psixologik usullar, metodlar hamda qoidalar yordamida tadqiq etadi. SHaxsning



ontogenetik taraqqiyotida ro'y beradigan psixik o'zgarishlar, yangilanishlar, ularning kechishi, shart-sharoitlarini tadqiq etishda umumiy psixologiya metodlaridan keng foydalanadi. SHuningdek Yosh davrlar psixologiyasi o'zining maxsus metodlariga ham egaki, ular orqali psixik o'sish jarayonini uzluksiz, kompleks o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yosh davrlar psixologiyasida umumiy psixologiyaning kuzatish, eksperiment, anketa, test, so'rov kabi metodlari hamda kompleks, biografik metod, longityud metod, egizaklar metodi, faoliyat maxsullarini tahlil qilish kabi maxsus metodlari qo'llaniladi.

Fan va texnika taraqqiyoti shaxs psixikasi taraqqiyotining xususiyatlarini eksperimental ravishda o'rganish uchun murakkab va nozik asboblarni yaratish imkonini berdi. Eksperimental materiallar asosida asta-sekinlik bilan turli yoshdagi bolalar psixikasi taraqqiyotining qonuniyatlari aniqlana boshlandi.

**Muammoli savol: Yosh davrlar psixologiyasida psixologik qonuniyatlarni tekshirish qanday bosqichlarda olib boriladi?**

Yosh davrlar psixologiyasi fani ham psixologiya ilmining boshqa soxalari singari o'zining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Psixologik qonuniyatlarni muayyan reja asosida olib boriladigan tekshirishlar tufayligina xolisona aniqlik kiritish mumkin. Psixologik tadqiqotlar jarayonini quyidagi asosiy bosqichlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

**1. Muammoning qo'yilishi.** Xar qanday ilmiy-tekshirish ishlari kabi, psixologiyada olib boriladigan ilmiy tekshirish ishlari ham nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muammoni aniqlashdan, shuningdek bu muammo fanda qanchalik yoritilganligini aniqlash maqsadida mazkur mavzuga oid ilmiy va maxsus adabiyotlarni taxlil qilishdan boshlanadi.

**2. Tadqiqot metodikasini tanlash.** Psixologik tadqiqotlar turli metodlar {bu metodlar xaqida quyida batafsil fikr yuritiladi} bilan olib boriladi. Tekshirishlarning muvaffaqiyatli chiqishi ko'p jixatdan metodni to'g'ri tanlashga bog'liq bo'ladi.

**3. Ma'lumotlarni to'plash.** To'plangan ma'lumotlar o'rganilayotgan muammoga mos bo'lishi yoki ularni to'plash maqsadga muvofiq ravishda olib borilishi zarur. Ilmiy ma'lumotlarga bo'lgan asosiy talablar - bu ularning xolisona, to'la va izchil bo'lishidir. To'plangan ma'lumotlar o'rganilayotgan muammoni har jixatdan tavsiflab berishi kerak,

**4. Ma'lumotlarni qayta ishlash.** To'plangan ma'lumotlarni matematik va mantiqiy jixatdan ishlab chiqish umumiylikni, xususiylikni topish va ularni tasodifiy ma'lumotlardan ajratash imkonini beradi. Bunda to'plangan ma'lumotlarning o'rtacha miqdori (arifmetik, kvadrat va xokazo), protsentlari aniqlanadi, sonlarga oid ma'lumotlar jadvallarga joylashtiriladi, grafik, diagramma va chizmalarda o'z aksini topadi. Murakkab mutanosiblikdagi ma'lumotlarni topishda esa variatsion statistika metodlari qo'llaniladi.

**5. Qonuniyatlarning ifodalanishi.** Bu tadqiqotning bir muncha murakkab va masxuliyatli bosqichi xisobanadi. CHunki, bu bosqichda ma'lumotlarning moxiyatiga qanchalik chuqur tushunilganligi, ularning o'zaro bog'liqligini xisobga olib, olingan ma'lumotdan xar turli xulosa chiqarish

mumkin. Ko'pincha chiqarilgan xulosalar ta'miniy xarakterga ega bo'lib, keyingi tekshirishlar uchun asos bo'ladi.

**6. Qonuniyatni amalda qo'llash.** Aniqlangan qonuniyatlar ma'lum bir amaliyot sohasida qo'llaniladi. Amalda qo'llash aniqlangan qonuniyatning to'g'riligiga batamom ishonch xosil qilish imkonini beradi. Ko'pincha o'qituvchilar o'z amaliy faoliyatlarida shaxsiy kuzatishlari va boshqalarning tajribalarini umumlashtiradilar. Biroq, bunday umumlashtirishlar ilmiy jihatdan etarli asoslangan bo'lmaydi, ya'ni, muammo aniqligi va teranligi bilan ajralib turmaydi.

**Muammoli savol: Yosh davrlar psixologiyasining maxsus metodlari qaysilar?**

Psixolog B.G.Anan'ev psixikani o'rganish metodlarini to'rt guruhga ajratib, ularni tashkiliy, empirik, (amaliy), natijalarni qayta ishlash yoki natijalarni sharxlash metodlari deb nomlagan. Bu guruxlar o'zining maqsad va vazifasi bo'yicha yana bir necha toifa hamda turlarga bo'linadi. Quyida mazkur metodlarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari hamda qiyosiy tavsifini keltiramiz.

Tadqiqot metodlarining birinchi-tashkiliy guruxi o'z ichiga qiyoslash, longityud (uzluksiz) kompleks (ko'pyoqlama) deb atalgan turlarni oladi. Qiyoslash metodidan umumiy psixologiya sotsial psixologiya (katta yoki kichik guruxlarni hamda ularning xar bir toifalarini) meditsina psixologiyasi (sog'lom va bemor kishilarning psixik xususiyatlarini) sport psixologiyasi (sportchilarning xolati, kuchliligi va ishchanligini) o'zaro taqqoslash kabilarda unumli foydalaniladi.

Yosh davrlar psixologiyasida esa qiyoslash metodi turli yoshdagi odamlarning bilish jarayonlari, shaxs xususiyatlari, bilimlarni o'zlashtirishi, aqliy qobiliyati, salohiyati, rivojlanish dinamikasi, jinslarning tafovutlari va o'ziga xosligi kabilarni o'rganishda qo'llaniladi.

Yosh davrlar psixologiyasida qiyoslash metodi bilan bir vaqtda longityud (uzluksiz) metodi ham qo'llaniladi. Uning boshqa metodlardan farqi bir yoki bir nechta sinaluvchilar uzoq muddat, xatto o'n yillab tekshirishidir. Longityud metodidan foydalanib, nemis olimi V.S.Htern, fransuz tadqiqotchisi R.Zazzo, rus psixologlari N.A.Menchinskaya, A.N.Gvozdev, N.S.Leytes, V.S.Muxina va boshqalar tadqiqotlar olib borganlar. Mazkur metod orqali bir xil jinsli (Xasan-Xusan, Fotima-Zuxra) yoki aralash jinsli (Xasan-Zuxra, Fotima-Xusan) egizaklar kuzatilgan. SHuning uchun qator tadqiqotlarning «Ona kundaligi» (N.A.Menchinskaya, V.S.Muxina) deb nomlanishi bejiz emas. Uzoq vaqt bir shaxsni kuzatish, unda paydo bo'layotgan yangi fazilatlarining rivojlanish dinamikasini, xulq-atvoridagi illatlarni oldini olish tadbirlarini, murakkab psixologik munosabatlarining ichki bog'lanish qonuniyati hamda mexanizmi to'g'risida mukammal ishonchli barqaror ma'lumotlar to'plash imkonini yaratadi.

Xozirgi fan va texnika taraqqiyoti psixologik tekshirishlarning ilmiyligini yanada oshirish uchun (sub'ektiv omillarning ta'sirini kamaytirish maqsadida) kompleks dastur asosida boshqa fanlar ( meditsina, fizika, fiziologiya, biologiya, sotsiologiya, kibernetika, statistika, filosofiya, logika va xakazolar)

bilan birgalikda tadqiqot ishlari olib borishni taqazo etmoqda. Amaliy yoʻsindagi ilmiy tadqiqot ana shu koʻp qirrali yondoshishni talab qiladi.

Psixologiya soxalarida (psixofiziologiya, kosmik psixologiya, meditsina psixologiyasi, injenerlik yoki aviatsiya psixologiyasi) tadqiqot obʻektiga sistemali yondoshish prinsipi amalga oshirilmoqda. Kompleks metod yordamida oʻrganilayotgan obʻektdagi oʻzgarishlar turli nuqtai-nazardan taxlil qilinadi yoki ularga turlicha yondoshiladi. Masalan, bolada oddiy bilimlarni oʻzlashtirish xususiyati psixologik jixatdan tekshirilayotgan boʻlsa, kompleks yondoshish taʼsirida ana shu oʻzlashtirishning falsafiy, mantiqiy, fiziologik, ijtimoiy, biologik xususiyatlari yoritiladi. Aytaylik keksayishning biologik omillarini oʻrganish uning psixologik, fiziologik, mantiqiy jixatlarini yoritishda xizmat qiladi.

Kompleks dastur yordamida amalga oshirilgan tadqiqot natijasi ilmiy ahamiyatga ega boʻlib insonshunoslik muammolarini hal qilishda katta yordam beradi.

Ilmiy tadqiqot metodikalarining ikkinchi guruxi empirik metodlaridan iborat boʻlib, bu guruxga kuzatish, eksperiment, test, anketa, soʻrov, sotsiometriya, suhbat, intervgʻyu, faoliyat jarayoni va uning maxsulini tahlil qilish, tarjimai xol kabilar kiradi va ular sinash, tekshirish, diagnoz va prognoz vazifalarni bajaradi. Insonda tugʻilganidan umrining oxirigacha sodir boʻladigan psixologik oʻzgarishlarni chuqurroq va obʻektivroq tadqiq etish uchun empirik metodlardan navbati bilan foydalanish yaxshi natija beradi.

#### **Muammoli savol: Genetik metod nimani va qanday qilib oʻrganadi?**

Ilmiy tadqiqot metodlaridan 4-sharxlash guruxi genetik va donalash metodlaridan iborat. Genetik metod bilan tadqiqot davomida toʻplangan maʼlumotlar yaxlit xolda maqsadga muvofiq yoʻsinda sharxlanadi. Bu metoddan foydalanishning asosiy maqsadi sinaluvchida vujudga kelayotgan yangi shaxs fazilatlarining rivojlanishi va bilish jarayonining oʻzgarishiga, tajriba natijasiga suyanib taxrif hamda tavsif berishdir. SHuningdek unda mazkur fazilat va xususiyatlarning namoyon boʻlish davri, bosqichi hamda baʼzi mashaqqatli daqiqalarga, paytlarga qoʻshimcha sharxlar berish imkoniyati tugʻiladi.

Genetik metodga asoslanib psixik oʻzgarishlar irsiyat bilan bevosita bogʻliqligining ildizlari aniqlanadi.

Endi tajribada eng koʻp qoʻllaniladigan empirik metodlar xaqida kengroq maʼlumot beramiz.

Kuzatish metodi. Bu metodning obʻektiv va subʻektiv kuzatish turlari mavjud. Inson psixologyasidagi oʻzgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi.

1. Kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi.
2. Kuzatiladigan obʻekt tanlanadi.
3. Sinaluvchining yoshi jinsi aniqlanadi.
4. Tadqiqot oʻtkazish vaqti rejalashtiriladi.
5. Kuzatish qancha davom etishi qatxiylashtiriladi.
6. Kuzatish insonning qaysi faoliyatida amalga oshirilishi tavsiya qilinadi.
7. Kuzatishning shakli tayinlanadi.
8. Kuzatiladiganlarning qayd qilib borish vositalari taxt qilinadi.

Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, his-tuygʻulari, nerv sistemasining tashqi ifodalari, temperament xususiyatlari, imo-ishoralari, sezgirligi, xulq-atvori, nutq faoliyati va xokozolari oʻrganiladi. Ammo shaxsning oʻta murakkab ichki psixologik kechinmalar, yuksak xissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql zakovatini tadqiq etishga bu metodning imkoniyati etmaydi.

Psixologiya fanida oʻz-oʻzini kuzatishdan ham foydalaniladi. Koʻpincha tajribada psixolog yoki yuqori malakali moxir oʻqituvchi oʻzini kuzatish orqali ilmiy xulosa chiqara biladi. Masalan; oʻz taffakkurini kuzatib oʻzidagi emotsional oʻzgarish haqida maʼlumot oladi. Natijada tafakkurning sifati, mazmuni, moxiyati va qay tarzda, qanday tezlikda, qay shaklda roʻy berishini kuzatadi.

SHunday qilib, kuzatish metodining qulay va sistemali jihatlari bilan birga zaif tomonlari ham mavjud. SHu sababli insonning murakkab psixikasi boshqa metodlardan foydalanib tadqiq qilinadi.

### **Muammoli savol: Suxbat metodi orqali nimalar oʻrganiladi?**

Bu metod bilan inson psixikasining oʻrganishda suxbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning obʻekti va subʻekti tanlanadi, mavzusi, oʻtkaziladigan vaqti aniqlanadi. Suxbat oʻtkazish rejalashtiriladi, oʻrganilayotgan narsa bilan uzviylik bogʻliq savol javob tayyorlanadi. Suxbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi oʻzgarishlarni oʻrganishdir. Suxbat orqali turli yoshdagi odamlarning tafakkuri, aql zakovati, xulq-atvori, qiziqishi, ziyrakligi, bilim saviyasi, eʼtiqodi, dunyoqarashi, irodasi toʻgʻrisida maʼlumotlar olinadi. Suxbat metodining taʼkidlangan ijobiy jixatlari bilan birga ayrim zaif tomonlari ham mavjud. Qaytariq soʻzlar «gʻaliz» iboralar, nutqning tezligi, fikrning mavhumligi, zerikarliligi, muvaffaqiyatsizlikka sabab boʻladi. SHuningdek, savol javobning bir xil shaklda emasligi sinaluvchida oʻziga xos ishlash uslubi, oshkoralik etishmasligi, iymonish, uyalish atroficha maʼlumotlar olishni qiyinlashtiradi va shu sababli boshqa metodlarga murojaat qilishga toʻgʻri keladi.

**Faoliyat maxsuli taxlil qilish metodi.** Inson xotirasi, aqliy qobiliyati va xayolini aniqlash maqsadida bu metod Yosh davrlari pisixologiyasida keng qoʻllaniladi. Bolalar chizgan rasmlar, yasagan oʻyinchoqlar, modellar, yozgan shexrlarni taxlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, texnik, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli yuzasidan materiallar toʻplash mumkin. Mazkur metoddan foydalanishda mahsulotni yaratgan shaxs bevosita ishtirok etmaydi. Obʻekt bilan subʻekt oʻrtasida muloqot oʻrnatish uchun shaxsning psixikasi toʻgʻrisida sirdan muayyan xukm va xulosa chiqariladi. Ijodiy faoliyat maxsullarining taxlil qilish orqali bolalar oʻquvchilar talabalar konstruktorlar olimlar, xunarmandlar, ishchilar, psixik, xususiyatlari toʻgʻrisida maʼlumotlar toʻplash mumkin. Lekin insondani psixik oʻzgarishlar, kamol topish va ularning kechishini ifodalovchi materiallar yigʻish uchun bu metodning oʻzi etmaydi. SHuning uchun inson psixikasini oʻrganish maqsadida boshqa metodlardan foydalanish maxsul.

**Muammoli savol: Yosh psixologiyasida test metodidan qanday maqsadlarda foydalaniladi?**

Test metodi. «Test»-ingilizcha soʻzdan olingan boʻlib, sinash tekshirish degan maʼnoni anglatadi. SHaxsning aqliy oʻsishini, qobiliyatlarini, irodaviy sifatleri va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qoʻllaniladigan qisqa standart masalali topshiriq, misol, junboqlar test deb ataladi. Test ayniqsa odamning kasbiy qobiliyatini aniqlash mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, istexdodlilar va aqli zaiflikni aniqlashda, kishilarni saralashda keng qoʻllaniladi. Test metodining qimmati tajribaning ilmiylik darajasiga, tekshiruvchining maxoratiga va qiziqishiga, yigʻilgan psixologik maʼlumotlarning obʻektivligi va ularning ilmiy tahlil qila bilishiga bogʻliqdir. 1905 yilda fransuz psixologi A.Bine va uning shogirdi A.Simon insonning aqliy oʻsishi va istexdod darajasini oʻlchash imkoniyati borligi gʻoyasini olgʻa surganidan keyin psixologiyada test metodi qoʻllana boshlandi. Xozirgi davrda nodir testlar qatoriga psixologlardan Rorshax, Rozensveyg, Kettel, Veksler, Meyli, Ayzenk, Anastazi, Raven va boshqalarning ijodlarini kiritish mumkin. Eng keng tarqalgan testlar qatoriga yutuqqa erishish (maqsadga etish) testleri (ular darsliklarda berilgan bilim va malaka darajalarini baholashga qaratilgan) intellektual testlar (aqliy rivojlanish darajasini oʻlchashga moʻljallangan) shaxs testleri (inson emotsiyasi, qiziqishi, motivatsiyasi, va hulqidan iboratdir.) shaxs «loyixa» (proektiv) testleri (savollarga bitta aniq javob berish talab qilinadi, javoblarni taxlil qilib shaxs xususiyatlarini «loyixasini» ishlab chiqiladi) kiradi.

Tajriba (eksperiment) metodi. Bu metod turli yoshdagi odamlar (chaqaloq, bola, oʻsmir, oʻspirin, balogʻatga etganlar va qarilar) ning psixikasini chuqurroq, aniqroq, tadqiq qilish metodlari ichida eng muhimi xisoblanadi. Eksperiment metodi yordamida suxniy tushunchalarning shakllanishi, nutqining oʻsishi, favqulotda xolatdan chiqish, muammolli vaziyatni hal qilish jarayonlari, shaxsining xis-tuygʻulari, xarakteri, tipologik xususiyatlari oʻrganiladi. Inson psixikasining nozik ichki bogʻlanishlari, munosabatlari, qonuniyatlari, xossalari, murakkab, mexanizmlari tekshiriladi. Buning uchun eksperiment materiallarini tekshiruvchi sinchikovlik bilan tanlashi obʻektiv tarzda xar-xil xolat va vaziyatlarni yaratishi bunda sinaluvchining yoshi, aqli, idroki, xarakteri, xususiyati, his-tuygʻulari, qiziqishi va saviyasiga, turmush tajribasiga koʻnikma va malakalariga eʼtibor berish lozim.

Eksperiment metodi oʻz navbatida tabiiy va labaratoriya metodlariga ajratiladi. Tabiiy metod psixologik pedagogik masalalarni xal qilishda qoʻllaniladi. Bu metodning ilmiy asoslarini 1910 yilda A.F.Lazurskiy taxriflagan. Tabiiy eksperimentdan foydalanishda ishlab chiqarish jamoalari aʼzolarining, ilmiy muassasalari xodimlarining, oʻquvchilar ,keksaygan kishilarning oʻzaro munosabatlari ish qobiliyatlari, mutaxassislikka yaroqliligi muammolarini xal qilish nazarda tutiladi. Tabiiy sharoitda inson psixikasini oʻrganishda sinaluvchilar (bogʻcha bolalari, maktab oʻkuvchilari, ishchilar, dexkonlar, xodimlar va xokozolar) ning oʻzlari bexabar boʻlishi taʼlim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maksadiga muvofiklashtirilishi katta yoshdagi odamlarga tarbiyaviy taʼsir oʻtkazishi kundalik mexnat tarzi doirasida amalga oshirilishi zavod va fabrikada esa moddiy maxsulot ishlab chikarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim.

Labaratoriya metodi ko'pincha individual shaklda sinaluvchilardan yashirmay maxsus psixologik asboblari, yul-yuriklar, tavsiyalar, ko'rsatma va ilovalardan foydalanib olib boriladi. Xozirgi zamon kishisi psixikasidagi o'zgarishlarni aniqlaydigan asboblari, murakkab elektron xisoblash mashinalari, qurilmalar, moslama va jixozlar mavjud. Ular odamdagi psixologik jarayonlar, xolatlar, funksiyalar vujudga kelayotgan yangi sifatlarni qayd qilish va o'lchashda qo'llaniladi. Ko'pincha ditekto'rlar, elektron va radio o'lchagichlar, sekundomer, xronorefleksometr, taxistoskop, audiometr eksteziometr elektromiogramma, elektroensefalogramma kabilardan foydalaniladi.

**Anketa metodi.** Yosh davri psixologiyasida keng qo'llaniladigan metodlardan biridir. Uning yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlari, narsa va xodisalarga munosabatlari urganiladi.

Anketa odatda uch turda tuziladi. Ularning birinchi turi anglashilgan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi. Ikkinchi turida xar bir savolning bir nechtdan tayyor javoblari beriladi. Uchunchi tur anketada sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi, anketadan turli yoshdagi odamlarning layokatlarini, muayyan soxaga qizikishlari va qobiliyatlarini, o'ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlash maqsadida foydalaniladi.

**Sotsiometrik metod.** Bu metod kichik gurux a'zolari urtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni urganish va ularning darajasini ulchashda qo'llaniladi. Unga amerikalik sotsiolog Djon Morenko asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruxdagi xar bir a'zoning o'zaro munosabatini aniqlash uchun uning kaysi faoliyatida Kim Bilan birga katnashishi suraladi. Olingan ma'lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi.

**Biografiya (tarjimai hol) metodi.** Inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning hayoti faoliyati ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Bu borada kishilarning tarjimai holi, kundaligi, xatlari, esdaliklari o'zgalari ijodiga bergan baholari, tanbehlari, taqrizlari aloxida o'rin egallaydi. SHu bilan birga o'zgalari tomonidan to'plangan tarjimai hol haqidagi materiallar: ustaliklar ovozlari, fotolavxalar, xujjatli filg'mlar, taqrizlar o'rganilayotgan shaxsni to'laroq tassavvur etishga xizmat qiladi.

Tarjimai hol inson psixikasining o'zgarishlarini kuzatishda uning suxbat va tajriba metodlari bilan o'rganib bo'lmaydigan jixatlarini ochishda yordam beradi. Masalan, mazkur ma'lumotlar orqali ijodiy hayol bilan bog'liq jarayonlar: shexriyat, musiqa, nafasat, tasviriy sanxat, texnik ijodiyotning nozik turlari va kayfiyatlari taffakkurning o'ziga xosligi, shaxsning ma'naviyat, qadriyat, qobiliyat, iqtidor, istexdod singari fazilatlarini o'rganish mumkin. Yosh davri psixologiyasining bolalarning tarjimai holi asosidagi ilmiy tadqiqot, masalan N.A.CHenskaya, V.S.Muxinaning kuzatishlari. Ona kundaligi nomi bilan mashxur. SHunday tadqiqotlar chet el psixologiyasida ham keng tarqalgan.

### **3- Mavzu: Taraqqiyotning asosiy masalalari**

#### **R e j a :**

1. SHaxsning psixik taraqqiyoti masalasi.

2. Psixik rivojlanishning shart-sharoitlari.
3. Psixik rivojlanishning umumiy qonuniyatlari.
4. Taraqqiyot nazariyalari.

Muammoli savol: SHaxsning psixik taraqqiyoti masalasi deganda nima tushuniladi?

Davlatimiz tomonida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da shaxsni kamol toptirishdan iborat bo'lgan vazifalar belgilab qo'yilgan.

SHaxs bu ijtimoiy munosabatlar yig'indisi, ya'ni individ sifatida tug'ilgan bola o'z atrofidagi kishilarning munosabatlari ta'sirida va o'zini anglash jarayonida shaxsga aylanadi.

YUsof Hos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridagi bosh masalalardan biri komil insonni tarbiyalashdir. A.Jomiyning «Baxoriston», «Tuxfatul axror» va boshqa asarlarida ilm, ma'rifat, ta'lim-tarbiya, kasb-hunar o'rganish xaqidagi fikrlar ifodalangan. A.Navoiyning «Xazoyinul-maoniy», «Maxbub-ul qulub», va boshqa asarlarida etuk, barkamol insonning axloqi, qobiliyati to'g'risida qimmatli muloxazalar yuritilgan.

YUqoridagilardan tashqari Bobur, Farg'oniy, Mashrab, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy, Muqumiy, Furqat, Bedil, Zavqiy, Hamza, Avloniy va boshqalarning yoshlar tarbiyasiga, fexl-atvor, oilaviy hayot masalalariga, shaxslararo munosabatlarga doir qarashlari ham turli janrlardagi asarlarida bayon qilingan.

**Muammoli savol: Psixologiyada rivojlanish muammosi qanday talqin etiladi?**

Ta'lim-tarbiya ishlarining usullari, vositalari va tashkiliy formalarini ishlab chiqish hamda pedagogik jarayonni boshqarishning samaradorligi rivojlanish masalasini hal qilish bilan bog'liqdir. Bu inson psixikasi rivojlanishida bir tomondan tabiiy, biologik, tug'ma xususiyatlar o'zaro munosabati muammosi rivojlanishidan hamda tashqi va ichki omillarning (irsiyat va muhit) roli va ularning o'zaro munosabati muammosidan iborat.

Odamda tug'ma ravishda tashkil topgan xususiyatlar ko'rish, eshitish sezgilarining ayrim xususiyatlari bilan bir qatorda hayot sharoitlari va faoliyatlarining ta'lim tarbiya ta'siri ostida tashkil topgan axloqiy sifatlar mavjuddir. Psixologiyaning ayrim namoyondalari psixik xususiyatlar tug'ma paydo bo'ladi, bola tug'ilmasdan shakllanadi degan pozitsiyada turadi.

Angliyalik genetik SH.Aurebax «Har bir odam xuddi kartaboz qo'lga karta olib o'ynagani kabi o'z hayotini qo'lga genlarni olib boshlaydi» deydi. Uning fikricha «Aqliy taraqqiyot darajasi maxsus qobiliyat, shaxsiy sifatlar bularning hammasi genetik faktorlar bilan muhit faktorlari o'zaro munosabatining natijasidan ibotardir» degan fikrni ilgari suradi.

Avstraliyalik psixolog K.Byuler - «Bolalarning faqat aqliy taraqqiyotigina emas balki ahloqiy taraqqiyoti ham nasliy tomonidan belgilangandir» deb ta'kidlaydi.

Z.Freyd va uning izdoshlari inson faoliyatini boshqaruvchi instinktlarni tug'ma bo'lgan va sotsial ta'sirotda bog'liq bo'lmagan dastlabki ongsiz extiyojlarni hamda mayllarni shaxs taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar deb bilgan.

Amerikalik psixolog va pedagog D.D'yui inson tabiatini o'zgartirib bo'lmaydi deb xisoblagan. Uning fikriga ko'ra irsiyat tabiatni belgilaydi.

Ayrim psixologlarning fikriga ko'ra muhit, ta'lim tarbiya tabiat tomonidan yaratilgan xususiyatlarning namayon bo'lishi va o'z o'zicha rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sharoitgina xolos. Ular psixik taraqqiyotda nasliy faktorlarning hal qiluvchi roli bor degan fikrni asoslashga intiladi.

Psixologlar V.N. Kolbonovskiy, A.R. Luriya, A.N. Mironovlar tajribasi boshqa ahvolni ko'rsatadi. YA'ni bir tuxumdan bo'lgan egizaklardan bir xil tabiiy sharoitda, ta'lim metodlariga qarab, ijodiy (ya'ni kombinatorlik) faoliyatining ayrim turlarida mutlaqo har-xil natijalarni olish mumkin. Fransuz psixologi R.Zazzo bir tuxumdan bo'lgan egizaklar ustida shunga o'xshash tajribalar o'tkazib, psixika xususiyatlarning tug'ma xarakteri nazariyasiga qattiq zarba berdi.

Psixologlar va pedagoglar ixtiyorida bo'lgan juda ko'p faktlar har ikkala yo'nalishning ham cheklangan va bir yoqlamaligini ko'rsatadi. Odamning genetik xususiyatlari bir ma'noda uning psixik xususiyatlarini belgilaydi deb xisoblash xatodir. Ammo buning teskarisi ham ya'ni psixik taraqqiyotning tabiiy imkoniyatlaridagi individual farqlarni batamom inkor qilish va odamlardagi g'oyat xilma-xil barcha individual psixologik xususiyatlarni faqat tashqi ta'sirotlar natijasidir, deyishi ham noto'g'ridir.

SHunday qilib har bir ayrim kishining taraqqiyoti (tug'ilgandan boshlab) organizmning o'sishiga bog'liq holda muhit, ta'lim va tarbiyaning ta'sirida, faol shaxsiy faoliyat natijasida amalga oshadi. Inson aqliy xususiyatlari, irodasi shu yo'sinda rivojlanadi. SHaxsning individual xususiyatlari temperament, xarakter, qobiliyatlar va qiziqishlar shu tariqa shakllanadi va taraqqiy etadi.

**Mammoli savol: Psixik rivojlanishi sharoitlari va uni xarakterga keltiruvchi kuchlar nimalardan iborat?**

Psixik taraqqiyotni xarakterga keltiruvchi kuchlar xaqida so'z ketganda, avvalo asosiy omilni belgilab olish lozim bo'ladi. Ammo psixik taraqqiyotni ta'minlovchi omil yagona emasligini, ular bir nechta ekanligini, shuningdek bu omillar o'zaro uzviy bog'liqlikda mavjudligi kabi faktlarni anglab etish kerak bo'ladi.

Psixik taraqqiyotni xarakterga keltiruvchi kuchlar sifatida quyidagi omillarni e'tirof etish mumkin; irsiy omillar, ijtimoiy omillar, maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya, shaxsiy faollik. Ularning har biri alohida bir olam bo'lishiga qaramasdan taraqqiyotni o'zaro hamkorlikda ta'minlaydi. Masalan, agar ta'lim faoliyati aniq maqsad asosida amalga oshirilishi uchun shart-sharoit to'liq bo'lsa-yu, ammo o'quvchida shaxsiy faollik etarli darajada shakllangan bo'lmasa u xolda psixik taraqqiyotda muammo vujudga keladi va uni zudlik bilan to'g'rilash zarurati qujudga keladi.

Psixik taraqqiyot sharoitlari va psixik taraqqiyotni xarakterga keltiruvchi kuchlar xaqidagi masalani to'g'ri hal qilishga shaxs taraqqiyoti haqidagi ta'limot yordam beradi.

SHaxsning mohiyati o'z tabiatidan ijtimoiy xarakterga egadir. SHaxsdagi barcha psixik xususiyatlarning, ijodiy faolligining rivojlanishi manbalari uning tevarak-atrofidagi ijtimoiy muhitga bog'liq xisoblanadi. Inson shaxsi



determinlashgan bo'lib, uning ijtimoiy turmushi bilan belgilanadi. Mana shu ma'noda shaxsning taraqqiyoti odamlar bilan munosabatida yuzaga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir degan xulosa chiqarish mumkin. Buning natijasida insonning psixik xususiyatlari, xarakteri, irodaviy xislatlari, qiziqishlari, mayllari va qobiliyatlari tarkib topadi.

YUqorida bayon etilganlarga asoslanib psixologiyada odamning psixik xususiyatlari uning hayoti davomida ya'ni ontogenetik tarzda yuzaga keladi degan xulosaga kelingan. Bu xususiyatlarning tarkib topishi va rivojlanishida odamning ijtimoiy tajribasi uning hayoti va faoliyati sharoitlari, ta'lim tarbiya etakchi, hal qiluvchi rolg' o'ynaydi deb o'rgatadi.

Muhit, ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim va tarbiya azaldan berilgan genetik jixatdan qat'iy belgilangan narsadir. Muhit psixikani nomayon qilish uchun sharoitgina bo'lib qolmay, balki inson psixik xususiyatlarini tarkib toptiradi. SHuni alohida qayd qilish lozimki jamiyat talablariga javob beradigan muayyan shaxsiy sifatlarni tarkib toptirish maqsadida katta avlodning Yosh avlodga ongli, maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish jarayoni sifatida ta'lim va tarbiya hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Birinchidan, odam muhit ta'siri ostidagi passiv ob'ekt bo'lmay, balki faol mavjudotdir. SHuning uchun tashqi hayot ta'siri inson psixikasini to'g'ridan to'g'ri belgilamaydi, balki odamning muhit bilan bo'lgan o'zaro ta'siri orqali, uning muhitdagi faoliyati orqali belgilaydi.

Ikkinchidan, psixikaning rivojlanish oqibati, natijasi tashqi sharoitlarga bog'liqdir. Lekin bu rivojlanishni bevosita tashqi sharoitdan va tashqi vaziyatdan keltirib chiqarib bo'lmaydi. Bu sharoitlar hamda vaziyatlar hamisha odamning hayotiy tajribasi uning shaxsi individual psixologik xususiyatlari va psixik qiyofasi orqali ta'sir qiladi. Mana shu ma'noda individ o'ziga xos psixikasi va shaxsiy tajribasini o'z ichki muhiti xususiyatlari orqali bilvosita ta'sir kiladi. O'z davrida I.M. Sechenov odamning hatti-harakatlari tashqi tassurotlar orqali determinlashgani xaqidagi tezisni ilgari surganida tashqi taassurotlarni faqat muayyan paytda ta'sir etib turgan mavjud taassurotlar kabi sodda ravishda tushunmaslikni, balki aslini olganda mazkur odamning hayotiy tajribasida mujassamlashgan barcha avvalgi taassurotlar yigindisini nazarda tutish kerakligini uqtirib o'tgan edi.

Uchinchidan, odam faol mavjudot sifatida o'zi ham ongli ravishda o'z shaxsini o'zgartirishi, ya'ni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni tevarak-atrofdagi muhitdan ajralgan xolda bormaydi. O'z-o'zini tarbiyalash muhit bilan moslashgan xolda va muhit bilan faol o'zaro munosabatda sodir bo'ladi. SHuning uchun o'zini-o'zi tarbiyalashda ham muhitning ta'siri ko'rinib turibdi. Keltirilgan fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, bir xil tashqi sharoit, bir xil muhit turli bolalarga, o'smirlarga, yigit va qizlarga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maktab o'quvchilarining psixik taraqqiyoti qonunlari shuning uchun ham murakkabki, psixik taraqqiyotning o'zi murakkab va qarama-qarshi o'zgarishlardan iborat jarayonning omillari, shu jumladan ta'lim va tarbiya sharoitlari xilma-xil va ko'p qirralidir. .

Oxirida shunday xulosa chiqarish mumkinki, odamning tashkil topgan va sistemalashtirilgan faoliyati uning vositasi hamda shartidir. SHu paytgacha odamga mavjudot sifatida qarab kelindi, lekin odamning biologik moxiyatini

inkor qilib bo'lmaydi. Chunki odam bevosita tabiiy mavjudotdir. O'z-o'zidan ravshanki odamning psixik rivojlanishi uchun tabiiy, biologik imkoniyatlar nixoyatda zarurdir. Insonning psixik xususiyatlari normal tarkib topishi uchun muayyan darajadagi biologik tuzilishga ega bo'lgan inson miyasi, inson nerv sistemasi bo'lishi shart. Insonning tabiiy xususiyatlari psixik rivojlanishning harakatga keltiruvchi omillar emas, balki dastlabki shartlaridir. Miya biologik tarzda tashkil topgan organ sifatida ongning yuzaga kelishi uchun dastlabki shartdir. Ong esa inson ijtimoiy turmushining maxsulidir. Nerv sistemasi tevarak-atrofdagi olamni aks ettirish uchun dastlabki shartdir. Ong esa inson ijtimoiy turmushining maxsuli bo'lib, juda katta imkoniyatlariga ega. Lekin tegishli qobiliyat faqat ijtimoiy sharoitdagi faoliyatda tarkib topadi. Qobiliyat kurtaklarining yangi nerv sistemasi va miyada ba'zi bir tug'ma anatomik-fiziologik xususiyatlarining mavjudligi qobiliyatlarning rivojlanishi uchun zarur tabiiy shart-sharoitdir. Ammo shart-sharoitlarning mavjudligi hali qobiliyatlarning rivojlanishini ta'minlamaydi. Qobiliyatlar hayot va faoliyat sharoitlari, odamga beriladigan ta'lim va tarbiya ta'siri ostida tarkib topadi va rivojlanadi.

### **Muammoli savol: Psixik taraqqiyotda tabiiy xususiyatlarning o'rnini qanday?**

Tabiiy xususiyatlar taraqqiyotni xarakterga keltiruvchi kuch emasligiga qaramay psixik taraqqiyotga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, tabiiy xususiyatlar taraqqiyotning turli yo'llarini va usullarini belgilab beradi. Inson nerv sistemasining xususiyatlari o'z-o'zicha shaxsning xech qanday psixik xususiyatlarini belgilamaydi. Xech bir normal bola dadil yoki qo'rqqoq, irodasiz, mexnatsevar yoki intizomsiz bo'lib tug'ilmaydi. Agarda tarbiya to'g'ri tashkil qilinsa, nerv sistemasining istalgan tipi asosida xarakterning barcha ijtimoiy qimmatli xislatlarini hosil qilish mumkin. Masalan, sabot-matonat va o'zini tuta bilish xislatlarini nerv sistemasining tipi shiddatli bo'lgan bolalarda ham tarbiyalash lozim va tarbiyalasa bo'ladi. Lekin birinchi holdagi bolalarni tarbiyalash ikkinchi xollarni tarbiyalashga qaraganda qiyinroq bo'ladi. Har ikkala holda kerakli sifatarni tarbiyalash yo'llari va usullari ham turlicha bo'ladi.

Ikkinchi tabiiy xususiyatlar odamning biron bir sohada erishgan yutuqlari darajasiga ham ta'sir qilishi mumkin. Masalan, qobiliyat kurtaklarida tug'ma individual farqlar bo'ladi. SHu sababli ba'zi odamlar boshqa odamlardan ma'lum bir faoliyat imkoniyati jihatidan ustun turishlari va shuning bilan bir paytda bir faoliyatning turini egallash imkoniyati jixatidan esa ulardan olislik qilishlari mumkin. Masalan, o'zining musiqiy qobiliyati rivojlanishi uchun qulay tabiiy kurtakka ega bo'lgan bola boshqa hamma sharoitlar bir xil bo'lishiga qaramay musiqiy qobiliyatini rivojlantirishi uchun tabiiy kurtakka ega bo'lmagan boladan nisbatan musiqa soxasida tez rivojlanadi va nisbatan katta yutuqlarga erishadi. Mana shu ma'noda biz mashhur amerikalik psixolog D.Brunerning xar bir bola o'z taraqqiyotining har qanday materiallarini to'la o'zlashtirishga qodirdir, - degan fikrlari bilan xech bir kelisha olmaymiz. Bizning o'ylashimizcha masalan, birinchi sinf o'quvchisini qanday geneal pedagog va metodistlar o'qitmasliklari etti yoshli bolaning miyasi boshlang'ich differensial va integral xisoblashlarini yoki dialektik falsafa asoslarini bilishga

hali chindan ham etilgan emas. Biroq miya tuzilishining mavqei ma'lum muhitga, ta'lim tarbiyaga mutlaqo bog'lanmagan holda o'zining qaxtiy asosida sodir bo'ladi deb bo'lmaydi. Muhit, ta'lim tarbiya va tegishli mashq miya tuzilishining organik jixatdan etilishini ta'minlaydi va muhitga, ta'lim-tarbiyaga mutlaqo bog'lanmagan holda o'zining qatxiy biologik jixatdan qonunlari asosida sodir bo'ladi deb bo'lmaydi.

**Muammoli savol: Psixik rivojlanishning umumiy tendetsiyalari, qonuniyatlariga nimalar kiradi?**

1. Psixik rivojlanishning notekisligi.

Bu har qanday sharoitda xatto ta'lim-tarbiyaning eng qulay sharoitlarida ham shaxsning turli psixik belgilari psixik funksiyalari va psixik xususiyatlari rivojlanishining bitta darajasida tuxtab turmaydi. Bolalarning rivojlanishidagi ayrim davrlardagi psixikaning u yoki bu yunalishlarida rivojlanish uchun nixoyatda qulay sharoit paydo bo'ladi va bu sharoitlarning ba'zilar vaqtinchalik o'tkinchi xarakterda bo'ladi. Masalan maktabgacha yoshda ayniksa nutk, o'smirlikda, ilk o'spirinlikda mustaqil taffakur jadal rivojlanadi.

Psixika integratsiyasi- inson psixikasi o'z tarakkiyoti davomida tobora ko'proq yaxlitlik birlik, mustaxkamlik va doimiylik xususiyatlarini kasb eta boradi. Masalan: aloxida predmet va xodisalarni to'liq idrok qilish asosida kuzatuvchanlik shakllanadi.

Psixik rivojlanishdagi plastiklik va kompensatsiya imkoniyati. Ba'zi funksiyalari kamchiliklarini boshka funksiyalar bilan tuldirish.

#### **4- Mavzu: Yosh davrlarni tabaqalash va Yosh inqirozlari.**

Bu savolga javob topish inson psixik taraqqiyoti tabiatini tushunishga bog'liq. Bunday nuqtai nazarlardan birida Yosh davrining o'zgarishligi qayd etiladi. Yosh xaqidagi bunday tasavvur psixika taraqqiyotini tabiiy biologik jarayon sifatida tushunish bilan bog'liq. Qarama qarshi nuqtai nazarlardan biri Yosh tushunchasi umuman rad etiladi. Bunday xollarda taraqqiyot bilish va ko'nikmalarni to'plashdangina iborat deb qaraladi. Har bir Yosh davri psixik taraqqiyotning maxsus bosqichidir va bola taraqqiyotining ma'lum bosqichida shaxs strukturasidagi o'ziga xosliklar majmuini tashkil etadigan o'zgarishlar to'plami bilan xarakterlanadi. L.S.Vygotskiy yoshni taraqqiyotning ma'lum davri deb qaragan. Uning fikricha 1 Yosh davrdan boshqasiga o'tganda ilgari Yosh davrida mavjud bo'lmagan yangi narsa paydo bo'ladi, taraqqiyotning borishi o'zgaradi va qayta quriladi. Yosh xususiyatlari ko'p sharoitlar majmui bilan belgilanadi. Ularga xayotning ma'lum bosqichida bolaga quyiladigan talablar sistemasi ham, munosabatlar ham, u egallaydigan faoliyat va bilimlar tipi ham bu bilimlarni o'zlashtirish usullari ham kiradi. YOshning xususiyatini belgilaydigan sharoitlar mazmuniga bola jismoniy taraqqiyotining xar xil tomonlari xususiyatlari ham kiradi.

SHunday qilib, Yosh davri xayot sharoitlari va taraqqiyotning ma'lum davrida bolaga quyiladigan talablar xususiyatlari va uning atrofdagilar bilan munosabatlari, bola shaxsi psixologik tuzilishidagi taraqqiyot darajasi bilan uning tafakkuri va bilimlari taraqqiyoti darajasi hamda ma'lum fiziologik xususiyatlar majmui bilan xarakterlanadi.

Yosh davrini atrofdagilarga munosabat taraqqiyot darajasi bilan bilimlar, usullar, qobiliyat taraqqiyoti darajasi o'rtasidagi aloqa belgilaydi. D.B.Elkoninning ta'kidlashicha, taraqqiyot jarayonining bu 2 turli tomonlar o'rtasidagi munosabatning o'zgarishi keyingi Yosh davrlarda muxim ichki asosni tashkil etadi. Masalan, go'daklik davrida bolaning tashqi muxit bilan aloqasi uning kattalar bilan munosabati orqali amalga oshiriladi. Bola xuddi shunday munosabatlar sistemasi sifatida ma'lum malakalarni egallaydi. Unda tasavvurlarning sodda bosqichlari shakllanadi. Kattalar bilan muloqat usullari kengayadi, nutqi rivojlanadi va boshqalar. Bularning bari bolaning mustaqil xarakat qilish imkoniyatlarining kengayishi uchun asos yaratadi. So'ngra atrofdagilar bilan munosabat usullari ham o'zgaradi. Bu esa psixik taraqqiyotning keyingi borishi sharoitini o'zgartiradi. Bunday vaziyat o'smirlik davrida ham vujudga keladi. Bunda oldingi taraqqiyot yutuqlari majmui bola xayot sharoitlari o'zgarishi bolaning atrofdagilar bilan munosabat usullarining o'zgarishiga olib keladi.

Psixologlar tomonidan Yosh davrlarning tabaqalashlarning nazariy masalalari ishlab chiqilgan. Ular ontogenetik qonuniyatlarni yoritishga katta xissa bo'lib qo'shiladi, amaliy va nazariy muammolarning xal qilishda keng qo'llanilmoqda.

Kiyingi yillarda bolalar va maktab o'quvchilarining jismoniy va psixik rivojlanishida **akseleratsiya** (lotincha - «**tezlanish**») xodisasi ro'y bermoqda.

Olimlar akseleratsiya xodisasining ham biologik ham ijtimoiy sabablarini ko'rsatmoqda.

1. Biologik sabablari oz miqdordagi ionlashgan nurlarning va radio to'lqinlarining ta'siri qishloq xo'jaligi va meditsinada o'sish va rivojlanishni, stimullashtiruvchi biologik faol moddalarning qo'llanilishi, inson ozuqasida hayvon oqsil moddalari miqdorining oshishi.

2. Ijtimoiy sabablari-hayot tipining kuchayishi, hayot tonusining ortishi, televideniya, radio, kino orqali bolaning o'smirlik chog'idan boshlab miyasiga yig'iladigan g'oya ko'p miqdordagi informatsiyalar, ma'lumot oqimining ta'siridan iboratdir.

Xozirgacha balog'atga erishish va jinsiy etilishning jadallashishi to'g'risida bir butun ilmiy nazariya mavjud emas. SHuning uchun o'sishdagi jadallashish, ya'ni akseleratsiya bo'yicha ham muayyan nazariya yaratilmagan. Ana shu boisdan har xil ilmiy asosdagi, bir-biridan farqli e'tirozli qator nazariyalar paydo bo'lgan. Qo'yida psixolog E.G'.G'oziev tomonidan sanab o'tilgan akseleratsiya muammosiga oid qarashlarni keltiramiz:

**Geliogen nazariya.** Ushbu nazariya 1936 yilda chet el olimlari tomonidan yaratilgan bo'lib, uning asosiy mohiyati akseleratsiya xodisasi quYosh nurining bevosita bevosita ta'siri bilan vujudga keladi, degan g'oyadan iboratdir. Bu g'oya tarafdorlarining fikricha, bolalar ko'p vaqt oftobda bo'lishi natijasida ularning o'sishida tezlashish, ya'ni akseleratsiya ro'y beradi, chunki quYosh nuri organizmni zarur elementlar, moddalar, ozuqalar bilan ta'minlaydi. Ammo xozirgi davrda akseleratsiya xodisasi janubiy (quYosh nurlari serob) mamlakatlarda ham, shimoliy geografik kenglikka joylashgan mamlakatlarda ham bir tekis ro'y bermoqda. Ikkinchi tomondan, shahar muhitidagi qizlar va

o'g'il bolalar qishloq bolalariga qaraganda tezroq voyaga etishi ko'rinmoqda, vaholangki, qishloq odamlari quYosh nurida ko'proq toblanadilar. Demak, xozirgi davrda geleogen nazariya ziddiyatlarga sabab bo'lmoqda. Umuman oftobda toblanishni akseleratsiya jarayonining muhim jihatlaridan biri deyish noto'g'ridir.

**Geteroziya nazariyasi.** 19 asr oxiri 20 asr boshlardan buyon ijtimoiy hayotda, turmushda keskin o'zgarishlar sodir bo'lgani insonlar o'rtasidagi ijtimoiy, diniy, milliy, irqiy tafovutlarning keskin kamayishiga olib keldi. Turli millat vakillarining aralash nikohga kira boshlagani bunga yorqin misoldir. Diniy e'tiqodlar, irqiy farqlar, etnik va milliy xususiyatlar, xarakter, urf-odatlar va xokozolar aralash nikohga hech qanday to'siq bo'lolmadi. Hayot tarzi har xil mamlakatlarning xalqlariga xos hususiyatlar ham aralash nikohni to'xtata olmadi. Mazkur nazariyaga muvofiq psixik dunyodagi qayta qurishlar nasliy belgilar keskin o'zgarishiga sabab bo'ldi, natijada farzandlarning o'sishida kuchayish, jadallashish, akseleratsiya xodisasi vujudga keldi. Biroq mazkur muammoni ilmiy jihatdan atroflicha asoslab berish uchun yuqorida ta'kidlangan omillar etarli emas.

**Urbanizatsiya nazariyasi.** Jamiyat rivojlanishida shaharlarning roli ortishi bu nazariyaga asos qilib olingan. 19 asrning o'rtalaridan boshlab qishloq aholisining shaharga ko'chishi avj oldi, ya'ni aholi orasida migratsiya yoki urbanizatsiya xodisasi yuzaga keldi. SHaharning turmush tarzi, o'ziga xos hususiyatlari, axborot tarmoqlarining kengligi, madaniyat darajasi, fan-texnika, transport, maishiy xizmat kabi omillar bolalarning aqliy, ahloqiy, jinsiy mihatdan ertaroq voyaga etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi. Qishloq aholisi bilan shahar aholisi yashash muhiti va turmush sharoitlarining yaqinlashishi akseleratsiya jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, lekin bu omilning o'zi akseleratsiyaning sababi bo'la olmaydi.

**Nutritiv nazariya.** Bu g'oyaning tub mohiyati shuki, o'sishdagi jadallashish odamlarning ovqatlanishi yaxshilanishi, iste'mol qilinayotgan ozuqalarda darmondorilar miqdorining ko'payishi sababli vujudga kelgan. Yosh xususiyatlari yoshning eng tipik va eng xarakterlik bo'lgan hamda rivojlanishning umumiy yo'nalishini ko'rsatadigan umumiy xususiyatlari sifatida mavjuddir. Ushbu g'oya namoyandalarining fikricha, V-6, V-12 darmondorilari va foliev kislotasini odamlar ko'proq iste'mol qilishi mazkur xolat namoyan bo'lishining asosiy omili emish. Tabiiyki, inson o'sishining jadallashuvida darmondorilar ma'lum darajada ijobiy ta'sir etishi tutkish, lekin mazkur omillarning o'zi akseleratsiya uchun muhim va yagona omil bo'la olmaydi. SHuning uchun tibbiyot xodimlari gigienachilar, biologlar, fiziologlar psixologlarning ayrimlari bu g'oyani qo'llab quvvatdaydi

**Nurlanish nazariyasi.** Bu nazariya namoyandalarining fikricha, er yuzida rentgen qurilmalarining ko'payishi, atom, vodorod va neytron bombalarning portlashi natijasida insonda radioaktiv moddalar, radiatsiya nurlanishi darajasining sezilarli darajada ortishiga olib keladi. Er kurrasiga tarqalgan zaryadlar bilan inson organizmining nurlanishi o'sishni kuchaytiradi, ya'ni akseleratsiya jarayoni yuzaga keladi. SHuning uchun bu nazariyaning himoyachilari turli xususiyatga ega bo'lgan nurlarning aniq dozasi organizmga

ta'sir etishi, tarqalishi emirilishga sabab bo'lmasa, insonning jismoniy o'sishi jadallashishi uchun imkoniyat yaratadi deb xisoblaydilar. Meditsinadan ma'lumki, me'yoridan ortiq rentgen nuridan foydalanish ham organizm uchun zararlidir. Ana shu mulohazaga asoslanib organizm ayrim qismlarining rivojlanishi nurlar bilan bog'liq ekan, degan xulosa chiqarish mumkin. Ba'zi ilmiy manbalarda payvandlash uchun qo'llaniladigan aparatning yog'dusi ham, chaqmoqdan tarqaladigan nur ham organizmga ijobiy ta'sir etishi haqidagi ma'lumotlar keltiriladi. Ammo muammoni mantiqan talqin etilganda tom ma'nodagi akseleratsiyaning ro'y berishi uchun bunday omillar bir zarra kabi rol o'ynashi mumkin.

**Ijtimoiy sharoitning yaxshilanishi nazariyasi.** Insonlarning turmush tarzi va yashash sharoitlarining yaxshilanib borishi, xuquq va erkinlik haqidagi bilimlarning ortib borishi, tibbiy-profilaktik tadbirlarning amalga oshirilishi, iste'mol qilinadigan maxsulotlar sifatining ortishi, ota-onadan farzandga nasliy belgilarning bir tekis o'tishi kabi omillar akseleratsiya jarayonini tezlashtiradi, degan fikr turli mamlakat olimlari tadqiqotlarida keng tarqalgan. Ularning talqinicha insonlar turmush sharoitining yaxshilanishi, ular uchun yaratilayotgan qulayliklar, imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarning mavjudligi psixik taraqqiyotning tezlashishiga zamin xozirlashi mumkin. Ushbu nazariyada muammoni yoritishga atroflicha yondoshilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Xaqiqatdan ham kishilar uchun ijtimoiy shart-sharoitlar to'liq yaratib berilsa, uning ta'sir kuchi yanada ortishi muqarrardir.

**Ijtimoiy akseleratsiya nazariyasi.** Bu ilmiy nazariyaning asoschilaridan biri, yirik fiziolog olim A.A.Markosyaning ta'kidlashicha hozirgi zamon kishisida mavjud bilimlar, va ma'lumotlar xajmini yigirmanchi asr

Ta'lim-tarbiya sharoitlarida o'quvchilarning Yosh va psixologik xususiyatlarini xisobga olish zarur. YA'ni mazkur yoshdagi bolalarning talablariga, imkoniyatlariga, xususiyatlariga mos keladigan pedagogik ish formalari, metodlari va vositalarini qo'llash tushuniladi. Lekin Yosh sxemasi o'z mohiyatiga ko'ra, umumiy xarakterga ega. Ana shuning uchun ham mazkur yoshdagi bolaga, maktab o'quvchilariga nisbatan maqsadga muvofiq ta'lim-tarbiya tadbirlarini tanlashda Yosh sxemasining bir o'zi etarli emas. Yosh xususiyati bilan birga tarbiyalanuvchining individual xususiyatlarini ham xisobga olish kerak va ana shu individual xususiyatlariga mos ravishda o'quvchiga nisbatan individual munosabatda bo'lish lozim. Ta'lim va tarbiyaning vazifasi bolada, maktab o'quvchisida, birinchidan mazkur Yosh bosqichida yuksak rivojlanish darajasini xarakterlab beradigan va ikkinchidan bolani, maktab o'quvchisini keyingi Yosh bosqichiga, ya'ni psixik rivojlanishning yanada yuksakroq darajasiga qonuniy ravishda o'tishga tayyorlaydigan psixik xususiyatlarini, xislatlarning va sifatlarni shakllantirishdir.

Taraqqiyotning har bir Yosh bosqichi o'zining rivojlanish omillariga, qonuniyatlariga, yangiliklari va o'zgarishlariga ega bo'lib, ular shaxsning xarakteri, temperamenti, iqtidori, bilish jarayonlariga bevosita ta'sirini o'tkazadi.

Yosh taraqqiyoti davrlarining ham sifat, ham miqdor o'zgarishlariga ega bo'lgan ko'rsatkichlari borki, amaliy psixologiya har bir Yosh xususiyatlarni ana shu ikkala ko'rsatkich nuqtai nazaridan o'rganishi hamda

shaxs xulqini boshqarish va ta'sir ko'rsatishda ularga tayanmog'i lozim. Umuman psixologiyada isbot qilingan faktlardan biri shuki, turli davrlardagi inson taraqqiyoti o'ta murakkab jarayon bo'lib, har bir davrning o'z qonuniyatlari mavjud. Har bir bosqichda shaxsning biror bir xususiyatlari o'zining etuklik fazasiga erishadi. Masalan, olamni sensor jihatdan bilishning etuklik fazasi 18-25 yoshlarda, intellektual ijodiy etuklik - 35 yoshlarda shaxsning etukligi 50-60 yoshlarga kelib eng yuqori nuqtasiga erishadi. SHunga o'xshash hususiyatlar insonning butun umri mobaynida muttasil kamolga etib, rivojlanib borishini ta'minlaydi.

**Muammoli savol: SHaxs taraqqiyoti qanday davrlarga bo'linadi?**

SHu vaqtgacha shaxs taraqqiyotini davrlarga bo'lib o'rganishga juda katta e'tibor qaratilgan. Inson hayotining barcha davrini yaxlit tarzda qamrab olgan klassifikatsiyalaridan biri butun jahon olimlarining qaroriga ko'ra, 1965 yili Fanlar Akademiyasining maxsus simpoziumida qabul qilingan sxema hisoblanadi. U quyida berilgan jadvalda keltirilgan.

Yosh davrlari	Erkaklarda	Ayollarda
CHaqaloqlik	1-10 kun	1-10 kun
Emiziklik davri	10 kundan 1 yoshgacha	10 kundan 1 yoshgacha
Ilk bolalik	1-2 yosh	1-2 yosh
Bolalikning 1-davri	3-7 yosh	3-7 yosh
Bolalikning 2-davri	8-12 yosh	8-11 yosh
O'smirlik davri	13-16 yosh	12-15 yosh
O'spirinlik davri	17-21 yosh	16-20 yosh
O'rta etuklik davri		
Birinchi bosqich	22-35 yosh	21-35 yosh
Ikkinchi bosqich	36-60 yosh	36-55 yosh
Keksalik davri	61-75 yosh	56-75 yosh
qarilik davri	76-90 yosh	76-90 yosh
Uzoq umr ko'ruvchilar	90 yoshdan ortiq	90 yoshdan ortiq

Mashhur rus psixologi Vygotskiy 1920-1930 yillarda o'zining oliy psixik funksiyalarining rivojlanishi nazariyasini e'lon qildi. Vygotskiy psixika taraqqiyotining umumiy genetik qonunini quyidagicha aniqlaydi: "Bola madaniy rivojlanishida har bir funktsiya 2 bosqichda namoyon bo'ladi. Dastlab ijtimoiy, so'ng psixologik. Dastlab intersixik kategoriya sifatida bola ichida namoyon bo'ladi. Har bir oliy psixik funktsiya o'z taraqqiyotida tashqi bosqich orqali o'tishi kerak.

Rossiya psixologiyasidagi Yosh davrlarini tabaqalash muammosi dastlab L.S.Vygotskiy, P.P.Blonskiy, B.G.Anan'ev singari yirik psixologlarning asarlarida o'z aksini topa boshlagan. Keyinchalik bu muammo bilan shug'ullanuvchilar safi ortib bordi, shu bois Yosh davrlarini tasniflash muammosi o'zining kelib chiqishi, ilmiy manbai, rivojlanish jarayonlariga yondashilishi nuqtai nazaridan bir-biridan keskin farq qiladi. Hozirgi vaqtda Yosh davrlarini tabaqalash yuzasidan mulohaza yuritishda olimlarning ilmiy

qarashlarini muayyan guruhlarga ajratish va ularning mohiyatini ochish maqsadga muvofiqdir.

L.S.Vygotskiy psixologlarning Yosh davrlarini tabaqalash nazariyalarini tanqidiy tahlil qilib, muayyan rivojlanishni vujudga keltiruvchi ruhiy yangilanishlarga tayanib, Yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi;

1. CHaqaloqlik davri inqirozi.
2. Go'daklik davri - 2 oylikdan 1 yoshgacha, bir yoshdagi inqiroz.
3. Ik bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha - 3 yoshdagi inqiroz.
4. Maktabgacha davr - 3 yoshdan 7 yoshgacha - 7 yoshdagi inqiroz.
5. Maktab yoshi davri - 8 yoshdan 12 yoshgacha - 13 yoshdagi inqiroz.
6. Pubertat (jinsiy etilish) davri - 14 yoshdan 18 yoshgacha, yoshdagi inqiroz.

L.S.Vygotskiy o'zining Yosh davrlarini tabaqalash nazariyasini ilmiy asoslab, ta'riflab bera olgan. Olim eng muhim psixik yangilanishlar haqida ilmiy va amaliy ahamiyatga molik mulohazalar bildirgan. Umuman L.S.Vygotskiyning Yosh davrlarini tabaqalash nazariyasi ilmiy tarixiy ahamiyatda ega, uning rivojlanishni amalga oshiruvchi inqirozlar to'g'risidagi mulohazali va olga surgan g'oyalari hozirgi kunning talablariga mosdir.

D.B.Elkonin tasnifi etakchi faoliyat (A.N.Leontev) nazariyasiga, har qaysi rivojlanish pallasida biror faoliyatning ustunlik qilishi mumkinligiga asoslanadi. Etakchi faoliyatning inson shaxs sifatida kamol topishidagi roli nazariyaning asosiy mohiyatini tashkil qiladi.

D.B.Elkonin Yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratishni lozim toshdi:

1. Go'daklik davri - tug'ilgandan 1 yoshgacha - etakchi faoliyat -bevosita emotsional muloqot;
2. Ik bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha - etakchi faoliyat -predmetlar bilan nozik harakatlar qilish;
3. Maktabgacha davr - 3 yoshdan 7 yoshgacha - rolli o'yinlar;
4. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 10 yoshgacha - o'qish;
5. Kichik o'smirlik davri - 10 yoshdan 15 yoshgacha - shaxsning intim (dilkash, samimiy) muloqot;
6. Katta o'smirlik yoki ilk uspirinlik davri - 16 yoshdan 17 yoshgacha; - etakchi faoliyat - o'qish, kasb tanlash davri.

D.B.Elkonin tasnifini ko'pchilik psixologlar tomonidan e'tirof etilsada, biroq uning birmuncha munozarali tomonlari mavjud. Umuman D.B.Elkonin tasnifining mazkur nazariyasi psixologiya fanida, ayniqsa Yosh davrlari psixologiyasida muhim o'rin to'tadi.

Bolalar psixologiyasi fanining yirik namoyondasi A.A.Lyublinskaya inson kamolotini Yosh davrlarga ajratishda faoliyat nuqtai nazaridan yondashib, quyidagi davrlarni atroflicha ifodalaydi;

1. CHaqaloqlik davri - tug'ilgandan bir oylikkacha;
2. Kichik maktabgacha davr - 1 oylikdan 1 yoshgacha;
3. Maktabgacha tarbiyadan avvalgi davr -1 yoshdan 3 yoshgacha;
4. Maktabgacha tarbiya davri - 3 yoshdan 5 yoshgacha;
5. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 11, 12 yoshgacha;
6. O'rta maktab yoshi davri (uspirin) - 13 yoshdan 15 yoshgacha;
7. Katta maktab yoshi davri-15 yoshdan 18 yoshgacha.



Pedagogik psixologiyaning taniqli namoyondasi B.A.Krutetstkiy insoning ontogenetik kamolotini quyidagi bosqichlardan iboratligini ta'kidlaydi:

1. CHaqaloklik (tug'ilgandan 10 kunlikkacha);
2. Go'daklik (10 kunlikdan 1 yoshgacha);
3. Ilk bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);
4. Bog'chagacha davr (3 yoshdan 5 yoshgacha);
5. Bog'cha yoshi (5 yoshdan 7 yoshgacha);
6. Kichik maktab yoshi (7 yoshdan 11 yoshgacha);
7. O'smirlik (11 yoshdan 15 yoshgacha);
8. Ilk o'spirinlik yoki katta maktab yoshi (15 yoshdan 18 yoshgacha).

YUqoridagi barcha tasniflar ularga qanday nuqtai nazardan yondashilganligidan qat'iy nazar inson kamolotini to'la ifodalab berishga o'z ijro qiladi.

Mazkur nazariyalar insonning shaxs sifatida shakllanishi bosqichlari haqida ko'proq ma'lumot beradi, xolos. Ularda yoshlik, etuklik, qarilik davrlarining xususiyatlari, qonuniyatlari to'g'risida nazariy va amaliy ma'lumotlar etishmaydi.

Hozirgi zamon psixologiyasining yirik vakili AV.Petrovskiy inson kamolotiga, shaxsning tarkib topishiga ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan yondashib, shaxsning shakllanishini quyidagi bosqichlarda amalga oshishini ta'kidlaydi:

1. Ilk bolalik (maktabgacha tarbiya yoshidan oldingi davr) - tug'ilganidan 3 yoshgacha.
2. Bolalik davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha.
3. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 11 yoshgacha,
4. O'rta maktab yoshi (o'smirlik) davri - 11 yoshdan 15 yoshgacha-
5. YUqori sinf o'quvchisi (ilk o'spirinlik) davri - 15 yoshdan 17 yoshgacha.

AV.Petrovskiyning tasnifi mukammal bo'lsa-da, kamolotning oraliq bosqichlarini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalamaydi. Vaholanki, o'sish ijtimoiy qoidalarga muvofiqmi yoki aksincha, qanday bo'lishidan qat'iy nazar, har ikkala yo'nalishning ham oraliq jabhalari bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Ma'lumki, har bir Yosh davr, o'ziga xos xususiyatlar bilan belgilanadi, bularga: oilada va maktabda bola holatining o'zgarishi, ta'lim va tarbiya shakllarining o'zgarishi hamda bolaning yangi faoliyat turlari, organizmdagi ayrim xususiyatlarning etilishi singari jarayonlarni qiritish mumkin.

Hozirgi zamon psixologiyasida Yosh davrlarini shu nuqtai nazardan tabaqalash maqsadga muvofiqdir:

1. Ilk bolalik davri -tug'ilgandan 3 yoshgacha;
2. Bog'cha davri - 3 yoshdan 6, 7 yoshgacha;
3. Kichik maktab yoshi davri - 6, 7 yoshdan 10, 11 yoshgacha;
4. O'rta maktab yoshi (o'smirlik davri) - 10, 11 yoshdan 14, 15 yoshgacha;
5. Ilk o'spirinlik (kollej va litsey o'quvchilari) 14, 15 yoshdan 17, 18 yoshgacha.

Umuman, psixologlar tomonidan Yosh davrlarini tabaqalashtirishning puxta, ilmiy-metodologik negizga ega bo'lgan qator nazariyallari ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda ular ontogenetik qonuniyatlarni yoritishga katta hissa qo'shib, uning nazariy va amaliy muammolarini hal

qilishda muhim o‘rin egallab kelmoqda. Biroq, shunday bo‘lsada, hozir ontogenezni to‘la yoritishga xizmat qila oladigan nazariyasini yaratish zaruriyati mavjuddir.

Amerikalik psixolog E.Erikson insonning umrini o‘ziga xos bektakror xususiyatlarga molik 8 ta davrga ajratadi.

Birinchi davr – go‘daklikda tashqi dunyoga ongsiz “ishonch” tuyg‘usi vujudga keladi. Buning bosh sababi ota-onaning mehr-muhabbati, g‘amxo‘rliги va jonkuyarligidir. Agar go‘dakda ishonchning negizi paydo bo‘lmay, borliqqa ishonchsizlik hissi tug‘ilsa, voyaga etgan odamlarda mahdudlik, umidsizlik vujudga kelishi shubhasizdir.

Ikkinchi davr – ilk bolalikda yarim mustaqillik va shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usi shakllanadi yoki aksincha, ularning teskarisi – uyat va shubha hissi hosil bo‘ladi. Bolada mustaqillikning o‘shishi unga o‘z tanasini boshqarish uchun keng imkoniyat yaratib, bo‘lg‘usi shaxs xususiyatlaridan tartib va intizom, maxsuliyat, javobgarlik, hurmat tuyg‘ulari tarkib topishiga zamin hozirlaydi.

Uchinchi davr – o‘yin yoshi deb ataladi va unga 5-7 yoshli bolalar kiradi. Bu davrda tashabbus tuyg‘usi, qandaydir ishlarni amalga oshirish, bajarish mayli tarkib topadi. Mabodo boladagi xohish-istakni ro‘yobga chiqarish yo‘li to‘sib qo‘yilsa, buning uchun u o‘zini aybdor deb hisoblaydi. Mazkur davrda davra, ya‘ni guruh o‘yinlarga, tengqurlari bilan muloqotga kirishish muhim ahamiyat kasb etadi: bola turli rollar bajarib ko‘rishiga, uning hayoloti o‘shishiga imkon yaratadi. Xuddi shu davrda bolada adolat tuyg‘usi, uni tushunish mayli tug‘ila boshlaydi.

To‘rtinchi davr – maktab yoshi boladagi asosiy o‘zgarishlar: ko‘zlagan maqsadiga erishish uchun intilish, uddaburonlik va tirishqoqlik bilan ajralib turadi. Uning eng muhim qadriyati omilkorlik va mahsuldorlikdan iboratdir. Bu Yosh davrining salbiy jihatlari ham bo‘lib, ular ijobiy hislatlari etarli bo‘lmasligi, ong hayotining barcha qirralarini qamrab ololmasligi va hokazolar.

Beshinchi davr – o‘spirinlik betakrorlik hislati, o‘ziga xosligi boshqa odamlardan keskin farqlanishi bilan xarakterlanadi. U ijtimoiy hayotda bajarayotgan rollarning ko‘lami kengayadi, lekin barchasini egallash imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. SHuningdek rollarda o‘zini sinab ko‘rish bilan cheklanadi. Vaqtni yangicha his qilish, psixoseksual qiziqish, patogen jarayonlarni namoyon bo‘lishi xosdir.

Oltinchi davr – yoshlik, boshqa jinsga psixologik intim yaqinlashuv qobiliyati va ehtiyoji vujudga kelishi bilan ajralib turadi. Bunda ayniqsa jinsiy mayl alohida o‘rin tutadi. Bundan tashqari, yoshlik tanholikni yoqtirish va odamovilik kabi yoqimsiz xususiyat bilan farqlanadi.

Etinchi davr – etuklik davrida hayotiy faoliyatning barcha sohalarida (mehnatda, ijodiyotda, g‘amxo‘rlikda pusht qoldirishda, tajriba uzatish va boshqalarda) maxsuldorlik tuyg‘usi uzluksiz hamroh bo‘ladi.

Sakkizinchi davr – qarilik, inson sifatida o‘z burchini uddalay olganligidan, turmushning keng qamrovliligidan qanoatlanish tuyg‘ulari bilan xarakterlanadi. Salbiy xususiyat sifatida esa hayot faoliyatidan noumidlilik, ko‘ngil sovush tuyg‘ulari xos. Donolik, sofflik, gunohlardan forig‘ bo‘lish ularga xos eng muhim xususiyatlardir.

Fransuz psixologi A.Vallon nuqtai nazaricha Yosh davrlari quyidagi bosqichlarga ajratiladi:

Xomilaning ona qornidagi davri;

Impulsiv harakat davri – tug‘ilgandan 6 oygacha;

Emotsional (his-tuyg‘u) davri – 6 oylikdan 1 yoshgacha;

Sensomotor (idrok bilan harakatning uyg‘unlashuvi) davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha;

Personologizm (shaxsga aylanish) davri – 3 yoshdan 5 yoshgacha;

Farqlash davri – 6 yoshdan 11 yoshgacha;

Jinsiy etilish va o‘spirinlik davri – 12 yoshdan 18 yoshgacha.

### **Yosh davrlar inqirozlari**

SHaxsning kamol topishi murakkab jarayon ekanligini unda Yosh o‘shishi bilan bog‘liq xolda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar va yangilanishlarning xilma-xilligi hamda o‘ziga xosligida ko‘rish mumkin. Ma‘lumki Yosh o‘shishi bilan bola faqat miqdor jihatdar emas, balki sifat jihatdan ham o‘sib boradi. Demak bolaning biologik jihatdan o‘shishi uning psixikasida ham o‘shish va o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Ammo biologik o‘shish bilan psixik o‘zgarishlar har doim ham mutanosiblikka ega bo‘lavermaydi. CHunki psixik o‘shish bir tomondan individuallik xarakteriga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan u ma‘lum ijtimoiy va psixik shart-sharoitlarga ham bog‘liq bo‘ladi.

Bolada sodir bo‘ladigan psixik o‘shish, o‘zgarish real hayotda o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lishi biroz murakkabroq kechadi. Buning sababi bir tomondan bolada hali etarlicha tajribaning etishmasligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan kattalarning boladagi ehtiyoj va intilishlari ortida turgan rivojlanish xususiyatlarini to‘liq anglab etmasliklaridadir. Natijada esa bolalar va kattalarning munosabatlarida keskin vaziyatlar vujudga keladi. Bunday vaziyatlar tufayli bolalar va kattalarning boshdan kechiradigan psixik kechinmalari, xolatlari psixologik tilda **inqiroz** tushunchasi bilan ifodalanadi. Demak, inqiroz tushunchasining mazmuni psixik o‘shishdagi ziddiyat, qarama-qarshilikdan iborat. Bu jarayonda bolalar bilan kattalar o‘rtasida kelishmovchiliklar yuzaga keladi.

Inqiroz bolalarda xilma-xil ehtiyojlarning paydo bo‘lishi bilan ularning qondirilishi imkoniyatlari o‘rtasida to‘siq sifatida vujudga kelar ekan albatta uning ta‘sirida u yoki bu tomonga o‘zgarish ro‘y beradi. Masalan, ma‘lum taraqqiyot bosqichida bolada vujudga kelgan mustaqil harakat qilish ehtiyoji uni mustaqillikka erishishi uchun turtki bo‘lib xizmat qiladi va bola muayyan darajada mustaqillikka erishadi. Ikkinchidan, kattalarning bu jarayonda yo‘l qo‘yishi mumkin ta‘lim va tarbiyaviy xatolari oqibatida ular ruhiyatida ayrim salbiy illatlar paydo bo‘lishi mumkin. Demak inqirozni na salbiy va na ijobiy jarayon deb baholashga to‘g‘ri keladi. SHu tufayli ota-onalar, tarbiyachilar va pedagoglar bundan to‘g‘ri xulosa chiqargan xolda bolalar bilan inqiroz davrlarida ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish talab etiladi.

Yosh davrlar psixologiyasida asosiy inqiroz davrlari sifatida bolalarning 3 yoshli, 7 yoshli hamda o‘smirlik davri inqirozlari alohida e‘tirof etiladi.

Uch yoshli bolaga to'g'ri tarbiya berish, ta'sir o'tkazish, ularning harakatlarini maqsadga muvofiq yo'naltirish orqali ularda mustaqil xolda ovqatlanish, kiyinish, yuvinish, o'z o'rnini yig'ishtirishga ayrim topshiriq va vazifalarni puxta bajarishga o'rgatish mumkin. Psixolog olimlarning ta'kidlashicha bolaning uch yoshgacha o'sishida erishgan yutuqlari uning xulq-atvorini, bilish jarayonlarini sifat jihatdan ancha o'zgartirib yuboradi. SHunga qaramay, bolaning o'sishida kattalarning ta'siri, roli etakchiligicha qolaveradi, lekin asta-sekin o'sib borishi bolaning mustaqilroq bo'lishini ta'minlaydi.

Bolaning mustaqilligi faqat uning jismoniy hamda aqliy imkoniyatida, kuchi etadigan jarayonga nisbatan o'z munosabatini kattalarning ko'magisiz amalga oshirishida emas, balki o'zining kuch quvvati, qurbi etmaydigan, muayyan amaliy ko'nikmalarini egallay olmagan turmush muammolarini hal etishda ham ko'rinadi.

Psixologlar N.A.Menchinskaya, V.S.Muxinalarning ta'kidlashlaricha, bu davrdagi ziddiyatda bolalardagi injiqliklarning bosh omili atrofdagi odamlarning ular shaxsiga adolatsiz, noto'g'ri, mensimay munosabatda bo'lishidan iboratdir.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlarini o'rgangan A.N.Golubevaning fikricha, noqulay sharoitda bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish unda o'jarlikni paydo qiladi. SHuningdek bu yoshdagi bolalarning o'jarligi doimiy bo'lmaydi, masalan o'z tengdoshlariga nisbatan o'jarlik qilish ahyon-ahyondagini ro'y beradi. Ular asosan katta yoshdagi odamlarga, shunda ham muayyan tarbiyachiga yoki oila a'zolarining birortasiga o'jarlik qiladilar. A.N.Golubeva bolalardagi o'jarlik barqaror emasligi sababli uning oldini olish mumkinligini uqtirib o'tadi.

A.P.Larinning tadqiqotlarida esa noqulay va nomaqbul tarbiyaviy shart-sharoitlarda qaysarlik juda erta, hatto uch yoshda ham paydo bo'lishi ifodalangan. Dastlab bu xususiyat ba'zi-ba'zida ro'y beradi, lekin u hech qachon barcha katta yoshdagi kishilarga qaratilgan bo'lmaydi, ya'ni uning ob'ekti aloxida shaxs xisoblanadi.

Ammo bola xarakterining bu sifati muhitning noto'g'ri ta'siri oqibatida biror darajada barqarorlashsa, keynchalik ko'pchilikka qaratilgan, umumlashgan shaklga aylana boshlaydi. O'jarlik bir guruh odamlarga yo'nalganligini ham uchratish mumkin.

A.P.Larinning to'plagan ma'lumotlariga ko'ra, o'jarlikning asosiy sabablari –bolaning mustaqilligini cheklab qo'yish, erkinlik tuyg'usi va tashabbusni so'ndirish va uning ongini (anglash suratini) kamsitishdan iborat.

Mazkur omillar bolaning kattalarga munosabati negizini tashkil qiladi va uning psixik o'sishi davomida muayyan darajada o'zgarib boradi. Ularning o'zgarishi kattalarning bolaga u erishgan kamolot bosqichini xisobga olib, oqilona munosabatda bo'lishiga bog'liq.

Bola xulqida muayyan sharoitning ta'siri bilan paydo bo'lgan o'jarlik va nojo'ya qiliqlar mavjudligi, uning psixikasida jiddiy o'zgarish ro'y berganini, endi bolaga uning xozirgi o'sish darajasini xisobga olib, munosabatda bo'lish zarurligini bildiradi.

Bolaning psixikasida vujudga keladigan inqirozning sabablari sifatida quyidagilarni extirof etish mumkin:

- kattalar bolaning jismoniy va aqliy imkoniyatlarini xisobga olmasliklari;
- xohish va istaklarini mustaqil xolda turmushda qaror toptirishga intilishlariga to‘sqinlik qilishlari;
- ayrim ko‘zga tashlangan qiyinchiliklarni bartaraf qilishga o‘rinishlariga yo‘l qo‘ymasliklari;
- bola o‘z xolicha ish tutishini cheklashlari.

Kattalar bolalarning rayiga, mustaqilligiga qarshi turmasdan, mumkin qadar istagiga, intilishiga yordam bersalar, uning shaxsini shakllantirish jarayonidagi qiyinchilik o‘z-o‘zidan barham topadi, nizo yoki ixtilofning oldi olinadi.

Oilada, maktabgacha tarbiya muassasalarida shaxslararo munosabatlar ilmiy asosda qurilib, muayyan qoidalarga suyanilsa va pedagogik odob doirasidan chetga chiqilmaca, yuqorida aytilgan ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin emas.

O‘jarlik, qaysarlik, kattalarga itoatsizlikning vujudga kelishi – bolaning kattalarga qaramlikdan qutulishga o‘rinishi va kichik maktabgacha Yosh davridan maktabgacha Yosh davriga o‘tishning tashqi ifodasi xisoblanadi.

Mustaqillikka intilish mazkur Yosh davridagi o‘zgarishlar, yangilanishlar, ya’ni shaxsiy xatti-harakatni va “men o‘zim”ni anglashning mahsuli sifatida yuzaga chiqadi.

Ko‘pchilik psixologlarning tadqiqotlaridan ma’lumki, bolalar mazkur inqiroz davrida bir nechta ko‘rinishdagi qaysarlikni namoyon etadi. Ana shunday ko‘rinishlarninsh bittasi biz nazarda tutgan 3 yoshli inqirozga to‘g‘ri keladi. SHu davrda uning ruhiy dunyosida sifat va miqdor jihatdan turli o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu o‘zgarishlar uning olamni boshqacha kashf qilayotganiga, psixikasi ma’lumot va axborotlar bilan kun sayin boyib borayotganligiga bog‘liqdir. Ayni shu yoshda bolada o‘z irodasiga ishonch hissi tug‘iladi, u o‘zligini anglay boshlaydi. O‘zligini anglash qarama-qarshiliklarni, ziddiyatlarni engish bilan amalga oshadi.

Psixik o‘shishning boshqa davrlarida ro‘y beradigan inqiroz davri ham xuddi shunday tarzda kechadi, ammmo turli davrda inqirozlarning sabablari turlicha bo‘ladi. Jumladan: kichik maktab yoshida sodir bo‘ladigan inqiroz ko‘proq bolaning o‘quv faoliyati jarayoni va uning kechishi bilan bog‘liq xolda kechadi.

Maktab ta’limi o‘quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqeini, sinf jamoasi va oila muhitidagi ahvolni o‘zgartiradi, uning asosiy vazifasi o‘qishdan, bilim olish, ko‘nikma va malakalarni egallash, tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi qonuniyatlarni o‘zlashtirishdan iborat bo‘lib qoladi. Ta’lim muayyan darajada uyushqoqlik, intilish, irodaviy zo‘r berish, faollik va maqsadga muvofiq faoliyatni talab etadi. Ixtiyorsiz hatti-harakat o‘rnini anglashilgan, rejali, aqliy mehnat egallay boshlaydi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi oldiga qo‘yiladigan talablar tobora ko‘payib, murakkablashib boraveradi.

O‘qishning dastlabki kunlaridanoq kichik maktab yoshidagi bolaning o‘shishini harakatga keltiradigan turli ziddiyat, qarama-qarshiliklar, ichki ixtiloflar vujudga keladi. Ana shular zamirida boladagi psixik kamolotningdarajasi va ijobiy xislatlar bilan talablar o‘rtasidagi qarama-

qarshiliklar yotadi. Talablarning tobora ortishi bolaning psixik jihatdan to'xtovsiz o'sishini taqazo etadi va shu berk zanjirning uzluksiz harakati natijasida insonning kamoloti amalga oshadi.

Yosh davrlar taraqqiyotida o'smirlik davri alohida ahamiyat kasb etadi. O'smirlik davri taqlidchanligi, muqim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotlilik, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. SHuning uchun tashqi ta'sirlarga beriluvchan o'smir o'g'il-qizlarga alohida e'tibor berish zarur. O'smirlik davrida bolalik xolatidan kattalik xolatiga o'tish sodir bo'ladi.

O'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch – uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasida qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishi yotadi. Mana shu dialektik qarama-qarshiliklar ortib borayotgan jismoniy, aqliy hamda axloqiy imkoniyatlar bilan barqarorlashgan, stereotipga aylangan tashqi olamni aks ettirishning shakllari o'rtasida sodir bo'ladi. Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni psixologik kamolotni ta'minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali o'smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta sekin yo'qotish mumkin.

Venalik psixolog Z.Freyd va uning shogirdlari o'smirlik davrini baholashda insonga azaldan berilgan qandaydir ilk mayl nishonasi sifatida vujudga keladigan o'z mavqeini belgilashga ongsiz intilish deb xisoblaydilar.

Ayrim psixolog olimlar esa o'smirlikni biogenetik o'sishning biologik omillariga, ya'ni jinsiy etilishga alohida ahamiyat beradilar. Ularning fikricha, o'smirning psixik jihatdan inqirozga etaklovchi, hayajonga soluvchi sub'ektiv ichki kechinmalari o'g'il va qiz bolalarda o'ziga xos xolatni yuzaga keltiradi. O'smir uchun xarakterli xisoblangan norozilik, qo'pollik, qaysarlik, shafqatsizlik, tajanglik, ginaxonlik kabi illatlar jinsiy etilishning maxsuli, yangi tuyg'ular, mayllar, kechinmalar o'smir xatti-harakatlarida xukmron bo'lib, uning xulq atvorini belgilaydi deb xisoblaydilar.

Turli Yosh davrlarda ro'y beradigan inqirozlar xususida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Yosh taraqqiyoti jarayonida sodir bo'ladigan har qanday inqiroz bola ruhiyatida u yoki bu psixik o'sish, yangilanish va o'zgarishlarning sababchisi va ro'yobga chiqaruvchi vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

### **Aqliy qobiliyatning yoshga bog'lik xolda o'zgarishi.**

Aqliy qobiliyatlarning individual asoslari o'rtasidagi tafovutlar kabi uning Yosh taraqqiyoti bilan bog'liq tafovutlarining mavjudligi ham shubhasizdir. YA'ni inson psixikasining ontogenezdagi taraqqiyoti bir-biri bilan bog'langan bir rivojlanish bosqichidan ikkinchi sifat jihatdan farq qiluvchi bosqichga o'tish jarayonini ifodalaydi. Bu o'zgaruvchan davrlar, taraqqiyotning bosqichlilik – uzluksiz jarayonni shartli bo'lish natijasi emas, balki bu ob'ektiv reallikdir.

Aqliy qobiliyatning yoshga bog'liq xolda rivojlanishi masalasi qator psixologlar tomonidan qayd etilgan. Ammo ta'lim amaliyotida bu muammo chuqur taxlil etilib, turli yoshda o'quvchilarning intellektual saloxiyatini oshirib borish bo'yicha ishlarni talab darajasida hal etilgan deb ayta olmaymiz. Aqliy qobiliyatlarning yoshga bog'liq holda rivojlanishi qonuniyatlarini bilish turli Yosh davrlarda aqliy qobiliyatlarni maqsadga muvofiq xolda shakllantirish imkoniyatlarini ochadi.

Aqliy qobiliyatlarning yoshga bogʻliq jihatlarini tadqiq etish boʻyicha psixologiya juda boy tajribaga ega. CHet el psixologlaridan J.Piaje, Dj.Kelli, A.Vallon, Rus psixologlaridan L.S.Выготский, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, L.I.Bojovich, V.A.Muxina, E.A.Golubeva, N.S.Leytes, oʻzbek psixologlaridan M.G.Davletshin E.G.Gʻoziev, B.R.Qodirov, Z.T.Nishanova va boshqalar tafakkur va aqliy qobiliyatning yoshga bogʻliqligini turli yoʻnalishlarda oʻrganganlar. Jumladan taniqli oʻzbek psixologi E.G.Gʻozievning «Tafakkur psixologiyasi» nomli asarida bu boradagi tadqiqotlar keng yoritilgan. SHvetsariyalik psixolog J.Piaje intellekt muammosiga oʻz shaxsiy nuqtai nazaridan kelib chiqib yondoshgan. J.Piaje intellekt nazariyasini ikkita muhim jihatga, yaʼni intellekt funksiyalari va intellekt davrlariga ajratadi. J.Piaje mulohazasiga koʻra, intellektning asosiy funksiyalari qatoriga uyushqoqlik (tartiblilik) va adaptatsiya (moslashish, koʻnikish) kiritilgan boʻlib, ular intellektning funksional invariantlari deb yuritiladi. SHuningdek muallif intellektning quyidagi rivojlanish bosqichlarini ajratib koʻrsatadi:

1. Sensomotor intellekt davri (tugʻilgandan 2 yoshgacha);
2. Operatsiyalardan ilgari tafakkur davri (2 yoshdan 7 yoshgacha);
3. Konkret (yaqqol) operatsiyalar (aqliy harakatlar davri 7, 8 yoshdan 11, 12 yoshgacha);
4. Formal (rasmiy) operatsiyalar (aqliy harakatlarni maqsadli amalga oshirish davri).

J.Piajening fikriga koʻra intellektning oʻsishi bolada nutq paydo boʻlishidan ilgari boshlanadi. Intellekt (aqliy qobiliyat)ning kurtagi bolaning dastlabki tartibsiz xatti-harakatlarida oʻz ifodasini topadi. Keyinchalik maqsadga yoʻnaltirilgan harakatlar aktini amalga oshirish natijasida intellektning genetik ildizini oʻrganish uchun muhim imkoniyatlar yaratildi. J.Piaje konkret operatsiyalar davri predmetlar bilan aloqalar oʻrnatishdan iborat ekanligini taʼkidlab, psixologiya ilmida olgʻa siljish yasadi. Formal (rasmiy) operatsiyalar davriga tasnif berilganda esa predmetlar bilan aloqa qilish yoʻqolib borishi qayd etiladi. SHuningdek intellektning oʻsishi insonning operatsiyalar sistemasi bilan qurollanishidan iborat, hamda intellekt davrining oʻzaro oʻrin almashinishi tafakkur oʻsishini bildiradi, davrning ketma-ketligi esa rivojlanishning ichki qonuniyatlarini ifodalaydi-deb taʼkidlaydi.

Taniqli rus psixologi L.S.Выготский, A.N.Leontevlarning ishlab chiqqan konsepsiyasiga binoan insonning ontogenezda taraqqiy etishi jarayonida tashqi faoliyat (xatti-harakatlar) asta – sekin ichki xatti-harakatlarga, yaʼni aqliy harakatlarga aylanadi. Boshqacha soʻz bilan aytganda, tashqi alomatlar ichki alomatlariga oʻtishi sodir boʻladi. Tashqi faoliyatning ichki faoliyatga oʻtishi shuni bildiradiki, oʻquvchi bu davrda jarayonning tuzilishini oʻzlashtiradi, tashqi bilimlardan qanday foydalanish qoidalarini egallaydi.

A.N.Leontev, L.S.Выготский gʻoyasini rivojlantirib, mazkur holatni tajriba yoʻli bilan oʻrganib, oʻquvchida yangi aqliy harakatni vujudga keltirish uchun, eng avvalo uni tashqi harakat tuzilishi bilan tanishtirish zarur, faqat ana shundagina ushbu harakatni bir davrning oʻzida eksteriorizatsiyalashtirishni taʼminlash mumkin, degan xulosaga keladi. Harakatni eksteriorizatsiyalashtirilgan shaklda, uning yoyiq, tashqi shaklda tavsiya qilinayotgan harakat shakllana boshlaydi. Dastlabki oʻzlashtirishdan keyin,

harakatni asta-sekin o'zgarish jarayonining natijasida umumlashtirish vujudga keladi, uni amalga oshirish tarkiblarining qisqarishi va darajasining o'zgarishi bilan ajralib turadi. Demak u ichki harakatga aylanib, bolaning diliga batamom jo bo'ladi.

Har bir Yosh davr tafakkur va aqliy qobiliyatning namoyon bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishida o'ziga xos ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlarni yuzaga keltiradi. Bu borada psixolog S.L.Rubinshteynning «Inson psixikasining rivojlanishi ijtimoiy, tarixiy, biologik va neyrodinamik jihatdan shartlanganlik xarakteriga ega» degan fikri o'rinlidir. Jumladan bolaning nutqni egallagunga qadar bajaradigan aqliy harakatlari tafakkurning tabiiy va ijtimoiy-tarixiy shartlangan xolda o'sishini ifodalasa, nutqni egallagandan so'ng sodir bo'ladigan aqliy o'zgarishlar va aqliy o'sish ijtimoiy shart-sharoit hamda maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya maxsuli ekanligini xarakterlaydi.

Ma'lumki tafakkurning mavjudligi narsa va xodisalarning mazmunini tushunish bilan izoxlanadi. Ilk bolalik yoshi davrida so'z bilan predmet o'rtasidagi aloqa, bog'liqlikni tushunish jarayoni sodir bo'ladi, ya'ni tushunishni eng qulay (senzitiv) davri bir yoshdan bir yarim yoshgacha bo'lgan davr xisoblanadi. Bu davrda bolalar predmet va jismlarning nomlarini engil o'rganishi uchun shart-sharoit mavjud bo'ladi. Ilk bolalik davrida amaliy harakat tafakkuri shakllanadi, jismlar bilan turli harakatlarni o'zlashtirishda ulardagi muxim va o'zgarimas alomatlarni ajratish ko'nikmasi xosil bo'ladi.

Bu davrda bolada «Men o'zim» konsepsiyasining vujudga kelishi shaxsiy fazilatlar bilan bir qatorda aqliy imkoniyatlarning ham yuzaga chiqishi uchun sharoit yaratadi.

Psixolog E.G'oziev maktabgacha Yosh davrda aqliy o'sish muammosini taxlil qilib psixolog J.Piajening bolaning o'yinda jismlarga yangi nom berishi omilini aqliy o'sishning ramziy ma'noli tafakkur shakllanishining tayanchi sifatida qarashiga e'tiroz bildiradi va narsaning nomini o'zgartirish bilan bolada tafakkur va aql zakovat o'sishini kutish mantiqqa zid deb xisoblab, aslida narsalarni qayta nomlash emas, balki o'yin harakatlarining xususiyatini o'zgartirish bolaning aqliy o'sishiga sezilarli ta'sir o'tkaza oladi degan xulosaga keladi.

Haqiqatdan ham maktabgacha Yosh davrda o'yin faoliyati jarayonida bolalarda harakatning yangi ko'rinishi, ya'ni uning fikriy, aqliy jihati namoyon bo'ladi. Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki bu Yosh davrda bolaning aqliy kamol topishida o'yin faoliyati muxim ahamiyat kasb etadi. Aynan o'yin faoliyati bilan shug'illanish aqliy o'sish uchun shart-sharoit xisoblanadi.

Olimlarning ta'kidlashicha kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkuri ta'lim jarayonida juda ko'p o'zgarishlarga uchraydi.

Mashxur rus psixologi L.S.Выготskiy ko'rsatib o'tganidek, idrok va xotira maktab ta'limi boshlanishi oldidan anchagina taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'ladi, kichik maktab yoshidagi davrda esa intellekt (aql) jadal taraqqiy etadi. Tafakkurning rivojlanishi idrok va xotirani sifat jihatdan qayta o'zgarishga, ularni ixtiyoriy va boshqariladigan jarayonga aylanishga olib keladi. Vo'gostkiyning ko'rsatishicha maktab yoshiga bola idrok va xotira funksiyasiga nisbatan kuchsiz intellekt funksiyasi bilan qadam qo'yadi. Biroq intellekt



shunday rivojlanadiki, na xotira va na idrok bunday rivojlanishni o'z boshidan kechirmaydi.

Bu erda ta'lim mazmuni va motivlarining stimullashtiruvchi roli, o'qituvchining ta'lim-tarbiya protsessini tashkil qiluvchilik roli xususan yaqqol ko'zga tashlanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'quv jarayoni har xil yo'sinda tashkil qilinganda, ta'lim mazmuni o'zgartirilganda, o'qitishning turli usullariga qarab kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkuri nihoyatda xilma-xil xarakteristikaga ega bo'lishi mumkin.

Kichik maktab o'quvchilarida tafakkur operatsiyalari rivojlanishi konkret narsa va xodisalarning ko'rgazmali xususiyatlari va sifatlariga asoslangan xolda kechadi, ya'ni bu davrda o'quvchilar tafakkuri konkret operatsiyalar bosqichida turadi.

SHunday qilib, kichik maktab o'quvchisi ta'lim faoliyati jarayonida konkret tafakkurga ega bo'lib boradi, ya'ni narsa va xodisalarni tashqi tomondan bilishdan asta sekin ularning mohiyatini bilishga, muxim xususiyat va belgilarni tafakkurda aks ettirishga o'tadi. Bu davrning yana bir muxim jixati aynan shu davrdan boshlab, ya'ni ta'lim faoliyatining etakchilik rolidan foydalanib o'quvchilar tafakkuri va aqliy qobiliyatlarini ta'lim jarayonida maqsadli rivojlantirish va jiddiy psixokorreksion ishlarni olib borish uchun shart-sharoitlar mavjud bo'ladi.

Psixologiyada o'smirlik yoshining xarakteristikasi xaqida so'z yuritilganda asosan gap shaxsning aqliy taraqqiyoti o'tish davri bilan bog'liq xolda yuzaga keladigan muammolar yuzasidan boradi. O'smirlik yoshida bilish jarayonlarining taraqqiyoti hamda aqliy taraqqiyot muammolariga bag'ishlangan ishlar mavjud, ammo ular barmoq bilan sanarli darajada bo'lib muammoni atroflicha yoritib berish uchun etarli emas.

O'smirlik davrida aqliy imkoniyatlarning o'sishida ularning voqea xodisalarga nisbatan ongli munosabatda bo'lishi hamda o'qishga bo'lgan munosabatlari darajasining kuchayishi ham ta'sir ko'rsatadi. Bu omil ularning o'qish faoliyati motivlarining murakkabligida namoyon bo'ladi, ya'ni o'smirlarning o'qish faoliyati motivlari tarkibiga keng ijtimoiy motivlar (bilim olishning ijtimoiy jixatdan muxim ekanligini anglash, mustaqil xayot va mexnatga tayyorlanish uchun o'qishning zarurligi) bilan muvaffaqiyatga intilish, izzat nafs bilan bog'liq bo'lgan bilish motivlari hamda shaxsiy motivlar (obro' qozonishga intilish, raxbarlik rolini o'ynash va xokoza) birga qo'shib ketgan bo'ladi.

O'smirlik davrida aqliy taraqqiyotda muxim siljishlar yuz beradi. Bu davrda fikrlash faoliyatining asosiy xususiyati abstrakt tafakkur qobiliyatining o'sib borishi bilan bir qatorda voqelikni to'g'ri va aniq, mantiqan aks ettirish uchun tafakkurning konkret obrazli turi ham tafakkurning umumiy strukturasi muxim rol o'ynashda davom etadi. SHuningdek bu davrda aqlning muxim sifatlaridan tafakkurning tanqidiyligi sezilari darajada taraqqiy etishi xarakterlidir. SHuningdek psixologik adabiyotlarda o'smirlik davri aktiv, mustaqil, ijodiy tafakkurning tarkib topishi uchun senzitiv davr ekanligi ta'kidlanadi.

Xulosa qilib aytish joizki, o'smirlik davrida aqliy qobiliyatlarni xar tomonlama rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar mavjud bo'lib, ulardan to'g'ri foydalanish bizning nazarimizda bu davrda sodir bo'ladigan ayrim salbiy xolatlarining oldini olishga xizmat qilishi tabiiydir.

Tadqiqot ishimiz ilk o'spirinlik va o'spirinlik Yosh davrida aqliy qobiliyat diagnostikasi va psixokorreksiyasiga bag'ishlanganligi tufayli aynan shu Yosh davrda aqliy qobiliyatlarning o'ziga xos tarzda rivojlanishi va namoyon bo'lishi xususiyatlarini chuqurroq taxlil qilishni lozim topdik.

Ma'lumki o'spirinlik Yosh davrida bolalar umumiy ta'lim maktabining yuqori sinflarida, akademik litsey, kasb-xunar kollejlari hamda oliy o'quv yurtlarida ta'lim faoliyatini davom ettiradilar. Ilk o'spirinlik davrida o'quvchining mustaqil fikr yurita olmasligi uning psixikasidagi jiddiy kamchilik xisoblanadi. Bu davrda o'quvchi aqlining tanqidiyligi vaziyatga qarab o'zgaruvchan xarakter kasb etadi. Buning asosiy sabablaridan biri – voqelikning mohiyatini ilmiy jihatdan to'g'ri tushunmaslikdir. SHuningdek o'spirinning «o'z pozitsiyasi»da bo'sh kelmasligi, narsa va xodisalarning asl mohiyatini anglab turib, ba'zan ataylab «o'jarlik» qilishi ham bu xolatning bir ko'rinishi xisoblanadi. E.G'oziev ta'kidlashicha, «ularda moddiy dunyo to'g'risida shaxsiy fikrlar, mulohazalar, ilmiy dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tafakkurning tanqidiylik xususiyati rivojlana boshlaydi. Aqlning tanqidiyligini tarbiyalashda o'qituvchi o'quvchining o'ziga xos tipologik xususiyatlariga, aqliy kamolot darajasiga, bilimlari saviyasiga, muloxaza doirasining kengligiga, nutq qobiliyatiga, shaxsiy nuqtai nazariga, o'qishga nisbatan munosabatiga, qiziqishining xususiyat va darajasiga, aqliy faoliyat operatsiyalarini qanchalik bilishiga, mavjud o'qish ko'nikmasi va malakalariga alohida e'tibor berishi lozim».

O'spirin aqliy qobiliyatining asosini tafakkurining quyidagi sifatlari tashkil etadi: mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi. Tafakkur mazmundorligi o'spirin ongida tevarak atrofdagi voqelik bo'yicha muloxazalar, muhokamalar va tushunchalar qanchalik joy olganligiga bog'liq bo'ladi. tafakkur chuqurligi esa moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning asosiy qonunlari, xossalari, o'zaro bog'lanishi va munosabatlarining fikrlash jarayonidagi to'liq aks etishi tushuniladi. Tafakkurning tashabbuskorligi o'spirinning o'z oldiga yangi g'oya, muammo va vazifalar qo'yishi, ularni amalga oshirishda samarador vositalarni qo'llashida namoyon bo'ladi. o'spirin tafakkurining tezligi berilgan savolga to'liq javob berish uchun sarflangan vaqt bilan belgilanadi va u fikrlash uchun zarur materiallarning xotirada mustahkam saqlanganligiga, uning tez yodga tushira olishga, muvaqqat bog'lanishning tezligiga, turli xis-tuyg'ularning mavjudligiga, diqqati va qiziqishiga, bilim saviyasiga, qobiliyatiga, egallagan ko'nikma va malakalariga bog'liq bo'ladi.

Talabalik yillarida o'spirin biologik jixatdan barkamollik, ijtimoiy nuqtai nazardan etuklik, jismonan baquvvatlik bosqichiga ko'tariladi. Bu davrda ilk o'spirinlik davrida vujudga kela boshlagan tafakkurning mustaqillik, teranlik, ixchamlik, tashabbuskorlik, tanqidiylik sifatlari kun sayin takomllashib, yangi-yangi sifat va alomatlar bilan boyib boradi. Talabalarda o'z-o'zini nazorat qilish,

o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish aql-zakovatning muhim jixatlari taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tariladi.

Talabalar tafakkuri asosan o'qish, amaliy mashg'ulot va mustaqil bilim olish faoliyatlarida jadal va uzluksiz ravishda rivojlanadi. Oliy ta'limdagi mustaqil ishlarning barchasi: konspekt tuzish, referat, annotatsiya, tezis, seminar tayoqchilik, kurs va bitiruv ishlari yozish talabdan mustaqillikni ijodiy yondoshishni talab etadi. Bu davrda ta'lim jarayonida fikr yuritish jarayonlaridan unumli foydalanish evaziga har qanday murakkab bilimlarni egallash imkoniyati vujudga keladi. Talabalar tafakkur shakllari (tushuncha, xukm, xulosa chiqarish)ning funksional va operatsional jihatlari bilan yaqindan tanishadilar, shuningdek ulardan mustaqil foydalanish uchun barcha intellektual, aqliy zahiralarni ishga solishga harakat qiladilar.

YUqoridagi muloxazalarga qaramasdan talabalar tafakkurida sub'ektiv-shaxsiy xususiyatga ega bo'lgan zaif jihatlardan mavjuddir, ya'ni fikr yuritish faoliyatini nazorat qilishda bu davrda qator kamchiliklarga yo'l qo'yiladi. Tafakkurning tanqidiylik va tashabbuskorlik sifatlarida ayrim nuqsonlar uchraydi. SHuningdek talabalarning intilishi bilan o'z-o'zini baholash hamda aqliy taraqqiyot o'rtasidagi munosabat mutanosiblikka, o'zaro uyg'unlikka ega emas (bu holat bizning tadqiqotlarimizda ham kuzatildi). SHu tufayli imkoniyat bilan orzular o'rtasida ziddiyat vujudga keladi, natijada oqillik o'rnini g'ayrlik egallay boshlaydi. Bunday salbiy, xissiy kechinmaning oldini olish uchun ta'lim jarayonida maxsus treninglardan foydalanish ijobiy natijalar beradi.

Tadqiqot ishimizda ilk o'spirinlik va o'spirinlik Yosh davridagi aqliy imkoniyatlar va ulardan samarali foydalanishdagi nomutanosibliklarni tahlil qilish hamda ular o'rtasida o'zaro mutanosiblikni shakllantirish maqsadida psixodiagnostik va psixokorreksion tadbirlar amalga oshirildi.

## **CHAQALOQLIK VA GO'DAKLIK DAVRLARI**

Bolaning ona qornidagi o'sish davri onaning organizmiga uzviy bog'liq xolda kechadi. CHaqaloqning tug'ilishi sifat o'zgarishi ijtimoiy rivojlanishning yangi ko'rinishi boshlanadigan nuqta ekanligi bilan muhim ahamiyatga ega. SHu tufayli tug'ilish tabiatning chaqaloq organizmini kuchli larzaga keltiruvchi mo'jizasidir. Bunda ona qornidagi barqaror muhitda yashagan jonzot favqulotda yangi sharoitga, son-sanoqsiz xossa va xususiyatlarga ega bo'lgan qo'zg'ovchilar doirasiga tushadi.

CHaqaloqlik davrida ana shunday yangi muhitga moslashish jarayoni amalga oshadi.

Go'dakning hayotiy faoliyati va tarixi uni qurshagan, parvarishlaydigan katta yoshdagilarga bevosita bog'liq bo'lib, uning barcha ehtiyoji va talablari faqat kattalar tomonidan qondiriladi. Kattalar go'dak uchun yaratgan ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar uning o'sishini belgilovchi muhim turtki vazifasini o'taydi. Atrof-muhitning xususiyat va xossalarini kattalar go'dakning psixik dunyosiga singdiradilar. SHiqildoqlarning shakli, rangi, xar-xil o'yinchoqlar va xokozolarni bolaning diqqatiga xavola qilish, unda jismlar to'g'risida tasavvur obrazlarni yaratadi, go'dakning xissiy bilish organlari esa ularni aks ettiradi.

O‘zaro muloqot jarayonida jismlarni ushlashga o‘rgatish mashqlari natijasida go‘dak «Tanish» jismlarga talpinadigan ularga qo‘l uzatadigan bo‘la boshlaydi, unda rang va shaklni farqlash imkoniyati tug‘ila boshlaydi.

Tasavvur o‘tkazishning murakkab bosqichida bola kattalar yordamida o‘tirish, tik turish, ovqatlanish, qurollardan to‘g‘ri foydalanish, uzluksiz va mazmunli xarakatlarni amalga oshirishni o‘rganadi. SHuning uchun aks ettirish qaysi bosqichda bo‘lishidan qat’iy nazar, bevosita yo‘l bilan amalga oshadi. Umuman go‘daklik davrining dastlabki bosqichida olamdagi barcha ashyolar, jismlar to‘g‘risidagi tasavvurlarga ega bo‘ladi. Mazkur davrning aksariyat boskichlarida go‘dakda bilim va tajribalarni, ko‘nikma va malakalarni mustakil egallash imkoni bo‘lmaydi.

Go‘daklik davrining xususiyatlarini o‘rgangan L.S.Vыigotskiy «Go‘daklik davri» asarida bolaning voqeylikka munosabati dastlab ijtimoiy munosabatdek tuyilishi, ana shu jihatdan jonzot deyish mumkinligini uqtiradi. Go‘dak tabiiy, biologik jixatdan onadan ajragan bo‘lsa ham, aslida u bilan ijtimoiy bog‘liqligicha qoladi.

Go‘dakning bir yoshgacha davridagi psixologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha qator tadqiqotlar mavjud. SHular orasida N.L. Figurin, M.P. Denisova, M.YU.Kistyakovskaya, A.Vallon, D.B.Elkonin, E.A.Arkin, S.Fayans, SH.Byuler, F.I. Fradkinalarning asarlari alohida ahamiyatga molikdir.

S. Fayans tajribasida go‘dakka chiroyli va jozibador uyinchoklar 9 sm masofadan ko‘rsatilganda u butun vujudi bilan ularga intilgan keyinchalik oralik 60 sm bo‘lganda bolaning intilishi, qo‘l cho‘zishi sustlashgan, va nihoyat ular 100 sm dan ko‘rsatilganda bolada intilish, cho‘zilishi, ixtiyorsiz xarakati mutlaqo so‘ngan. U o‘yinchoq bilan bir qatorda turgan katta kishiga ham ana shunday befarq qaragan. Masofa qanchalik qisqarsa, bolaning unga intilishi, qiziqishi shunchalik kuchayib borishini kuzatish mumkin.

YUqoridagi tajriba materillari asosida shunday xulosa chiqarish mumkin: go‘dak qatnashayotgan faoliyatni jonlantiradilar. Go‘dakni qurshab to‘rgan jismlar borgan sari uning nigohini o‘ziga tortib, maftun qilib, qo‘zg‘atuvchi vazifasini bajarib, bolaning qidirish, mo‘ljalga olish, chamalash faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi A.V.YArmolenko yarim yoshlik go‘daklarda jozibali narsalarning o‘zaro qiyosiy tasnifini tadqiq qilgan. Muallif olgan ma’lumotlarga qaraganda go‘dak behisob jismlar orasida insonni (katta yoshli odamlarni) tobora aniqroq, ravshanroq ajrata boshlagan. SHu bilan birga harakatsiz ko‘ruv qo‘zg‘atuvchisiga diqqatni to‘plash 26 sekunddan 37 sekundgacha harakat qilmayotgan odamga bolaning tikilishi, 34 sekunddan 38 sekundgacha, xarakatdagi ko‘ruv qo‘zg‘atuvchisiga qarashi 41 sekunddan 78 sekundgacha, harakatdagi insonga e’tibor berishi 49 sekunddan 88 sekundgacha ortgan.

Tajribada go‘dakning xarakatlanayotgan odamga diqqatini to‘plab turishi 4 marotaba ortgani aniqlangan.

Go‘dak jonsiz narsalarga qaraganda odamga diqqatini barqaror qaratishi uning kattalarga munosabati o‘zgarganidan emas balki ular bilan aloqaga kirishganda sust retseptor o‘rnini faolrog‘i egallaganidandir. Go‘dakda fazoviy tassavurning boyishida jummlarning idrok qilishidagi farqlashning

takomillashuvi muhim vosita xisoblanadi. Hayot tajribasi ortib borishi mashqlar natijasida jismlarning alomatlari va belgilarni o'quvi paydo bo'ladi.

Olimaning fikricha 3- oydan 6 oylikkacha bolada katta yoshdagi odamlar bilan tanlab munosabatda bo'lishi vujudga keladi. Uch oylik go'dak begonalar orasidagi tuqqan onasini ajrata olsa, yarim yoshdan boshlab esa begonalar ichidagi qarindoshlarini ham farqlay boshlaydi. M.YU.Kistayakovskaya ma'lumotiga ko'ra, 5-6 oylikda u muomala qilayotgan notanish shaxsga bir oz tikiladi, keyin yo kulimsiraydi yoki undan yuzini o'giradi, xatto, qo'rqib yig'lab yuboradi. Bolada o'zini parvarish qilayotgan yaqin kishilariga bog'lanib qolishi sodir bo'ladi. Ana shu sababli onasini yoki enagasini ko'rsa qiyqirib qarshilaydi, unga talpinadi, qo'l-oyog'ini ixtiyorsiz tipirchilatadi. U yarim yoshga to'lganda atrofdagi yaqin kishilari, qarindosh-urug'lariga, xatto qo'ni - qo'shnilarga ham bog'lanib (o'rganib) ko'nikib qoladi. Ta'minan 8-9 oyligidan kattalar bilan dastlabki o'yin faoliyatini boshlaydi.

O'yin faoliyatidagi tabassum, jonlanish, shodlik, tuyg'ulari avval faqat kattalar ishtirokida namayon bo'ladi, vaqt o'tishi bilan uyinning o'zi bolaga quvonch bag'ishlaydi. Go'dak bir yoshga yaqinlashgan sari kattalarning xattixarakterlarini izchil kuzatishdan tashqari unda asta-sekin ularning ko'mak berish ishtiyoqi tug'iladi. Natijada bola individual faoliyat turidan hamkorlikdagi faoliyatga ham o'ta boshlaydi. Ma'lum, hamkorlikdagi faoliyat muloqot ko'lamini kengaytirishga yordam beradi.

SHunday qilib, go'daklik davrida kattalar bilan faol aloqaga kirishish extiyoji tug'iladi va bu aloqa nutq davrigacha muloqotning o'ziga xos yangi shakli sifatida bolaning o'sishida muhim rol o'ynaydi. Bir yoshgacha davrda paydo bo'lgan extiyojning tobora chuqurlashuvi bilan nutq davrigacha ma'lumot cheklanganligining nomutanosibliigi bir yoshdagi inqirozni keltirib chiqaradi. Vujudga kelgan qarama-qarshilik o'z echimini nutq orqali muloqot davrida topadi. Va bola o'tishning birinchi bosqichida o'tayotganini ifodalaydi. Go'dakning nutq faoliyati takomillashgan sayin muloqotning mazmuni boyib, ko'lami kengayib boradi. Natijada xaqiqiy ma'nodagi shaxslararo munosabat vujudga keladi, go'dakning shaxsga aylanishi va ijtimoiylashuviga keng imkoniyatlar yaratadi. Mazkur davrda go'dakning o'sishini ta'minlovchi ob'ektiv va sub'ektiv sharoitlar yaratilishi bolaning faolligi ortishi uchun psixologik negiz bo'ladi.

Xarakterning psixologik xususiyatlari va mexanizmlarini qator tajribalar asosida o'rgangan olimlardan D.B.Elkoninning ishonch bilan ta'kidlashicha 2-3 haftalik go'dakda ko'z konvergentsiyasi vujudga kelsa ham, o'z nigoxini turli jismlarga qaratib turish jarayoni juda qiyin kechadi, hayotining keyingi 3-5 haftalarida esa uning nigoxi oz fursat bo'lsada, muayyan ob'ektga to'plana boshlaydi. 4-5 haftalik go'dakda 1-1,5 metr naridagi jismlarni kuzatish ko'nikmasi xosil bo'ladi. Ikki oylik bola 2-4 metr uzoqlikdagi narsani kuzatishni o'rganadi, u 3 oyligida 4-7 metr oralig'idagi jismlarni ham payqay oladi, nixoyat 6-10 haftalik go'dak xatto aylanayotgan predmetlarning xarakterini idrok qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keyinchalik xissiy organlarning ko'z bilan turli funksional aloqalar o'rnatishi qaror topadi. Go'dak 4 oyligida uning jismga tikilishi va uni tomosha qilishi nisbatan barqaror bo'ladi.

YUqoridagi fikrlarga qaramay mazkur yoshdagi bolalarda qo‘l xarakati beixtiyor xususiyatga ega bo‘lib, jismlarni maqsadga muvofiq xarakatlantirishdan ancha uzoqdir. Go‘dak 4 oylikidan boshlab narsaga qo‘lini yo‘naltiradi, asta-sekin unda paypaslash uquvi namayon bo‘la boshlaydi. 5-6 oylikida predmetni va uni o‘ziga tortib olish ko‘nikmalari shakllanadi. Xarakat va teri tuyush organlari sifatidagi qo‘l vazifasini o‘tovchi ko‘rish qobiliyati bir maromda rivojlanishdan bir muncha kechikadi. Bola 6 oylikida unda turish, o‘tirish, emaklash, yurish, gapirish ko‘nikmalari shakllanadi.

YUqoridagi xollarning moddiy asosini o‘rgangan N.M.SHechelovanov 2 oylik bolada bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘i o‘z funksiyasini boshlashini, bu xol barcha idrok qilish organlarida, jumladan, eshituv, ko‘ruv, apparatlarida reflekslar paydo bo‘lganidan dalolat berishini uqtiradi. Olimning fikricha eshitish, ko‘rishning yuksak analizatorlari xattoki, ularning kortikal bo‘limlari rivojlanganidan keyin bolada xarakat va xarakatni idrokqilish xodisasi rivojlanadi.

Go‘dak bir necha marta natijasiz harakat oqibatida kaft va barmoqlarini yaqinlashtiradi, shunday qulay xolat yaratadiki qo‘lining uchi jismga tegishi bilanoq uni ushlab oladi. Qo‘l ushlash xarakatining vujudga kelishi ham go‘daklik davrining muhim rivojlanish pallasi xisoblanadi. CHunki, qo‘l bilan ushlash xarakati birinchidan, ko‘rish, xarakatini muvofiqlashtirsa, ikkinchidan, mazkur psixologik xolat birinchi yo‘naltirilgan xarakatni ifodalaydi, uchinchidan, jismlarni ushlashga intilishining o‘zi predmet bilan turli xarakatlarni bajarish (manipulyasiya) ning eng qulay shartidir.

R.YA.Abramovich-Lextman go‘dakning bir yoshgacha davrida predmetlar bilan xarakat qilishni o‘rganib, ularning 6 ta rivojlanish bosqichidan iborat ekanligini aytadi. Bo‘lar: a) faol sergaklik (tetiklik) 2 xaftalikdan 4-5 xaftalikkacha; b) sensor faollik 1,5 oylikdan- 2,5-3oylikkacha; v) xarakat oldi 2,5-3 oylikdan 4-4,5 oylikkacha; g) sodda «sermaxsul» xarakat 4 oylikdan 7 oylikkacha; d) o‘zaro bog‘langan (uyg‘un) xarakat-7-10 oylikkacha; e) funksional xarakat 10-11 oylikdan 12-13 oylikgacha davom etadi.

Predmetning xususiyatiga qarab bola xarakatidagi o‘zgarishlarni M.YU. Kistyakovskaya, D.B. Elkonin, E.A. Arkin, V.S.Muxina, N.A. Menchinskaya va boshqalar, repseptor faoliyati mexanizmlarini I.P. Pavlov va uning shogirdlari F.R.Dunaevskiy va boshqalar o‘rganishgan. Ularning talqiniga emaklash-go‘dakning fazoda mustaqil xolda o‘rin almashtirishi, xarakat qilishining dastlabki ko‘rinishidir. Mustaqil yurish-go‘dakning insonlarga xos yo‘sinda fazoda siljishi, joyidan qo‘zg‘alishni amalga oshirish uchun muayyan darajada tayyorgarlikni taqazo qiluvchi xarakatlarning yangi ko‘rinishidir.

SHunday qilib go‘dakning jismlar bilan bevosita amaliy aloqaga kirishuvchi va ular yordamida xarakatlanishi narsalarning yangi xossa va xususiyatlarini bilib borishi, ular bilan munosabatini yanada kengaytirish uchun imkon yaratadi.

Hayotning ikkinchi yarmida bolaning predmetlar bilan xar-xil xarakatlarni amalga oshirishdagi ildamligi, orentirlashtirish faoliyatining murakkablashuvi, fazoda o‘rin almashtirishning yangi shakllari vujudga kelishi uni katta yoshdagi odamlarga bevosita bog‘lab qo‘yadi.

Go‘dak o‘shining murakkabligi uning xilma-xil faoliyati bilan o‘zaro bog‘langandir. SHuning uchun katta yoshdagi odamlar bu davrda go‘dakning extiyojlarini to‘la qondirishga xarakat qilishlari kerak. SHundagina ularning bola psixikasiga muntazam va maqsadga muvofiq ta‘sir etishi bola bosh miya katta yarim sharlari po‘stining faoliyatini takomillashtiradi.

Go‘dak hayotining dastlabki oylaridan boshlab o‘yin faoliyati uning hayotida muhim o‘rin egallaydi, ko‘rib va eshitib idrok qilish uquvini o‘stiradi. Jismlarning rangi, shakli katta-kichikligini ajrata olish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘yin faoliyati go‘dakning borliqni bilishda va uni aks ettirishda muhim rolg‘ o‘ynaydi.

Katta yoshli kishilar tovushiga taqlid qilish, go‘dakning qurshab to‘rgan odamlar nutqini idrok qilish tom ma‘nodagi nutq faoliyatini tarkib toptiradi. Muloqotning so‘nggi turlari go‘dak hayotining 2- yarim oyligida ko‘zga tashlanadi. Uning o‘zini parvarishlayotgan, odamlarga iliq tabassum, quvonch va shodlik tuyg‘usi bilan boqishi faqat xush kechinmalaridan emas balki ichki mexanizmlarini ifodalovchi, muayyan darajada tashkil topgan ijobiy ta‘sirlanishni aks ettiruvchi muloqotdan ham iboratdir. Katta yoshli odamlardan ta‘sirlanish xis-tuyg‘usi go‘dakning hayot faoliyatida bir necha yo‘nilishda qaror topib beradi. Ulardan bittasi quvonch yoki tabassum tuyg‘usida: butun vujudi bilan talpinishi tikilib turishi, xarakatlarni ko‘zg‘atuvchi kelgan tomonga burishi, o‘ziga xos tovushlar chiqarishi yoki g‘ug‘ulashida yaqqol ko‘rinadi. Ta‘sirlanish xis-tuyg‘usi «jonlanish majmuasi» bilangina emas, uning aloxida tarkibiy qismlarini (tovush, chexra va xakazolar) ta‘sirida ham vujudga keladi. Ta‘sirlanish tuyg‘usi keyinchalik tanlovchanlik xususiyatini kasb etib, faqat ayrim (yaqin tushgan) kishilarga nisbatangina xosil bo‘ladi.

Ta‘kidlanganidek ta‘sirlanish tuyg‘usi avval umumiy xususiyatga ega bo‘ladi. Keyinchalik 4-5 oylik paytlarida kishilarni tanish va begonaga ajratish bilan yakunlanadi. YA‘ni tanishlar go‘dakda chuqur ijobiy kechinmalar xosil qilsa, begonalar quvonch va tabassum xislarini butunlay to‘xtatishga ham olib keladi. Tanish kishi psixik jarayon sifatida bolaning psixikasiga aloxida ahamiyat kasb etadi. SHu boisdan katta yoshdagi odamlar go‘dak uchun dastlabki tanish jarayonining ob‘ektiga aylanadilar va muloqot davomida ijobiy ta‘sirlanish tuyg‘usini paydo qiluvchi qo‘zg‘atuvchi vazifasini o‘taydilar.

Bola hayotining 2 yarim yilligida kattalar nutqini idrok qilish va uni tushunish jadal sur‘at bilan o‘saveradi. CHunki, ona yoki tarbiyachi parvarish qilish va tarbiyalash jarayonida xar bir xarakatni tushunchalar, so‘z birikmalari, atamalar bilan birga amalga oshiradi, xarakat bilan predmetning uzviy bog‘liqligini yoritishga kirishadi. Ma‘lumki, xar qaysi predmet va voqea o‘z nomi bilan ifodalanadi, natijada bola uchun onaning yoki tabiyachining nutqini tushunish va ilg‘ab olish birmuncha engillashadi. Ularning barchasi bola bilan katta yoshdagi odamlar o‘rtasida uzluksiz hamkorlik vujudga kelishini taqazo qiladi. Bolaning hamkorlikdagi (ota-ona, enaga, murabbiya yoki tug‘ushganlari ishtirokidagi) o‘yin faoliyati ham, xis-tuyg‘uga berilishi ham nutq va nutq faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

D.B.Elkonin xulosasiga ko‘ra, nutqni tushunish vujudga kelishining asosiy shartlari quyidagilardan iborat: a) umumiy xolatdan predmetni ajrata olish; b)

predmetga diqqat-e'tiborni to'plash; v) favqulotda xolatiga qarab, anglanadigan xis-tuyg'uning mavjudligi va boshqalar.

O'zgarlar nutqini tushunish ko'ruv idrokining zamirida vujudga keladi. Boladagi o'zgarishlar nutqini tushunishga o'rgatishda katta odam biror o'yinchoqdan ta'sirlanishni xosil qiladigan qo'zg'atuvchini uyg'otadi. Bunda jism va rasmlarga bolaning diqqatini jalb etadi, yoki uning qo'lidagi yoxud stol ustidagi ob'ektlarni ko'rsatib «Surnay qani?», «Katta ayiqcha qani?» kabi savolar bilan murojaat qiladi.

Kattalarning bola bilan mashg'ulotlarni bir necha marta takrorlashi natijasida tallaffuz qilinayotgan so'z bilan predmet uzviy bog'lanadi va bu bog'lanish bir necha bosqichlarda namayon bo'ladi. Dastavval kattalarning savoli bolada xech qanday ta'sirlanish tuyg'usi ko'zga ko'rinmaydi, xatto go'dak o'sha predmetga qiyo ham boqmaydi. Ikkinchi bosqichda bolada savolga nisbatan sust xarakterlanish xosil bo'ladi va u predmet turgan tomonga diqqatini yo'naltiradi. Nutqni idrok qilishning uchinchi bosqichida go'dak uchun jismning moxiyati va mazmuni muhim ahamiyat kasb etmaydi, balki berilayotgan savolning intonatsiyasi, ritmi, tempi, mantiqiy urg'usi bosh mezon, asosiy turtki vazifasini bajaradi. O'zgarlar nutqini tushunishning oxirgi bosqichida go'dak predmetni anglatuvchi so'z bilan predmetni o'zaro bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladi, natijada boshqa joylardan ham shu predmetni topish uchun ijodiy izlanishga xarakterlanadi. Nutqni idrok qilish va tushunishning oxirgi bosqichi go'dakning 9-10 oylikidan boshlanadi va uni o'zgarlar nutqini tushunishning ilk shakli va ko'inishi deb aytiladi.

Tadqiqotchilari F.I. Fradkina kattalarning go'dakka qaratilgan nutqida quyidagi ta'sirlanish xolatlarini ko'rish mumkinligini aniqlangan. Birdan bajarishga intilish (7-8oylikda), 3) Kattalarning nutq orqali ko'rsatmasi bo'yicha oddiy topshiriqlarni bajarish (9-1% oylikda), 4) Nutq orqali ko'rsatma bo'yicha zarur predmetni tanlab olish (10-11 oylikda), 5) «Mumkin emas» degan takidlovchi so'z ta'sirida xarakterlanishni to'xtatish (12 oylikda va xakozo).

D.B.Elkonin fikricha, bir yoshgacha bola psixikasi o'sishining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Kattalar nutqini tushunish hamda dastlabki so'zlarni mustaqil talaffuz qilish:
2. Predmetlar bilan xilma-xil xarakterlanishni uyg'unlashtirib, ish-xarakterlanishni bajarish:
3. Yurishga o'rinishning ro'y berishi:
4. Xarakterlanishni so'z bilan boshqara olish:
5. So'z bilan go'dakning idrok qilish faoliyatini boshqara olish va xakazo.

SHunday qilib, bir yoshgacha go'dak egallagan eng qimmatli xususiyat paydo bo'ladi va u boladagi ijtimoiy ehtiyojning vujudga kelishida va uning shu ehtiyoj orqali katta yoshdagi odamlar bilan bevosita muloqotga kirishida o'z ifodasini topadi. SHuning uchun jismlar bilan maqsadga muvofiq xarakterlanishni birgalikda amalga oshirishda, bilish jarayonlari va shakllari zamirida muloqotga ehtiyoj tug'iladi. Go'dakning o'sishi kattalar bilan muloqotga kirishish natijasida ro'y beradi.

Demak, 3 oylik go'dak gapirayotgan odamni o'z ko'zlari bilan topish imkoniyatiga ega bo'ladi, chunki, unda shu paytgacha tovush manbaini izlash



uquvi shakllanadi. SHunga ko'ra bola tovush kelgan tomonga qarab so'zlovchiga munosabatini xis-tuyg'uga o'rab ifodalay oladi. Go'dakning borgan sari diqqat bilan atrof-muhit manzaralarini va xar-xil ovozlarni eshitish hamda ko'rish imkoniyati uning umumiy o'sishida aloxida ahamiyat kasb etadi. Tajribalar taxlilidan ko'rinishicha, ko'rish, eshitish analizatorlari go'dakning voqeylik va borliq bilan, kattalar bilan o'zaro muloqotga kirishi natijasida takomillashadi. Go'dakning o'z ko'zlari orqali inson va jismlar to'g'risida muayyan ma'lumot olishi turmush tajribasi ortib borishi bilan vujudga keladi. Eshitish analizatorlari yordamida tovushlarni idrok qilish ovozlarni farqlashdan iborat, shartli reflekslarning tabiatiga ko'proq bog'liqdir. SHu sababli, go'dak inson bilan musiqaning tovushini ajrata biladi, ularning kuchsiz va kuchliligini, yoqimli va shovqinligini sezadi. Uning eshitib tushunishi va nutqini idrok qilishni ko'pgina shartli bog'lanishlarning sifati bilan o'lchanadi.

Inson zotining bir yoshgacha davrini nutqgacha davr deb atash odat bo'lib qolgan. Bu davr mobaynida go'dak bosh miya yarim sharlari ikkinchi signallari sistemasi faoliyati bilan bog'liq anchagina ishlarni amalga oshiradi. Nutqni tushunib idrok qilish esa kun sayin o'sib, takomillashib boradi.

Go'dak ikki oylik bo'lguniga qadar g'udurlashni o'rganadi. G'udurlanish ijobiy xis-tuyg'u, barqaror kayfiyatning maxsuli sifatida boshlanadi. U asta-sekin artikulg'yar apparatning takomillashuvi natijasida tovushlarni o'zaro farqlay boshlaydi. YUqorida aytilganlarning barchasi, bola amalga oshirayotgan nutq faoliyatining nishonasi tug'ilayotganini ko'rsatadi.

Go'dak hayotining analizatorlari rivojlanib, orienterlash reaksiyasi aniqroq ifodalana boshlaydi. SHartli reflekslar ko'lami tobora kengayishi natijasida voqelikka hissiy munosabat takomillashadi. Go'dak hayotining ikkinchi yarmida esa u kattalarning imo-ishoralarni tushunib idrok qila boshlaydi. Faol alomatlarning vujudga kelishi bilan go'daklik davri tugaydi va ilk bolalik Yosh dari boshlanadi.

Inson ontogenezida uning 1 yoshdan 3 yoshgacha o'sish davri aloxida ahamiyat kasb etadi. CHunki bu davrda inson zotiga xos eng muhim sifatlar, xarakter xislatlari, atrof-muhitga, o'zgalarga munosabat, xulq-atvor, tafakkur va ong kabi psixik aks ettirishning turli ko'rinishlari shakllanadi. Bo'larning barchasi qarama-qarshiliklar kurashi ostida tarkib topadi.

Bolaning yurishga o'rinishi, turli narsalar bilan ovunishi va mashg'ul bo'lish imkoniyatlari kengayishi, uning kattalarga bevosita tobelligi, ularga bog'liqligi nisbatan kamayishiga olib keladi.

## **ILK BOLALIK DAVRI**

Go'daklik davridan so'ng rivojlanishning yangi davri ilk bolalik (1-3 yosh) davri boshlanadi. Ilk bolalik davri bola xayotidagi eng ahamiyatli, uning kelgusi psixologik rivojini belgilab beruvchi davr xisoblanadi. Bu rivojlanish asosini bolaning to'g'ri yurishini, muloqotga kirishini va predmetli faoliyatni egallagani tashkil etadi. Tikka va to'g'ri tik yura olish imkoni bolani doimiy ravishda yangi ma'lumotlarni egallashga olib keladi. Bu yoshdagi bola o'z xatti-xarakatlari jixatdan juda faol va kattalar bilan muloqotga kirishish uchun

intiluvchan bo'лади. 1-3 Yosh bola shakllanishda psixik rivojlanishning nixoyatda ahamiyati kattaligini inobatga olgan xolda ayrim psixologlar (m-n R.Zazzo) inson tug'ilganidan to etuklik davrigacha bo'lgan psixik rivojining taxminan o'rtalari 3 yoshga to'g'ri keladi degan muloxazani beradilar. Bu yoshdan boshlab bolalar predmetlarni o'rganish olamiga kadam qo'yadilar. U endi kattalar bilan nutq orqali muomala-munosabatda bo'la oladi va elementar axloq qoidalariga amal qila oladi. Kattalar bilan bo'ladigan muloqot orqali bola atrof xayot xaqida boshqa yo'nalishlarga qaraganda 10 xissa ko'proq ma'lumot oladi. Nutq bu yoshda nafaqat muloqot balki tafakkurning rivojlanishi va o'z-o'zini shuningdek, bilish jarayonlarni boshqarish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ilk davridagi bolalarning etakchi faoliyati predmetlarni o'rganish xisoblanadi. Go'daklik davridagi bolalarga nisbatan ilk bolalik davridagi bolalar narsalarga ko'proq qiziqish bilan qaraydilar. Agar go'dak bola qo'liga ushlagan narsani oddiy xarakatlantirib ko'rsa, 2-3yoshdagi bola shu predmet qismlarini diqqat bilan o'rganganidan so'nggina o'z amaliy faoliyatida ishlatadi. Bolani avvalo shu predmetning ishlatish vazifasi qiziqtiradi va u o'z savoliga javob olish uchun ko'pincha kattalarga «Bu nima?» degan savolni beradi. 3 Yosh arafasida predmetlarning vazifalarini to'la o'zlashtirgan bolalar o'z o'yinlarida nafaqat shu predmetlardan foydalanadilar, balki ularni o'z vazifalariga ko'ra ishlatadilar ham. Predmetli faoliyatga kirishishi bolaning turli layoqatlari va qo'l xarakatlarini rivojlantiradi. Bolaning nutqi u to 1,5 eshga etgungacha ancha sekin rivojlanadi. Bu davr ichida u 30-40 so'zdan to 100 tagacha so'zni bila oladi, lekin ularni juda kam qo'llaydi. 1,5 yoshdan boshlab esa uning nutqi jadal rivojlanadi. Endi u nafaqat predmetlarning nomini aytishlarini so'rabgina qolmay bu so'zlarni talaffuz etishga ham xarakat qiladi. Nutqning rivojlanish darajasi juda jadallashadi. 2 yoshning oxirlariga borib bola 300 tagacha, 3 yoshning oxirlagiga borib esa 500 dan to 1500 tagacha so'zni ishlay oladi. SHuningdek so'zlarni ham aniq talaffuz etib, jummalarni to'g'ri tuza oladilar.

SHuni aloxida ko'rsatish joizki 1,6-3 Yosh bu nutq rivojlanishi uchun senzitiv davr xisoblanadi. Bu davr aqliy rivojlanish asosini idrok va tafakkur xarakatlarining yangi ko'rinishlari tashkil etadi. 1 yoshli bola xali predmetlarni ketma-ket, sistemali ravishda ko'rib chiqa olmaydi. U asosan predmetning qandaydir bir ko'zga tashlanib turadigan belgisiga o'z e'tiborini qaratadi va predmetlarni shu belgilariga ko'ra taniydi. Keyinchalik yangi idrok xarakatlarini egallanishi bolaning predmetli xarakatlarini bajarishdan ko'z bilan chamalab xarakat qilishiga o'tishda namoyon bo'лади endi u predmetning bo'laklarini ushlab ko'rmasdan chamalab idrok eta oladi. 2,5-3 eshli bola kattalarning bergan namunasi rangin shakli va kattaligiga ko'ra aynan shunday predmetlarni chamalab idrok etgan xolda to'g'ri topa oladi. Bolalar avval shakliga, so'ngra kattaligiga va shundan so'ngina rangiga qarab ajrata oladilar. Bu jaraenda bola bir xil xususiyatga ega bo'lgan juda ko'p predmetlar borligini tushuna boshlaydi. Lekin bola rasm chizishni boshlaganida predmetlarni rangini e'tiborga olmaydi va o'ziga yoqadigan ranglardan foydalanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishiga 2,5-3 yoshli bola 5-6 ta shaklni (doira, kvadrat, uchburchak, to'g'riburchak, ko'pburchak) va 8 xil rangni (qizil, qovoq sariq, sariq yashil, ko'k, siexrang, oq, qora) idrok etishi mumkin. Rang va shakllarning ishlatilishi jixatidan turli xil

narsalarda turlicha bo'lishi sababli bu eshdagi bolalar ularni idrok etganlari bilan nomlarini aniq bilishlari va o'z nutqlarida ishlata olishlari birmuncha qiyinroq. Kattalarning bu yoshdagi bolalardan shu rang va shakllarni eslab qolishini talab etishlari noto'g'ri bo'lib, buning uchun mos davr bu 4-5 esh xisoblanadi. Bu eshdagi bolalar so'zlardagi barcha tovushlarni idrok eta oladilar.

Bola 3 yoshigacha o'zlashtirgan so'zlar asosan predmet va xarakatlarning nomlarini bildiradi. Nomlar asosan uning funksiyasini anglatib bu predmet yoki xarakatning tashqi ko'rinishi o'zgarsa ham uning nomi o'zgarmaydi. SHuning uchun ham bola predmetlarning nomlarini ishlatilishini funksiyalariga bog'lagan xolda tez o'zlashtiradi.

Ilk bolalik davrining boshlariga kelib bolada birinchi tafakkur operatsiyalari yuzaga keladi. Buni biz biron bir predmetni olishga xarakat qila olganidan so'ng esa uni sinchiklab o'rganishida ko'rishimiz mumkin. Ularning tafakkurlari asosan ko'rgazmali xarakatli bo'lib, u atrof olamdagi turli bog'liklarni o'rganishga xizmat qiladi. O'zidan uzoqroq turgan koptokni biron bir uzunroq narsa bilan itarib yuborish mumkinligini ko'rgan bola endi mustakil ravishda divan tagiga kirib ketgan koptokni kaltak erdamida olish mumkinligini tafakkur eta oladi. Bu davrdagi bolalar tafakkurida umumlashtirish katta o'rin tutadi. Umumlashtirishda nutq asos xisoblanadi. Masalan, soat deyilishi bola qo'l soati, osma soat, shuningdek budilnikni ham tushunishi kerak. Lekin ular turlicha bo'lgani sabab ularda umumiyligni topish bola uchun birmuncha qiyinroq xisoblanib, bu borada fikrlash yordamga keladi va umumlashtirishni tashkil etadi. 2-3 yoshli bolalar ma'lum bir predmetlarning o'rniga ularning o'rnini bosishi mumkin deb xisoblagan boshqa narsalardan ham foydalanadilar. Masalan, o'yin jarayonida bola cho'pni qoshiq yoki termometr o'rnida, yog'ochdan krovat yoki mashina o'rniga foydalanishi mumkin. Bir predmetni boshqasi o'rnida qo'llash mumkinligini bilish bola atrof olamni bilishi, o'rganishidagi ahamiyatli burilish xisoblanadi va u dastlabki tasavvurlarni yuzaga keltiradi. Bu yoshdagi bolalar endi asta-sekinlik bilan kattalar aytib berayotgan ertak, voqea, hikoyalarni, shuningdek rasmda chizilgan narsalarni tasavvur eta oladilar. Ertak eshitish jarayonida bola ertak qaxramonlarini kimgadir o'xshatishga xarakat qiladi, u o'zi mustaqil ertak yoki hikoyalarni to'qiy olishi ham mumkin. Ilk bolalik davrida xotira bilishdagi asosiy funktsiya xisoblanib, u bilishning barcha ko'rinishlarini rivojlanishida ishtirok etadi. Bu davrda bolaning xotirasi jadal rivojlanadi. Bolaning xayotiy tajribalarni o'zlashtirishida avvalo xarakatli, emotsional va obrazli xotira ishtirok etadi. Bu borada xarakatli va emotsional xotira ustunlik qiladi. Xotira bu yoshda asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Bu davrdagi bolalarga ko'p kitob o'qib berish natijasida ular uzun ertak va she'r hikoyalarni eslab qoladilar, lekin bunday eslab qolish bolaning umumiy aqliy rivojlanishidan ham, xotirasining individual xususiyatidan ham dalolat bermaydi. Bu ilk bolalik davridagi bolalarning barchasiga xos bo'lgan nerv sistemasining umumiy egiluvchanligi natijasidir. O'zi va atrof xayot xaqidagi voqea va xodisalarda ketma-ketlik borligi uchun ham ularni xali to'liq ravishda xotirasida saqlab qola olmaydi.

Bu davrdagi bolalar asosan o'z xatti xarakatlarini o'ylab o'tirmaydilar. Bu xatti-xarakatlar ularning xoxish va xissiyotlari asosida bo'ladi. Bu yoshdagi

bolalarning xatti-xarakatlari juda o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan: bolaning yiglashi ham, yig'idan to'xtashi ham juda oson. Ilk bolalik davrda bolada o'z yaqinlariga onasi, otasi, buvi-buvalari, tarbiyachisiga nisbatan muxabbat shakllanadi. Ilk bolalik davrida bu muxabbat boshqa shaklga o'tadi. Endi bola o'z yaqinlaridan maqtov, erkalash olishga xarakat qiladi. Ota-onalar tomonidan bolaning xatti-xarakatlari va shaxsiy xususiyatlariga beradigan ijobiy emotsional baxolari ularda o'ziga nisbatan o'z layoqat va imkoniyatlariga nisbatan ishonchni shakllantiradi. U o'z ota-onasiga nihoyatda qattiq bog'langan bo'lib, intizomli va itoatkor bo'ladi. Ana shu bog'liqlik sababli bolaning asosiy extiyojlari qondiriladi, xavotirligi kamayadi. Onasi yonida bo'lgan bolalar ko'proq xarakat qiladilar va atrof muxitni o'rganishga intiladilar. Bu davrda bola o'z ismini juda yaxshi o'zlashtiradi. Bola doimo o'z ismini ximoya qiladi, uni boshqa ism bilan chaqirishlariga norozilik bildiradi. Kattalarning bola bilan qiladigan muomala munosabati uni o'zini aloxida shaxs sifatida anglashining boshlanishiga imkoniyat beradi. Bu jarayon asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Kattalarning bola bilan qanday muomala qilishlariga qarab o'z «Men»ini anglay boshlashi vaqtliroq yoki bir muncha kechroq yuzaga kelishi mumkin. 3 yoshli bola o'zini o'z xoxish va extiyojlarini qondirishi mumkin bo'lgan manba deb biladi va bu uning «Menga bering», «Ko'taring», «Men ham boraman» kabi talablarida ko'rinadi. Uch yoshli bolalar o'zlarini o'zgalar bilan taqqoslay boshlaydilar, buning natijasida bolalarda o'z-o'zini baxolash vujudga keladi. SHu davrdan boshlab bolalarda mustaqil bo'lish extiyoji yuzaga keladi va bu ularning «o'zim qilaman» qabilidagi so'zlarida nomoyon bo'ladi.

**3 Yosh inqirozi:** 3 yoshga kelib bola o'zini kattalar bilan taqqoslay boshlaydi va kattalar qilishi mumkin bo'lgan (xuquqi bo'lgan), shuningdek ular bajara oladigan xarakatlarni qilishni xoxlaydi. «Men katta bo'lsam mashina xaydayman», «Men sizga katta tort olib kelaman», «Mening yuzta qo'g'irchog'im bo'ladi» kabi xoxishlarini o'z tili bilan ifodalaydi va u kelasi zamonda gapirsa ham barcha xoxishlarini bugunoq amalga oshirishga xarakat qiladi. Bu ko'pincha qat'iylik va qaysarlik bilan namoyon bo'ladi. Bu qaysarlik asosan kattalarga qaratilgan salbiy xatti-xarakat bo'ladi. Bola o'zini mustaqil xarakat qila olishini anglagan vaqtdan boshlab unda «O'zim qilaman» boshlanadi va bu yana qaysarlik va o'jarlik bilan ko'rinadi. 3 Yosh inqirozi bola shaxsining ma'lum bir darajada rivojlanganligi va kattalar bajaradigan xatti-xarakatlarni qila olmayotganini bilishi natijasi xisoblanadi. Inqiroz davrida yuzaga keladigan xususiyatlar iroda, layoqatlar va boshqalar uni shaxs bo'lib shakllanishiga tayyorlaydi.

Uch yoshgacha bolalar psixik rivojlanishidagi asosiy yangilanishlar

YOsh	Bilish	Xarakat	Muloqot
3yosh	Nutq shakllanishi.Obrazli tafakkurning birinchi belgilari.Atrof muxitdan o'zini	Qo'l,predmetli xarakatlarning rivojlanganligi.O'z xatti-xarakatlarini irodaviy boshqarish	O'z-o'zini angalshni yuzaga kelishi normalari.Birinchi axloqiy qoidalarni egallashi

	ajratish.Qat'iylikni anglash	ko'rinishlari	
2yosh	Faol nutqni tushunishi va o'zida yuzaga kelishi	Qo'l va oyoq funksiyalarining aniq belgilanishi	Xarakteri asoslarini shakllanishi
1yosh	Nutqni tushunishni birinchi birinchi belgilari	Mustaqil xolda tik turish va yurish	Nutqni qo'llashning birinchi belgilari
10oylik			Bog'liqlik reaksiyasini yuzaga kelishi begona muxit va begonalar orasida xavotirlik
8 oylik	Sensomotor intellektning yuzaga kelishi	Tayanib yurish	Jest,mimika va pantomimika,yordamida noverbal muloqot
7oylik		YOrdam bilan turish	
5 oylik		YOrdam bilan o'tirish	
3 oylik	Ko'rish qobiliyatining shakllanishi	YOn tomoniga o'girilishi	Onaning jilmayishiga javob qaytarish
2 xafta	Onaning tovushini boshqa tovushlardan farqlash		
1 xafta	Xarakatlarni kuzatish		

Maktabgacha tarbiya davri shaxsning xaqiqiy tarkib topishi (voyaga etish) davri bo'lganligi uchun ham shunday muhim bir davrdir. Hayotning birinchi yili mobaynida bolaning tevarak -atrofdagi muhitga munosabati jiddiy ravishda o'zgaradi. Bola katalar bilan aloqada bo'lishi natijasida uning o'rgatishga qarab o'z ixtiyorlarini qondiradigan narsa bilan mustaqil xarakter qila boshlaydi. Dastlab u kattalar bilan birgalikda, so'ngra ularning rahbarligida xarakter qiladi, undan keyin ovqat eyish bilan bog'liq bo'lgan xarakterlarni va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga oid ishlarni mustaqil bajara oladi. Hayotning 2 yilida kattalar bilan munosabatlarda o'zgarish ro'y beradi. Maktabgacha tarbiya yoshida bola katta odamni o'z xulqi-atvori uchun o'rnak deb xisoblaydi. Bola 1-yoshdan 3-yoshgacha narsalar, bilan xarakterlar qilishni egallaydi o'yin bolaning xarakterlarini rivojlantirish va takomillashtirishga yordam qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshida bola faoliyatining xilma-xil turlari o'yin, mexnat rejimini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat rivojlana boradi. 2 yoshdan boshlab bolalar o'ynaydigan bo'lishadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning (4 yoshdan boshlab) etakchi faoliyatlarga bo'lib o'ynaladigan, ijodiy o'yindir. O'yin jarayonida bola muayyan rollarni bajarishni o'z zimmasiga olishadi

hamda o'yin sharoitida odamlar faoliyati va munosabatini esga keltirishadi. 3-4 yashar bolalarda birgalikda o'ynaladigan o'yinlar xali bo'lmaydi. Dastlab buyum, o'yinchoq rolini go'yo esga solganday bo'ladi, sungra bola o'yinda ixtiyoriy suratda o'z zimmasiga ma'lum rol ni oladi. Maktabgacha tarbiya yoshida bolaning kattalar tomonidan uyushtirilib, muayyan maqsadga qaratilgan ijodiy faoliyati uning taraqqiyotga qancha ta'sir ko'rsatadi. 2-yoshda bola rasm sola boshlaydi va jon dil bilan rasm soladi. Rasm solish jarayonida uning idrok etishi aniqlashda u buyumning rangi va shaklini yaxshiroq ajrata boshlaydi, kuzatuvchanligi rivojlanadi. Bola tasavvurlayotgan narsani o'xshatish maqsadida rasmda aks ettirish zarur bo'lgan narsalarning belgilarini ataylab ajratib ko'rsatadi.

Bola rasm solar ekan, rasmni so'zlar bilan to'ldirib, faollik bilan xarakat qiladi, u o'z tassavvurlari asosida keyinchalik katta Yosh odamlarning so'ziga binoan rasmlar yaratmog'i mumkin-unda ayrim narsalarning obrazlari vujudga keladi. Rasm solish bilan loy va plastiklardan shakllar yasaydi, natijada, bola analizatorlarining rivojlantirishda hamda moslashgan va differensiyallashgan xarakatning tarkib topishidan tashqari uning narsa shaklini, xajmini, bir o'lchovda bo'lishi va munosabatligini idrok etish takomillasha boradi. 3-4 yashar bola narsalar o'rtasidagi bog'lanishni farqlab oladi va o'z faoliyatini planlashtiradi, bu faoliyat asta-sekin ijodiy faoliyatga aylanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshida bolaning analizatorli idrok etish jarayoni ham yanada takomillasha boradi. Bola hayotining 3- yoshida beixtiyor idrok maktabgacha tarbiya yoshidagi katta bolada ma'lum bir maqsadga qaratilgan, tanlangan idrokka aylanadi. Kuzatuvchanlik tarkib topadi. Idrok etishda so'zning roli osha boradi bola narsalarning belgilab qo'ygan sifatleri va xususiyatlarini aytib ko'rsatadi. Idrok jarayoni bolaning tafakko'rini o'stiradi. Idrok jarayoni o'z faoliyati davomida va tafakkur jarayonida tobora takomillashadi. O'yin jarayonida 3-yashar bolada dastlabki umumlashtirish yuzaga keladiki, bu narsa bolaning oddiy masalalarni echishda imkon beradi. SHu tariqa tafakkurning eng sodda formasi bolaning narsa buyumlaridan foydalanish faoliyati bilan bog'langan vositani amaliy tafakkurni paydo bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola tasavvurlari doirasi kengayishi va bilimning oshishi uning aqliy faoliyatini xarakterini o'zgartiradi. Nutqning o'sish faoliyatining kengayishi yangi tafakkur formalari uchun sharoit ko'rsatadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi 5-6 yashar bola tassavvurlaydi keyin esa muxokama qiladi, umumlashtiradi. SHu yoshdagi bolaning tafakkuri konkret obrazli emotsional va yaqqol tafakkur bo'ladi. Muxokama bevosita narsa buyum bilan bog'langan. Bola umumlashtirilgan tushunchalarni o'zlashtiradi fikr yuritish operatsiyalari faqat idrok etishgina emas xayolga ham asoslandi.

Dastlabki (garchi mukammal bo'lmasa ham) xukumlar, xulosa chiqarish va yakun yasash paydo bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshining oxiriga kelib bolaning katta yoshli qilish va ularga taqlid qilib mustaqil ravishda xulosalar chiqarishda va umumlashtirida. Bolaning nutqi kattalar bilan aloqa qilish va o'zaro munosabatlarini darajasining kengayishi natijasida rivojlana beradi. 7-yoshga kirganida og'zaki nutqning grammatik ko'rilishini imlo qoidalarini egallashda bu xollardan og'zaki nutqda foydalaniladi. Bola 6 yoshga kirganida

tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishadi ular til xissi tarkib topadi ularning nutqi tobora rivojlana boradi. Bola faol nutqining o'sishi bolalik davrining muhim tomonidir. Bola dastlab (1 Yosh u 6 oygacha) katalarning nutqini tushuna boradi. Undan keyin esa shu tushunish asosida bolaning faol nutqi tobora o'sadi. Hayotning 2- yilida bola kattalarning narsa nomlari bilan bog'liq bo'lgan hamma so'zlarni tushunadi. Bolaning nutqi tobora tusha borishi uning xulq atvoriga so'z yordamida raxbarlik qilishiga imkon beradi.

3 yashar bolada xulq atvorining asosiy qoidalari faqat taxlid yo'li bilangina emas balki kattalarning og'zaki ko'satmalari yordami bilan ham vujudga keladi.

Dastlab bola bir bo'g'inli gaplarda so'ngra esa 2-3 bo'g'inli gaplardan foydalanadi. Bola hayotining 3-yoshli oxiriga kelib uning so'zlashuv leksikasida bog'cha so'z turumlariga tarkibiga kiradigan bu so'z uchraydi. Bolalar kattalarning gapini eshitishni yaxshi ko'radi, kichik-kichik she'r, xikoyalarni esda saqlashadi, bu uning nutqini o'stirishda yordam qiladi. O'sib borayotgan nutq barcha psixik jarayonlarga - xotira, taffakkur, xayol va shunga o'xshashlarga katta ta'sir ko'rsatadi. 3-yoshdagi bolalar kattalar bilan birgalikda suratlar ko'rib chiqishni va suratlar asosida aytiladigan xikoyalarni eshitishni sevadi. Maktabgacha yoshdagi kichik bolaga (1-yoshdan 5-yoshgacha bo'lgan bolada) xos beixtiyor (ixtiyorsiz) esda qoldirish xususiyati maktabgacha tarbiya yoshidagi katta bolada tobora ixtiyoriy (ataylab) esda qoldirishga aylana beradi. Bolaning tiklovchi xayoli o'sadi, so'ngra ijldiy xayol paydo bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning xayoli etarli darajada kuchli taraqqiy etganligi sabali ko'pgina xayoldagi narsa bilan xaqiqiy narsani aralshtirib yuborishadi. Bolalar idrokning faol ravishda rivojlanishining, tevarak atrofdagi muhitga qiziqishining olib borishi tufayli uning ixtiyoriy diqqati jadallik bilan tarkib topadi. Kattalarning ta'siri va uning tarkiblari bilan faoliyat jarayonida maktabgacha tarbiya yoshdagi 5-6 yashar katta bolalar endi shaxsga xos ba'zi bir barqaror sifatli xulq-atvorning ba'zi tarkib topgan formalarini ko'rinadi. Bo' yoshdagi katta bolalarda dastlabki aqliy tassavvur ham o'sa boradi. Maktabgacha tarbiya darida bolaning ijtimoiy, aqliy va axloqiy kamol toptirish uchun maktabda o'qishga tayyorlaydi. Bolalarni sistemali ta'lim olishga psixologik jixatdan tayyorlash, ularda o'qishga xavas bilim olishga intilish bolalar muassasalarida ham oilada ham maktabgacha tarbiya yoshidagi katta bolalarda o'quvchi bo'lish, o'qiy boshlash va o'zi uchun yangi hayotga o'quvchi bola hayotiga qo'shilish istagi namayon bo'ladi.

## **O'SMIRLIK DAVRI PSIXOLOGIYASI**

O'smirlik insonni balog'atga etish davri bo'lib, o'ziga xos xususiyati bilan kamolotning boshqa pog'onalaridan keskin farq qiladi. O'smirda ro'y beradigan biologik o'zgarishlar natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. Balog'at davriga 11-15 yoshli qizlar va o'g'il bolalar kiradilar. Kamolotning mazkur pallasida jismoniy o'sish va jinsiy etilish amalga oshadi.

O'smirlik yoshida qizlar va o'g'il bolalarning jismoniy qiyofasida muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Bu davrning boshlanishida qizlar o'g'il

bolalarga nisbatan tezroq o'sib ulg'ayadilar. Bu narsa qiz bolalarnig ertaroq jinsiy balog'atga etishiga bog'liqdir.

6, 7- sinflarda novcha, salobatli bo'lib ko'rinadigan bo'ychang qizlar bilan yonma-yon past bo'yli, serxarakat o'g'il bolalar tez o'sib, qiz bolalar bilan tenglashib oladilar. YUqori sinfga o'tganlarida esa ulardan o'zib ketadilar.

O'smirlik davrida o'g'il bolalarning bo'yi 25-30sm, qiz bolalarning bo'yi 18-20 sm o'sadi. Bu davrda tananing intensiv o'sishi yuzaga keladi.

Ma'lumki, bo'yiga o'sish, naysimon suyaklar va umurtqa pog'onasining uzayishi xisobiga ro'y beradi. Bu davrda naysimon suyaklarning oxirgi tayanch qismlari xali etarli darajada suyaklashmagan, yumshoq bo'ladi. Bu xususiyatlarni nazarda tutish, o'smirning sportning murakkab og'ir turlari bilan shug'ullanishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Aks xolda bolaning umurtqa pog'onasi qiyshayib, bo'yi o'smay qolishi mumkin.

O'smirlik yoshining ikkinchi davrida yuz suyaklari, ayniqsa uning umurtqa qismi (burun, yuqori jag', yonoq) juda tez shakllana boshlaydi. YUz keyinchalik qariyib o'zgarmaydigan muayyan shaklga kiradi. Og'iz bo'shlig'i va xalqum o'zgaradi, bo'g'izda ham o'zgarish ro'y beradi: ovoz paylari uzayadi va kuchayadi. Natijada o'smirlarning, ayniqsa o'g'il bolalarning ovozi yo'g'on va past bo'lib qoladi. «Ovozning buzilishi» Yosh bolalarga xos o'tkir, ovozning nisbatan past, kattalarga xos ovoz bilan almashinuvidir.

Biroq bu ovozlarda orasiga xali bolaning o'tkir ovozi qo'shib ham turadi. Kattalar xazil bilan o'smirlar ovozi «xo'roz ovozi» deb ataydilar. Ovozning o'zgarishi o'smirning o'zini taajubga soladi. Qizlarning ovozi keskin o'zgarmaydi. SHunday bo'lsa-da qizlarga xos o'tkir, jaranglagan ovoz asta-sekin qizlarning mayin, tekis va nozik, salgina pasaygan ovoziga o'z o'rnini beradi.

O'smirlik yoshida muskul sistemasining o'sishi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Muskullar tez o'sib, mustaxkamlanib boradi. Oyoq va qo'l suyaklarining o'sishdan orqada qoladi. O'smirlarning muskullari xali ingichka, nisbatan kuchsizdir. Natijada o'smirning gavdasi nomutanosib, xarakatlari, yurishi notekis, beso'naqay bo'ladi. Oyoq tovonlari tez o'sadi. Oyoqlar uzun, muskullar nozik bo'lganidan o'smir yurishidagi beso'naqay bo'ladi. O'smirlarda o'z muskullarini o'stirishga zo'r ishtiyoq tug'iladi. Ular og'ir narsalarni ko'taradilar. Muskullarini o'stiradigan mashqlar bilan shug'ullanadilar. O'smirlik davrida nafas olish organlari jadal rivojlanadi.

**Muammoli savol: O'smirlik davridagi jins tafovutlari nimalardan iborat?**

O'g'il bolalarda 11 yoshda 1900-2000 ml; 15 yoshda 2600-2700ml shuning uchun nafas olish xar daqiqada 2 marta kamayadi. O'g'il bolalar qorin bilan, qizlar esa ko'krak bilan nafas ola boshlaydilar.

Kislarodga ochlik o'smirning psixik faoliyatiga ta'sir etib, miya muskul sistemasidan farqli ravishda kislaroddan bir necha marta ko'p iste'mol qiladi. Ana shuning uchun ham yaxshilab shamollatilmagan va ko'p o'quvchi o'qiydigan sinfxonalarda o'smirlar tez charchaydilar va ish qobiliyatlar tez susayadi. Natijada bola darsga quloq solib o'tirmasligi, intizomga rioya qilmasligi mumkin.



O'smirlarning yurakning xajmi va tiriklik sig'imi xar yili 25% kattalashib boradi.

Mazkur davrda tananing umumiy xajmidan 7-8%ni qon tashkil qiladi. Qon bosimi birmuncha oshadi, simob ustunining 110-115 mm darajasida bo'ladi. Yurak qisqarishining chastotasi bir qadar sekinlashadi. Masalan, 11 yoshda daqiqada 85-90 marta urgan bo'lsa, 14-15 yoshlarda 70 martagacha pasayadi.

O'smirlarning jismoniy jihatdan o'sishida jinsiy balog'atga etish katta rol o'ynaydi. Jinsiy etilishning boshlanishi ko'p jixatdan iqlimga va milliy-etnografik omillarga va shu bilan birga individual hayot xususiyatlariga (sog'ligiga, boshdan kechirgan kasalliklar, ovqatlanishga, mexnat va dam olish rejimiga, tevarak-atrofdagi sharoitga va boshqalarga) bog'liqdir. Jinsiy etilishning boshlanishi davri o'g'il bolalarda 12-13 yoshga, qiz bolalarda 11-12 yoshga to'g'ri keladi. Ko'pchilik o'g'il bolalar xozirgi vaqtda jinsiy jixatdan 15-16 yoshda, qiz bolalar esa, 13-14 yoshda etilyapdilar. Natijada boshqa jinsga qiziqish ortadi, orzu, xoxish, nozik tuyg'u, sog'inish, iztirob kabi kechinmalar paydo bo'ladi.

O'smirlar jinsiy, etilish sirlarining 17%ni ota-onadan, 9%ni o'qituvchilardan, 4%ni maktab vrachidan va qolgan yashirin jixatlari, xolatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'cha kuydan, o'rtoqlari va dugonalaridan eshitib bilib oladilar.

SHaxsning axloqiy jixatdan intensiv tarkib topishi, xatti-xarakatlarining axloqiy etnik nomalarini o'zlashtirish o'smirlik yoshining muhim psixologik xarakteristikalaridandir.

O'smirlik yoshida faqat jismoniy taraqqiyot yuzaga kelmay, balki bolaning shaxsi ham sezilarli rivojlanadi. Bola shaxsining rivojlanishi tevarak-atrofdagi voqelikning ta'siri ortida maktabdagi, ta'lim tarbiya jarayonining ta'sirida, kolektiv va tarbiyachilarning g'oyaviy raxbarligi ostida amalga oshadi.

O'smirlik yoshi xatti-xarakatlarida suyana boshlaydigan dunyoqarashlarning, ma'naviy e'tiqod, prinsip, qoida, idealarining, baxolash, muloxazalari sistemasining tarkib topishi davridir. Agar kichik maktab yoshidalik davrida u kattalarning, ya'ni o'qituvchilar va ota-onalarning bevosita ko'rsatmalari bilan, yoki o'zining tasodifiy va impulsiv istaklari ta'siri bilan xarakat qilgan bo'lsa, endilikda uning uchun o'z xatti-xarakatlarining prinsipi, o'zining qarashlari va e'tiqodlari asosiy ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi va tarbiyachi shuni nazarda tutishi lozimki, xuddi ana shu yoshda axloqiy ong taraqqiyotiga zamin qo'yiladi.

O'smir turli narsalarni mutlaqo aniq differensiallaydi. Agar tanaffus paytida o'ynab turib stulni sindirib qo'ysa va uni ustaxonada tuzatish lozim bo'lsa, bu jazo emas. Agar o'zining iflos qilgan joyini supurishga majbur qilinsa bu ham jazo emas. Bularning mantiqi o'smir uchun ravshan, ya'ni bu jazolash emas, balki xati-xarakatlarining natijalarini tuzatishdir.

Psixologlar o'z oldilariga o'smirlar ma'naviy ongining mazmunini, ularning axloqiy tushunchalari va tasavvurlarini o'rganish vazifasini qo'yanlar. Tadqiqotlar umuman o'smirlar ma'naviy ongining yuksak darajada ekanligini ko'rsatadi. O'smirlarning ko'pchilik qismi yoshlarga munosib ma'naviy

tushunchalarni to'g'ri tushunadilar. Bir necha misollar keltiramiz; qat'iylik-«bu, odam eng qiyin ishlarni amalga oshirishga kirishganda, uning xech qanday muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqmay ishni oxirigacha olib borishida ko'rinadigan xususiyatdir» (12yosh) «qat'iylik yaxshi odamda ham rivojlanadi, ammo yomon odamda yomon ishlarga, yaxshi odamda esa yaxshi ishlarga xizmat qiladi.» (12yosh) o'smirlilik yoshining oxiriga kelib chuqur anglashlik darajasi, albatta, sezilarli o'sadi. «Kamtarlik-bu, o'ziga oqilona baxo bera bilish, o'z-o'ziga va xatti-xarakatlariga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishdir».

E'tiqod va dunyoqarashning tarkib topishi bilan chambarchas bog'langan xolda o'smirlarning axloqiy ideallari ham yuzaga kela boshlaydi. Bu ideallar etarli darajada chuqur, mazmundor, faoldir va bu ideallar o'ziga xos axloqiy etalon bo'lib xizmat qiladi, o'smir esa o'z xatti-xarakatlarini ana shu etalon bilan tenglashtiradi. Kichik yoshdagi o'smirlar uchun odatda qandaydir konkret bir kishi ideal bo'ladi. Bu odam o'smir yuksak darajada baxolaydigan sifatlarni o'zida gavdalantirgan bo'ladi. Ko'pgina bunday ideal ota-onalar, o'qituvchilar yoki yaxshi ko'radigan kitobidagi va kinofilmidagi qaxramonlardir.

O'smirlar o'zlarining kelajakdagi hayot va faoliyatlarini o'z orzularida loyihalashtiradilar. Katta ishlar va qaxramonona kasb kishilari fan va mexnat kishilari o'smirlarimizning aql-xushini o'rab olgandir. Bu mamlakatimiz hayotidagi keng va chuqur ijtimoiy xodisalar bilan xozirgi vaqtdagi xaqiqiy qaxramonona ishlar bilan bog'liqdir. So'nggi yillarda o'smirlarning qaxramonlik xaqidagi orzu va umidlari tobora ko'proq o'z hayotini fazoni zabt etishga, raketa texnikasiga, quvvatning yangi turlaridan foydalanishga, ximiya, fizika, biologiya va meditsina soxalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borish bilan bog'lanmoqda. O'smirlarimizning orzulari ularning mamlakatimiz hayotida, ijtimoiy foydali faoliyatda qatnashishi uchun bo'lgan ishtilishlardan darak bermoqda.

O'smir o'g'il bolalarda jasorat ko'rsatishiga, olifalikka moyil bo'ladi. Bu narsa ba'zan xatto jiddiy ravishda intizomni buzishga olib keladi. Ular: jassurlik yoki dadillik bu, hayotni xavf ostida qoldirib xarakat qilish, nima uchun bo'lishidan qat'iy nazar, bari-bir odamning eng xavfli ishga kirishidan iboratdir deb xisoblaydilar. Bunda eng muhimi qo'rqmaslik hech kimga keragi yo'q mardlikdir, lekin xar xolda mardlik. Oqilona qo'rqoqlikdan axmoqona mardlik yaxshidir.

Bunga misol tariqasida qo'yidagi hayotiy voqeani keltirish mumkin: maktablardan birida o'smir bolalar shunday bir mashqni o'ylab chiqarishgan: to'rtinchi qavatdagi balkondan uchinchi qavatdagi balkonga sakrab tushishardi, ular qo'lda osilib turib, u yoki bu yoqqa tebranib, so'ng sakrashadi. Nima sababdan ular bu ishni qilganlarini bilish uchun direktor bu bolalarni o'z kabinetiga chaqirdi. Dastavval bolalar urishib berishadi deb indamay turishdi, lekin bir ozdan so'ng dadillanib, bu qilgan ishlari «jasurlik attestati uchun imtixon» ekanini gapira boshlaydilar. Kim bu ishni qilgan bo'lsa, u jassur, kim bu ishni qilmagan bo'lsa, u qo'rqoq. Juda ko'p noxush minutlarni boshdan kechirgan direktor bolalarga bunday deydi: «Mana bunday desak, sizlarga qanday tuyularkin, kimki bu ishni qilgan bo'lsa, u axmoq, agarda kim qilmagan

bo'lsa, u aqlli». Bolalar bunga shunday javob qaytarishdi: «Nima ham der edik, meni qo'rqoq degandan ko'ra, yaxshisi axmoq deb xisoblab qo'ya qoling».

O'smirlik yoshida, ya'ni odam shaxs sifatida tarkib topayotgan bir paytda o'zini kattalardek xis qilishi, kattalarning irodalarga qarshi tura olishini anglash muhimdir. Katta yoshli o'smirlardan biri o'qituvchining oldida kechirim so'rashni talab qilayotgan direktor bilan bo'lgan suxbatda mag'rur ravishda bunday deydi: «Men prinsipial odamman, men hayotimda xech qachon va xech kimning oldida kechirim so'ragan odammasman!». Bularning hammasi o'ziga xos axloqiy dunyoqarashdan iboratdir. Psixologlar o'smirlarning xarakteristikalarini bilan tanishganlaridan so'ng shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'smirlarning xarakteristikalarini xatti-xarakatlari bilan to'la mos keladi, ya'ni ularning axloqiy ongi xatti-xarakatlari darajasiga «o'sib chiqib», xatti-xarakatlarni belgilaydi. So'nggi paytlarda L.N. Desev o'smirlarning axloqiy tushunchalari mazmunini tadqiqot qilib (A.G. Kovalov rahbarligi ostida), ularning axloqiy kategoriyalarni tushunishlari ko'pincha yuzaki, formal xarakterga ega ekanligini ko'rsatib berdi.

O'zini anglash extiyoji hayot extiyojlaridan va amaliy faoliyatlaridan kelib chiqadi. O'zini anglash kattalarning, guruhning o'sib borayotgan extiyojlari bilan belgilanadi. Ijtimoiy hayot va jamoaga bo'lgan qiziqishning rivojlanishi munosabati bilan o'smirlarda o'z imkoniyatlariga baxo berish, jamoada o'z o'rnini aniqlash, xatti-xarakatlari va o'z shaxsining qanday xususiyatlari uning oldiga qo'yiladigan talablarga yuksak darajada javob berishga yordam berishi yoki xalaqit berishini anglash extiyoji paydo bo'ladi. O'smirlarda o'zini anglashning rivojlanishi ularning o'z xatti-xarakterlarini anglashlaridan boshlanadi. Dastlabki paytlarda o'smirlarning o'zini anglashi asosida uning xaqida boshqa odamlarning, kattalarning (o'qituvchilar, otionalarning), jamoaning va o'rtoqlarining muloxazalari yotadi. Kichik yoshdagi o'smir o'ziga go'yo atrofdagi odamlarning ko'zi bilan qaraydi. Yosh ulg'ayishi bilan o'z shaxsini mustaqil tahlil qilish va baxolash tendensiyasi boshlanadi. Nixoyat, shaxsning ko'p tomonlama munosabatlarini ifodalovchi murakkab sintetik sifatlar ( burch xissi, qadr-qiyamat, va vijdon xissi, prinsipiallik)anglanadi. SHaxsni tobora kengayib boradigan sifatlarini anglashdagi bunday izchillik ma'lum va uni osongina tushuntirib berish mumkin.

O'smirlik yoshiga o'tish o'quvchilarning o'qish faoliyatidagi muhim qayta o'zgarishlar bilan bog'liqdir. O'qish faoliyatining yangi va yuqoriroq bosqichi uning mustaqillik darajasi bilan belgilanadi. D.B.Elkonin, T.V.Dragunova va boshqa psixologlar materiallarining ko'rsatishicha, o'smirlik yoshining dastlabki davrida o'qish faoliyati taraqqiyotining bosqichlarida juda katta xar xillikni kuzatish mumkin. Mustaqil ishlarni elementar darajada ham tashkil qila olmaydigan, nihoyatda past, quyi bosqichdan boshlab, mustaqil ishlar fakat uy vazifalarini bajarishda kuzatiladigan qator oraliq shakllardan o'tib, yangi materiallar va xatto bilimlarning yangi sohalarini (astronomiya, mexanika, radiotexnika) mustaqil o'zlashtiriladigan eng yuksak bosqichlarni kuzatish mumkin. O'smirlik yoshining boshlanishi o'qish faoliyati eng yuksak bosqichining tarkib topa boshlashi bilan bog'lanadi. O'smir uchun bilish

extiyojlarini qondirishga qaratilgan mustaqil bilim orttirish tarzidagi o'qish faoliyatining ma'nosi sekin-asta ochila boshlaydi.

Vokelikka bo'lgan ongli munosabatning umuman o'sishi bilan o'smirlarning o'qishga bo'lgan ongli munosabatlari sezilarli darajada kuchayadi. O'zlarining o'qish faoliyatlarida ular sekin-astalik bilan shaxsiy ma'no kasb etadigan xaqiqiy, chukur bilimlar bilan yangicha munosabatlarda bog'langan yangi, yuksakrok bosqichga ko'tariladilar. Rus psixologlarining tadqiqotlari shuni belgilab berdiki, o'smirlar o'qish faoliyatining motivlari murakkab tuzilishga egadir. O'smirlar o'qish faoliyatining motivlari tarkibiga keng ijtimoiy motivlar (bilim orttirishning ijtimoiy jixatdan muhim ekanini anglash, mustaqil hayot va mehnatga tayyorlanish uchun o'qish zarurligi), aslida muvaffaqiyatga intilish, izzat nafs bilan bog'lik bo'lgan bilish motivlari va shaxsiy motivlar (bolalar jamoasida obro' qozonishga intilish va rahbarlik rolini o'ynash) birga ko'shib ketgandir. Bunda ba'zan qarama-qarshilik kuzatiladi. Bilim orttirishga bo'lgan intilish maktabdagi o'qishga befarq yoki hatto salbiy munosabatda bo'lish bilan, maktabdagi baholarga «xushchaqchaq-mensimaslik» (D.B.Elkonin) munosabati bilan aralashib qo'shib ketishi mumkin. Bu o'qishdagi u yoki bu xildagi muvaffaqiyatsizlikka, o'qituvchi bilan bo'lgan nizoga nisbatan o'ziga xos reaksiya bo'lishi mumkin. O'smir odatda o'zining o'qishdagi muvaffakiyatsizliklarini qattiq ichdan kechiradi, lekin uning izzat nafi ba'zan bu muvaffakiyatsizlikka bo'lgan xaqiqiy munosabatni niqoblash xoxishini tug'diradi. Natijada o'quvchi o'qishdagi muvaffakiyatlarga o'zini mutlaqo befarqdek va beparvodek tutadi, xatto soxta mardlik ko'rsatmoqchi bo'ladi.

Nihoyat, o'smir xotirasining o'ziga xos xususiyati ancha murakkab assotsiatsiyalarni, yangi materialning eskisi bilan bog'lanishini aniqlash, yangi materialni bilimlar sistemasiga kiritishdir. YU.A.Samarin va uning xodimlari bilimlar tizimini tarkib toptirish jarayoni xar xil darajadagi assotsiatsiyalarni belgilab olishga aoslanishini aniqlaganlar. O'smir kichik maktab yoshidagi bola uchun xarakterli bo'lgan ayrim assotsiatsiyalar (YU.A.Samarinning fikricha, lokal assotsiatsiyalar) va alohida sistemali assotsiatsiyalar (bir-biridan ajralgan xolda mavjud bo'ladigan alohida masalalarga doir xususiy bilimlar) xosil kilishdan ancha yukori darajada-fanlar ichidagi (sistemalar ichidagi) assotsiatsiyalarni (o'quv predmeti ichidagi bilimlarini aks ettiruvchi assotsiatsiyalarni) tarkib toptirish darajasiga o'tadi, o'smirlik yoshining oxirida eng yuksak darajaga-fanlararo (sistemalararo) assotsiatsiyalarga o'tish uchun sharoit yaratiladi. Bu turli o'quv predmetlarining materiallarini bir-biri bilan bog'lash, xar xil fanlardan beriladigan bilimlarning umumiyligini, birligini tushunish imkonini beradi.

Diqqatning taraqqiy etishi ma'lum ziddiyatlari bilan: bir tomondan, o'smirlik yoshida barqaror, ixtiyoriy diqqatning tarkib topishi bilan, boshqa tomondan, o'smirdagi taassurotlar, kechinmalar, jo'shqin aktivlik va impulsivlik ko'pincha beqaror diqqatga olib borishi bilan, uning tez chalg'ishi bilan ajralib turadi. Hamma narsa ish sharoitiga, materialning mazmuniga, o'quvchining kayfiyati va psixik xolatiga, uning ishga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi. Diqqatning tanlovchilik qobiliyati, ya'ni uning turlicha xarakteristikasi o'sha

narsaga bo'lgan qiziqish ko'lami va darajasiga bog'liq bo'lishi o'smirda juda yaqqol ifodalangan. Bu darsda (uzi yoktirmagan darsda) e'tiborsiz va parishonxotir bo'lib o'tirgan o'quvchi boshqa, o'zi yaxshi ko'rgan darsda nihoyatda, xushyor, fikrini bir erga to'plab olib, hech narsaga mutlaqo chalg'imasdan bermalol ishlashi mumkin.

Tadqiqotlar shuni kursatdiki, o'smirlik yoshida diqqatning kulami, shuningdek, diqqatni bir operatsiyadan boshka operatsiyaga karatish, faoliyatning bir turidan boshka turiga jalb etish kobiliyati sezilarli darajada ortadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilardan farkli ularok, o'smir uchun odatda uz faoliyatini uzgartirishga kandaydir aloxida psixologik tayyorgarlik kurish talab etilmaydi.

Diqqatni tashkil etishning eng yaxshi usuli o'qituvchining qandaydir aloxida usullarni kullanishga emas, balki o'kish faoliyatini o'smirda diqqatni uzoq vaqt mobaynida biror narsaga chalg'itish uchun na vakt, na istak va na imkoniyat qolmaydigan qilib uyushtira olishiga bog'likdir. Qiziqarli ish, qiziqarli dars o'smirni shunchalik qamrab olishga qodirki, u juda uzok vaqt davomida zo'r ishtiyok bilan ishlaydi. SHunisi ham borki, o'smir uchun qiziqarli bo'lgan narsa-hamisha ham shunchaki qiziqarli narsa emas. Ishning bir turidan boshqa turiga vaqti-vaqti bilan o'tib turiladigan mazmunli mashg'ulotlar, aktiv bilish faoliyati, ana shu narsa darsni o'smir uchun qiziqarli darsga aylantiradi, ana shuning o'zi uning diqqatini uyushtirishga yordam beradi. N.F.Dobrynin va uning xodimlarining tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'smirlar irodaviy zo'r berish bilan ushlab turiladigan ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqat deb ataladigan diqqatga tobora ko'prok o'tib bormokdalar. Bu diqqat oldindan uylab quyilgan va muayyan maqsadga qaratilgan diqqat bo'lib, ishga «kashfiyotlar»ga bo'lgan qiziqishning asta-sekin ortib boishi asosida yuzaga keladi, shunga ko'ra ham bu diqqatni tutib turish uchun irodaviy kuch sarflash talab etilmaydi.

O'smirlik yoshida fikrlash faoliyatida muhim siljishlar yuz beradi. Kichik maktab yoshida erishilgan tafakkur taraqqiyotining darajasi o'smirda fan asoslarini muvaffaqiyatli va sistemali o'rganish imkonini beradi. O'rganiladigan fanlarning mazmuni va o'quv kurslari tuzilishining mantiki bilimlarni uzlashtirishning yangi xarakterini, mustakil tafakkurga tayanishni talab etadi, abstraksiyalash va umumlashtirish, taqqoslash, mulohaza yuritish, xulosalar chiqarish, isbotlash qobiliyati zarur bo'ladi. Birok, shuni nazarda tutish kerakki, hamma o'smirlar ham isbotlovchi tafakkurga osongina utavermaydilar. Ulardan ba'zilariga, masalan, umumlashtirilgan geometrik isbot goyasining uzi tushunarli bulmaydi: uzingning xak yoki noxak ekanligingni kurib turib ishonch xosil kilganingdan keyin isbotlab utirishning nima kerakgi bor? O'smirlardan biri hayron bo'lib, bunday deb javob bergan: «O'qituvchi doskaga ikkita teng uchburchakni chizadi va ularning teng ekanligini uzok vaktgacha tushuntirib utiradi».

Umumlashtirilgan va muhokamali tafakkurni tarakkiy ettirish uchun matematikani o'qitish juda muhimdir. Algebrani sistemali tarzda o'rgana boshlash umumlashmani umumlashtirish bilan bog'lik bo'lgan yuqoriroq darajasiga o'tishga yoki ikki baravar abstraksiyaga o'tishga rag'batlantiradi

(arifmetika predmetidan soni abstraksiyalashdir). Geometriyani o'rganish fikrlash, isbot qila bilish, mantiqan qat'iy asoslash ko'nikmalarini o'stiradi.

### **O'SPIRINLIK DAVRI PSIXOLOGIYASI.**

15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan davr o'spirinlik davridir. O'spirinlar 8-10 sinf o'quvchilari bo'lib, ular oldida kelgusida kim bo'lish, qanday faoliyat turi bilan shug'ullanish kerak degan tashvish turadi.

Bu yoshdagi bolalar o'smirlardan farq qiladi. Agar o'smirlikda o'quvchining asosiy faoliyati o'qish bo'lgan bo'lsa, yuqori sinf o'quvchilarining faoliyati o'qish, bilim olish va mehnatga tayyorlanishdan iborat bo'ladi.

O'spirinlik davrida o'quv faoliyatining murakkablashishi, ularning yangi jamoada tutgan o'rni ulardan ko'p narsa talab qiladi. O'spirinlarning maktab hayotida, oilada tutgan mavqei o'zgaradi, ya'ni o'zidan kichiklarga nisbatan boshliq, tashkilotchi va tarbiyachi bo'lish talab qilinadi.

18 yoshda kattalikka erishadi. Organizmning o'sishi to'xtaydi, «tinch» davr boshlanadi. Organlarning tarkib topishi va organizm to'qimalarining takomillashishi nihoyasiga etadi. Jismoniy rivojlanish shaxsning ba'zi bir xususiyatlarini va bundan keyingi hayotiy faoliyatini belgilashga ta'sir ko'rsatadi.

Yigit va qizlarning 17-20 yoshlarida organizm normal rivojlanishiga va unga mos keladigan ish bilan band qilish maqsadga muvofiqdir. Ular organizmdagi o'zgarishlar og'irligiga va bo'yiga xos bo'lishi bilan birga o'pka, yurak, qon tomirlariga, nerv sistemasining faoliyatiga ham ta'sir etadi. O'spirinlarda yurak charchashi-xarsillash, yurakning to'xtab-to'xtab ishlashi kabi xollar asta-sekin yo'qolib beradi. Buning uchun jismoniy mehnat, aqliy faoliyat va dam olishning to'g'ri yo'lga qo'yilishi katta ahamiyatga ega.

Bu davrda ularning nerv sistemasi rivojlanadi va katta kishilarning miya po'stlog'i xususiyatiga asta-sekin yaqinlashadi. Bosh miya po'stlog'ining atroflarida nerv bog'lanishlarining soni ko'payadi. O'qish va mexnat qilish natijasida bosh miya yarim sharlarida analitik va sintetik faoliyat rivojlanadi. Bu xolat tashqi ta'sirni aniq ajrata oladigan xususiyatni o'stiradi. Farq qilish xarakteridagi tormozlanish vujudga keltiradi.

Bu davrga kelib o'qish mashg'ulotlari ancha murakkablashadi: bir qator yangi fanlar o'qitila boshlaydi, dars mazmuni kengayadi, murakkablashadi, bilim, hayot, amaliy ishlar qo'shib olib boriladi, o'quvchilar ishlab chiqarish jamoasida bo'ladi, ekskursiyalarga, ko'rsatmalikka, aloxida e'tibor beriladi.

Bu davrda nazorat bilimlar, amaliy ishlar bilan qo'shib o'rganiladi. O'quvchilardan materialni tushunish va uni hayotga tadbiiq eta bilish talab etiladi. Bola bu yoshda o'zini ancha eslik xis qiladi, tajriba ortadi va bilimlarini mustaqil hayotga tadbiiq eta boshlaydi. Bu esa ularning darsga bo'lgan munosabatlarini o'zgartiradi. Bu davrga kelib o'zlariga ma'qul bo'lgan biror fanni tanlaydilar. Bunday xususiyatlarni o'smirlarda ham uchratish mumkin, lekin bunda aloxida fanlarga bo'lgan qiziqish ko'proq o'qituvchining maslahati bilan bog'liq bo'lsa, yuqori sinf o'quvchilaridagi qiziqish ularning extiyojlari, intilishlari asosida tarkib topadi. Ba'zan ular shoshma-shosharlikka yo'l qo'yadilar va natijada xodisalar xaqida noto'g'ri fikr yuritib, noto'g'ri xulosalar chiqaradilar.

YUqori sinf o'quvchilarining o'z atroflarini, o'rab olgan voqelikni bilib olishga bo'lgan intilishi ularda dunyoqarashning tarkib topishiga sharoit yaratadi. Ulardagi nazariy bilimlarning ortib borishida sinfdan tashqari ishlar, to'garaklar ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

V.A. Krutetskiy, I.N. Lukin yuqori sinf o'quvchilarining bilim egallashidagi aqliy individual faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida to'xtalib, bu borada o'quvchilarni asosan 4 guruhga bo'ladi.

1) YUqori darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar. Bular bilim olishda mustaqillik, tashabbuskorlik ko'rsatmaydilar. O'quv materialini darslikdan yodlab oladilar, materialni o'qituvchi so'rab qolganda javob berish uchungina o'rganadilar. Agar material «qiyin» bo'lsa, uni butunlay o'rganmaydilar. Bu bilimlarni o'rgana bilmaydilar, o'quvchilarga ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan maktablarda o'qish qiyin bo'ladi. Bu guruh o'quvchilarining ba'zilari 1X sinfgacha a'lochi bo'lib kelib, keyin og'ir axvolga tushib qoladi bunday o'quvchilar bilan ko'proq individual ish olib borish lozim.

2) O'qish faoliyatida amaliy qobiliyatlari borligi sezilib turadigan o'quvchilar bo'lib, qiyin masalani o'rganishga, uni amalda sinab ko'rishga xarakat qiladilar. Darslar to'g'ri yo'naltirilsa, bu guruh o'quvchilarining darsga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Ularga xar-xil dars usullaridan foydalanib amaliyotda nazariy bilimning ahamiyati katta ekanligini tushuntirish kerak.

3) Bu o'quvchilar nazariyaga juda ham berilib, amaliy ishlarga ahamiyat bermaydilar. Ular ko'p fikr yuritadi. Lekin o'z fikrlarini amalda sinab ko'rishdan qochadi. Ularning fikrlashlarida umumlashtirish, abstraksiya qilish ustun turadi, shunga qaramay konkretlashtirish xususiyati past darajada bo'ladi.

Ular yaxshi gapiradi, isbotlab beradi, yakunlar yasaydi, aqliy faoliyat bilan ko'proq shug'ullanadi, o'z bilimini mustaqil kengaytirishga xarakat qiladi, lekin nazariyani amaliyot bilan bog'lay olmaydi. Bu guruhga ijtimoiy fanlarga qiziquvchilarni ham kiritish mumkin.

4) Bu o'quvchilar o'qish faoliyatida nazariya bilan amaliyotni birga qo'shib olib boradilar. Ularning bilimi keng bo'ladi, ular fikr yuritishini, tatbiq qilishni biladi, jamoat ishida faoldir. Lekin bu guruh o'quvchilari hamma narsaga barobar qiziqadilar-u, alohida bir narsaga chuqurroq qiziqmaydi.

Katta maktab yoshida shaxsning ma'naviy kuchlari intensiv rivojlanadi, uning ma'naviy qiyofasi tarkib topadi, xarakter xislatlari aniq bo'ladi, dunyoqarashi shakllanadi.

Katta maktab yoshida shaxsning rivojlanishiga uning maktabda, oilada, ijtimoiy munosabatlar sistemasida tutayotgan mavqeining o'zgarishi xal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Maktab o'quvchisi bo'lgan o'smirning faoliyati asosan o'qish faoliyatidan iborat bo'lib, u maktab doirasi bilan cheklangandir. O'smirning ijtimoiy faoliyati ham odatda maktab ichida ro'y beradi. Katta yoshdagi o'quvchi esa boshqacharoq bo'ladi.

Katta maktab yoshidagi o'quvchi o'smirdan farqli o'laroq o'zidagi oddiy, sezilarli ravishda namayon bo'ladigan shaxsiy sifatlarnigina emas, balki shaxsnning ko'p qirrali munosabatlarini xarakterlovchi ancha murakkab sifatlarni anglashga qodirdir. O'smir o'zining xozirgi axvoliga muvofiq ravishda o'ziga baho beradi. O'smir o'zicha «Men maktab jamoasining a'zosi»

sifatida qandayman deb savol beradi. Katta maktab yoshidagi o'quvchi esa o'ziga «Men kelgusi mustaqil hayot uchun qandayman? Men yaroqlimanmi?» - deb savol beradi.

Katta maktab yoshidagi o'quvchilarda o'zini anglash asosida o'z-o'zini tarbiyalash odatda xatti-xarakatlardagi ayrim kamchiliklarga barham berishiga yoki ba'zi bir ijobiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilibgina qolmasdan. SHu bilan birga shaxsni umuman, yigit va qizlarda vujudga keladigan umumlashtirilgan ideallarga muvofiq ravishda tarkib toptirishiga ham qaratilgan bo'ladi. Olimlar ayrim yigit va qizlar fiziologiyasini, genetika nazariyasini o'rganar ekanlar odam organizmi va psixikasidagi ko'p narsalar tug'ma bo'ladi, degan xulosaga keladilar.

Albatta, agar ana shu yigit va qizlarga qarashlarning xato ekanligi ko'rsatib berilmasa, o'quvchilar o'z-o'zini tarbiyalashning qayta imkoniyatlarini borligiga ishontirilmasa, odam o'z-xatti-xarakatlari uchun o'zi javobgar ekanligiga ishontirilmasa, ularni o'z-o'zini tarbiyalashga undash qiyin narsa, u natija ham bermaydi.

SHuni nazarda tutish kerakki, katta maktab yoshidagi o'quvchilar ba'zan o'zlarida biron bir sifatni noto'g'ri usullar bilan rivojlantirishga xarakter qiladilar. O'spirinlar soxta qo'rqmasliklari bilan o'zlarini botir qilib ko'rsatishga, beixtiyor xatarli xatti-xarakatlarga moyil bo'ladilar. Ular o'zlarida qo'rqmaslikni, irodani tarbiyalashmoqchi bo'lib, elektr simining ochiq, joylarini ushlaydilar baland qirg'oqdan daryoga sakrab hayotlarini xavf ostida qoldiradilar.

Katta maktab yoshidagi axloqiy rivojlanishda e'tiqodning, axloqiy ongning roli kuchayib borishi bilan ajralib turadi. Katta maktab yoshidagi o'quvchilarning xulq-atvori o'smirlar xulq-atrofiga qaraganda ko'p darajada ularning axloqiy tasavvurlari va tushunchalari bilan axloqiy ustanovkalar hamda e'tiqod bilan belgilanadi. Xuddi ana shu yoshda turli sharoit va vaziyatlarda kishining o'zini to'g'ri tuta bilishi tarkib topadi. Katta maktab yoshidagi o'quvchilarning axloqiy ongi ularning jamiyatdagi hayoti va faoliyati ta'siri ostida, jamoaning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishi ta'siri ostida rivojlanadi, odatda o'quvchilar axloqiy kategoriyalarning mazmuni va mohiyatini ancha chuqur tushuna boshlaydilar. Katta maktab yoshidagi bolalar ko'pgina axloqiy tushunchalarning ijtimoiy jihatdan ko'p ma'noli ekanligi bilan bog'liq bo'lgan eng nozik tomonlarini ham sevishga qodirdirlar. Burch, vijdon, shaxsiy g'ururlik va o'zining qadr-qimmatini bilish tuyg'ulari xaqidagi eng murakkab tushunchalar yuqori sinf o'quvchilarini chuqur va xar tomonlama tushunib olish etarlidir.

Katta maktab yoshidagi noto'g'ri va etilmagan axloqiy tushunchalari to'g'risida turli vaqtlarda psixologlardan A.S. Alyakrinskaya, V.I. Selivanov, I.M. Krasnovaev, N.S. Lukin va boshqalar gapirib o'tganlar. V.I. Braskiyning bergan ma'lumotlariga qaraganda burch, vijdon, uyatsizlik, adolasizlik, faxrlanish kabi axloqiy tushunchalarning mazmunini tekshirib chiqilgan va o'rta maktabni bitiruvchi o'quvchilardan 44,5% gina bu hislarni bir qadar to'g'ri yoritib bergan. T.N.Mal'kovskayaning bergan ma'lumotlariga qaraganda, yuqori sinf o'quvchilaridan 94% vijdonlilikni ma'naviy fazilat deb yuqori



baxolaganlari xolda o'qituvchilar va ota-onalarni aldash mumkin, deb xisoblaydilar.

Katta maktab yoshidagi balog'atga etganlik tuyg'usi o'ziga xos o'zgarishga uchraydi. Bu tuyg'u chuqurroq va jiddiyroq bo'lib qoladi. Katta maktab yoshidagi o'quvchilar o'zlarining balog'atga etganligini erga urishlariga, o'zlariga bolalar kabi munosabatda bo'lishlariga, o'smirlarga qaraganda xali kamroq murosa qilishga moyildirlar.

Katta maktab yoshidagi bolalar katta bo'lib qolganlik tuyg'usi o'ziga xos xarakterga ega bo'ladi. Katta maktab yoshida o'quvchilarning kattalar bilan teng xuquqli ekanligini xaqiqiy ravishda yoki soxtalik bilan tan olmaslik tufayli kelib chiqadigan nizolarning keskinligi biroz yo'qoladi. 16 yoshda o'quvchi pasport oladi, uning kino va teatrga borishidagi cheklashlar kamayadi. Katta maktab yoshidagi o'quvchi ko'p o'tmay 18 yoshga to'lib, saylash xuquqiga, nikoxdan o'tish xuquqiga ega bo'ladi. Bu yigit va qizlarning katta bo'lib qolganligini e'tirof qilishning ob'ektiv belgilaridir.

Keyingi vaqtlarda psixologlar qiziqarli faktni aniqladilar. Birinchidan, yuqori sinfdagi o'quvchi qizlar, o'smir qizlar singari, o'g'il bolalar va o'spirinlarga qaraganda kattalarning ta'siriga ko'proq berilishiga moyildirlar.

Katta maktab yoshidagi o'quvchi shaxsining tarkib topishiga tengdosh jamoasi ta'sir ko'rsatadi. Jamoa umumiy maqsadni, jamoa o'zaro munosabatlarini, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi axloqiy munosabatlarni, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar o'rtasida axloqiy munosabatlarni rivojlantirishda muayyan ta'sir o'tkazadi.

Mustaqil mehnat faoliyatiga o'tish istiqbolning ta'siri ostida katta maktab yoshidagilar uchun xarakterli bo'lgan kelajak maqsadlar sari yo'nalish tarkib topadi. Katta maktab yoshi hayotda o'z-o'zini aniqlab olish yoshi bo'lib, bu vaqtda o'quvchi o'zining mehnatdagi iste'dodini jiddiy ravishda izlay boshlaydi, unda o'zining kelajakdagi kasbini belgilab olish intilishi paydo bo'ladi.

Xozirgi eng dolzarb muammolardan biri oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya ishlari samaradorligini keskin oshirishdan iboratdir. Chunki Respublikamizning rivoji, ravnaqi va istiqboli ko'proq oliy maktab tayyorlayotgan mutaxassislarining maxoratiga bog'liqdir. SHuning uchun o'qitishning ilg'or, faol usullarini qo'llash, oqilona vositalardan foydalannish maqsadga muvofiqdir.

Oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun talabalar bilan o'qituvchilar o'rtasida uzluksiz ta'sir ko'rsatish xukm surishi lozim.

O'qituvchi bilan talabaning hamkorligidagi faoliyati negizida tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish muammosi yotadi. Bu muammo oliy maktab psixologiyasida juda kam tadqiq qilingani sababli xuddi ana shu muammo yuzasidan kengroq muloxaza yuritish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotlarda talabalar deganda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishdagi ijtimoiy hayotga va mutaxassislikka oid rollarni muayyan qoida va maxsus dastur asosida bajarishga tayyorlanayotgan ijtimoiy gurux tushuniladi.

Oliy o'quv yurtidagi ta'limning o'ziga xos xususiyatlari talabalarining boshqa ijtimoiy guruxlar bilan (ular xox rasmiy, xox norasmiy bo'lishidan qat'iy nazar) muloqotga kirishish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Talabalik davrining asosiy xususiyatlaridan biri ijtimoiy etuklikning jadal sur'at bilan ro'yobga chiqishidir. Ma'lumki, ijtimoiy etuklik (kamolot) shaxsdan zarur aqliy qobiliyatini hamda ijtimoiy turmushda bajariladigan turli rollarni egallashga (oila qurishga), farzandni tarbiyalashga, foydali mehnatda qatnashishga (mas'ul vazifada ishlashga) tayyorlanishni talab qiladi. Mazkur jarayonning bosh mezonlari va ko'rsatkichlari o'rta ma'lumotlilik, jamoatchilik, mutaxassis bo'lish imkoniyati uchun unga intilish to'g'risida irodaVIY zo'r berish, Yosh otalik va onalik burchi, jamoat arbobi vazifasini o'tash, ijtimoiy guruxga raxbarlik qilish, sport bilan shug'ullanish, bo'sh vaqtni tashkil eta olish, to'garakda qatnashish va xakazolardan iboratdir.

Talabalik davri o'smirlilikning ikkinchi bosqichidan iborat bo'lib 17-22 (25) yoshni o'z ichiga oladi va o'zining qator betakror xususiyatlari va qarama-qarshiliklari bilan xarakterlanadi. SHu boisdan o'spirinlik davri shaxsining ijtimoiy va kasbiy mavqeini anglashdan boshlanadi. Mazkur pallada o'spirin o'ziga xos ruxiy inqiroz tanglikni boshidan kechiradi, jumladan kattalarning xar-xil ko'rinishdagi (unga yoqish yoki yoqmasligidan qayotiy nazar) rollarni tez suratlar bilan bajarib ko'rishga intiladi, turmush tarzining yangi jixatlariga ko'nika boshlaydi katta odamlarning turmush tarziga o'tish jarayoni shaxsning kamol topish xususiyatlariga bog'liq ichki qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

Pedagogik psixologiya fanidan ma'lumki, o'rta maktab o'quvchilarining (biologik, fiziologik, pedagogik-psixologik) jixatdan oliy maktab ta'limiga tayyorlaydi va ularda umumlashtirish, mavhumlashtirish, sistemalashtirish kabi qobiliyatlari ko'rinadigan fazilatlarini namayon bo'ladi. SHu bilan birga o'spirinlarda aqliy, axloqiy, estetik, g'oyaviy siyosiy jixatidan muayyan darajada o'sish ro'y beradi. SHunga qaramay ular oldida o'quv yurtida mutaxassislikni egallash bilan bog'liq yangi vazifalar paydo bo'ladi. Xozirgi fan texnikaning rivoji bir tomonlama barqaror qiziqishning yo'qolishiga olib keladi, chunki qat'iylik, ijodiy izlanish, irodaviy, zo'r berish o'rni loqaydlik, faoliyatsizlik egallaydi. Boshqacha aytganda ular tayyor axborotlarning quliga aylanadilar, chunki kompyuter, displey EXM, kalkulyatorlar inson aqliy mehnatini engillashtiradi, ularni aqliy zo'r berishda xalos qiladi. Ana shular sababli oliy o'quv yurti ta'limi oldidagi muhim vazifa talabalarga dasturdagi bilimlar majmuasini berishdir.

Talabalarga mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini o'zi tashkil qilish, o'zini-o'zi boshqarish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va xokozolarni o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Bu vazifalarni amalga oshirishning asosiy omili monologik ma'ruza shaklidan diologik (talaba va o'qituvchining muloqotiga asoslangan) ma'ruza shakliga o'tish zarur.

Psixologlardan B.G. Anan'ev, N.V. Kuzimina, N.F. Talizina, V.YA.Lyaudis, I.S. Kon, V.T Lisoveskiy, A.A. Bodolev, A.V. Petrovskiy, M.G.Davletshin, I.I. Ilg'asov, A.V. Dimitreva, Z.F.Esarova, A.A.Verbitskiy, V.A. Tokareva, E.G'.G'oziev va boshqalarning tadqiqotlariga ko'ra, oliy o'quv

yurtlarida ta'lim olish talabalar uchun juda og'ir kechadi, chunki bu davrda shaxsning murakkab fazilatlari, xislatlari, sifatlari, takomillashish bosqichida bo'ladi. Mazkur Yosh davridagi ijtimoiy-psixologik o'sishning xususiyatlaridan biri o'qish faoliyatining ongli motivlari kuchayishidir. Talabalarda axloqiy jarayonlarning o'sishi sust amalga oshsa-da lekin xulqning eng muhim sifatlari mustaqillik, tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik va xokozolar takomillashib boradi. SHuningdek ularda ijtimoiy-xollarga, voqelikka axloqiy qoidalarga qiziqish, ularni angalshga intilish tobora kuchayadi.

Psixologlarimizning tadqiqotlari shaxs hayoti tajribasini egallashida unda o'zligini anglash vujudga kelishini, jumladan, shaxsiy hayotining mazmunini anglashi, aniq turmush rejalarini tuzish, kelajak hayot yo'lini belgilashi va xakazolar amalga oshishini ko'rsatadi. Talaba asta-sekin mikroguruxning notanish sharoitlariga ko'nikib boradi, o'zining xaqqi-xuquqlari va majburiyatlarini bila boshlaydi, shaxslararo munosabatining yangicha ko'rinishini o'rnatadi, turmushdagi ijtimoiy rollarni amalda sinab ko'rishga intiladi. Ulardagi romantik xis-tyg'ular voqelikka muayyan yondoshishiga birmuncha xalaqit beradi. CHunki ular turmushdagi yutuqlar va muvaffaqiyatsizlikning ijtimoiy-psixologik ildizlari nimadan iborat ekanligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lmaydilar.

Yosh fiziologiyasi va psixologiyasi fanlarida to'plangan materiallar tahlilidan ko'rinadiki, talaba 17-19 yoshda ham o'z xulqi va bilish faoliyatini ongli boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmaydi va shunga ko'ra xulq motivlarining asoslanmaganligi, uzoqni ko'ra olmaslik, extiyotsizlik kabi holatlar ruy beradi. V.T. Listovskiyning fikricha, 19-20 yoshlarda ayrim salbiy xatti xarakterlar ko'zga tashlanadi. Mazkur yoshda xohish va intilish iroda va harakterdan ancha ilgari lab ketadi. Bunda odamning hayotiy tajribasi alohida rol o'ynaydi, chunki talaba shu tajriba etishmasligi natijasida nazariya bilan amaliyotni, fantaziya bilan reallikni, romantika bilan ekzotikani, haqiqat bilan illyuziyani, orzu bilan xohishni, optimizm bilan qattiylikni aralashtrib yuboradi.

Talabalik yillarida yoshlarning hayoti va faoliyatida o'zini o'zi kamolatga etkazish jarayoni muhim rol uynaydi, lekin o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari (o'zini-o'zi taxlil qilish, nazorat etish, baxolash, tekshirish va boshqalar) ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ideal (yuksak, barqaror, barkamol) «men»ni real «men» bilan taqqoslash orqali o'zini-o'zi boshqarishning tarkibiy qismlari amaliy ifodaga ega bo'ladi. Talabaning nuqtai-nazaricha, ideal «Men» ham muayyan mezon asosida etarli darajada tekshirib ko'rilmagan, shuning uchun ular goho tasodifiy, g'ayritabiiy xis etilishi muqarrar, binobarin, real «men» ham shaxsning xaqiqiy bahosidan ancha yiroqdir. Talaba shaxsning takomillashuvida bunday ob'ektiv qarama-qarshiliklar o'z shaxsiyatiga nisbatan ichki ishonchsizlikni, o'qishga nisbatan esa salbiy munosabatni vujudga keltiradi. Jumladan o'quv yili boshida talabada ko'tarinki kayfiyat, oliy o'quv yurtiga kirganida zavqu-shavq tuyg'usi kuzatilsa, ta'limning shart-sharoitlari, mazmuni, moxiyati, kun tartibi, muayyan qonun va qoidalari bilan yaqindan tanishish natijasida uning ruxiyatida keskin tushkunlik ro'y beradi. YUqorida aytilgan ichki va tashqi vositalar, omillar ta'siri oqibatida uning ruhiy dunyosida umidsizlik, ruxiy parokandalik kayfiyati, ya'ni istiqbolga ishonchsizlik,

ikkilanish, xadixsirash, kabi salbiy xis-tuyg'ular namayon bo'ladi. Bizningcha oliy maktabda tarbiya ishlarini rejalashtirishda ta'lim jarayonida talabaga o'ziga xos munosabatda bo'lish mazkur davrning muhim shartlaridan biridir.

YUqorida aytilganidek yigit va qizlarni oliy o'quv yurtiga qabul qilish ularda o'z kuchlari, qobiliyatlari, aql-zakovatlari ichki imkoniyatlari va irodalariga qat'iy ishonch tug'diradi, ana shu ishonch o'z navbatida to'laqonlik hayot va faoliyatini uyushtirishga umid his-tuyqg'ularini vujudga keltiradi.

O'spirinlikning ikkinchi davri xulqqa, voqelikka baxo berish imkoniyatidan tashqari talab qo'yish va qat'iyatlilik xususiyati bilan farqlanadi. SHuning uchun talabalar har doim prinsipial bo'la olmaydilar. Ba'zan qat'iyatlilik salbiy munosabatga ham aylanadi. Talabalarning o'qituvchi tavsiyalarini inkor qilishi nizolarni keltirib chiqaradi.

B.G.Anan'ev raxbarligida o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlaridan ma'lum bo'lishicha, talabalar kamol topishining jinsiy va neyrodinamik xususiyatlari ularning aqliy imkoniyatlarini to'la ishga solish va sermaxsul o'quv faoliyati tashkil qilish uchun muhim imkoniyat, shart-sharoit yaratadi.

YU.A. Samarinning ta'kidlashicha o'spirinlar ruhiyatida o'ziga xos qarama-qarshiliklar, ichki ziddiyatlar mavjud bo'ladi. Ularning moddiy jixatdan ota-onaga, oliy o'quv yurti maxmuriyatiga bog'liqligi iqtisodiy ziddiyatni keltirib chiqaradi. Bu xol talablaarning xoxishlari bilan mavjud imkoniyatning nomutanosibligi tufayli sodir bo'ladi.

Odatda talabalar II va III kurslarda oliy o'quv yurti va mutaxassislikni to'g'ri tanlangani xaqida yanada jiddiy o'ylaydilar.

Mazkur Yosh davrida o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari, ijodiy taffakkur, muayyan hayotiy tajriba, o'zlashtirilgan bilimlarini tartibga solish asosida xis-tuyg'ular, qarashlar, axloqiy qadriyatlar, o'zligini anglash va barqaror e'tiqod shakllanadi. Talaba xukm va xulosa chiqarishga o'rganadi, o'z xatti-xarakatida qat'iy turib ularni ximoya qiladi, u hayotning turli soxalari bo'yicha xar xil darajadagi ko'nikma va malakalariga nazariy bilimlar, ijtimoiy-psixologik tushunchalarini amaliy faoliyatiga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi. .

Talabalar o'quv faoliyati muvaffaqiyatining muhim sharti oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, diskomfort tuyg'usini bartaraf qilish, mikromuhitda yuz beradigan ziddiyatlarning oldini olishdan iborat.

Odatda quyi kurslardagi talabalar o'quv faoliyatini mumkin qadar to'laroq tasavvur etishga xarakat qiladilar, lekin uni boshqarish to'g'risida etarli ma'lumotga ega bo'lmaydilar. Ko'pincha ular o'quv faoliyatini boshqarish deganda, o'quv materiallarini o'zlashtirishni rejalashtirish, nazorat qilish, baholash kabilarni tushunadilar. Talabalar varaqa savollariga bergan javoblaridan ma'lum bo'lishicha ularda o'quv faoliyati tizimini tasavvur etishdan tashqari, uning ayrim imkoniyatlari yuzasidan muayyan bilimlar ham bo'ladi.

Ayrim talabalar o'z javoblarida biror xususiyatlariga ega bo'lmagan materialni o'zlashtirishning usullarini ham yozganlar. quyi kurs javoblaridan biri: «Men avvval o'quv materiallarini qismlarga ajrataman, sung ular o'rtasida

mantiqiy uyg'unlikni vujudga keltiraman, muhim va birlamchi kalomatlarni topishga xarakter qilaman. Mazkur materialning oldingisi bilan solishtirma o'xshash va farqli jixatlarni aniqlayman». Xuddi shunga o'xshash talabalarning to'rtidan bir qismidan olidi. Ularning 85% o'quv faoliyatni boshqarishning ayrim tarkibiy qismlarini ifodalay olganlar. Ammo ko'pchiligi o'quv faoliyatini boshqarishning umumlashgan usullarini taxrifiash, anglash, faoliyatning xarakterlarini qanday tartibda amalga oshirishni tasavvur qilishdan ancha yiroqdirlar. SHunga qaramay talabalarda taqqoslash, reja tuzish, leksiya va birlamchi manbalarni konspektlashtirish bo'yicha ma'lum tushunchalar mavjud. Biroq, bu borada ham ayrim nuqsonlar uchrab turadi. CHunonchi talabalar rejalashtirish, konspektlashtirish, ta'limi usullaridan foydalanishga qo'yiladigan umumiy talablarni aniq ko'rsatishda qiynaladilar, muammo doirasidan chetlashadilar va xakazo.

Mana shu qiyinchiliklarni moxiyati va shakliga ko'ra uch guruxga ajratish mumkin:

1. **Bilishdagi qiyinchiliklar:** o'rta maktab va oliy o'quv yurtidagi o'quv materiallarining mazmun va ko'lami jihatidan keskin farqlanishi; oliy o'quv yurtida o'qitishning turli shakli usullari (ma'ruzalar, seminar mashg'uloti, kollokvium, sinov, baxs, amaliy mashg'ulot, maxsus praktikum, maxsus seminar, masus kurs va xakazolar) mavjudligi o'quv matni, ma'ruza va seminar materiallarining murakkabligi, muammoliligi, ilmiyligi, talabalarda mustaqil bilim olish malakalari etishmasligi:

2. **Ijtimoiy-psixologik qiyinchiliklar:** atrof-muhit va hayot sharoitining o'zgarishi; hayot va faoliyatining barcha jabxalarida mustaqilikka o'tilishi: irodaviy zo'r berish, qobiliyat, aqliy imkoniyatlar bo'yicha qat'iyatsizlik masalan, sessiyalarida o'qishdan xaydalishdan cho'chish, qo'rqish, xavfsirashning paydo bo'lishi.

3. **Kasbiy qiyinchiliklar:** oliy o'quv yurti mutaxassisligini tanlashdan ikkilanish; oliy maktab shart-sharoitlariga moslashish jarayonini noto'g'ri tasavvur qilish; ta'lim olish usullari va vositalarini ko'nikma malaka va odatlarning egallashida orqada qolish, turli xususiyatga ega bo'lgan mutaxassislik-ixtisoslik amaliyotidan unumli foydalana olmaslik, nazariy bilimlar bilan amaliyotning ajralib qolgani; talabalarning professiogramma talablariga javob beradigan kasbiy fazilatlarga ega emasligi.

O'qituvchi va talabaning hamkorligi - ta'lim samaradorligining muhim omili.

YAkka shaxs faoliyatining psixologik taxlili faoliyat sub'ektining boshqa odamlar bilan aloqasini mavxumlashtiradi. Lekin bu mavxumlashtirish nixoyatda muhimligidan qat'iy nazar, o'rganilayotgan xodisalarning bir tomonlama yoritish imkonini beradi.

O'qituvchi va o'quvchining hamkorligidagi faoliyatiga doir tadqiqotlarida, asosiy e'tibor o'zaro munosabatning rivojlanishini o'rganishga qaratilgan o'qitishni guruxli tashkil qilish jarayoni bayon qilingan.

A.V.Petrovskiy jamoadagi shaxslararo munosabatlar faoliyatidan kelib chiqishini o'rganib, ta'lim jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorligini tashkil qilish faqat ularning muloqotga extyojini qondirish vositasi

emas, balki o'quv materiallarini o'zlashtirishning ham vositaligini ta'kidlagan edi.

Hamkorlikda maxsuldor faoliyatni psixologik jixatdan o'rganishni V.YA. Lyaudis boshchiligidagi psixologlar guruxi amalga oshirdi. Uning asosiy maqsadi yangi fazilatlarning shakllanishida o'qituvchi bilan talaba rolini ifodalash edi. Ushbu nazariyaga binoan, o'quv faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishning negizi emas, balki shaxsning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini egallash jarayonidir. Mazkur nazariya asosida o'quv vaziyatini talaba shaxsining rivojlanishidagi «yaqin kamolot zonasi» ninggina emas, balki «persektiv rivojlanish zonasi» ni ham yaratadigan yo'sinda, loyixalash mumkin.

## **ETUKLIK DAVRI PSIXOLOGIYASI**

YOshlik davri 23-28 yoshlardan iborat bo'lib, bu davrning o'ziga xos bo'lib, bu davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ijtimoiy hayotning barcha jabaxalarida kamolga erishgan shaxs sifatida faol ishtirok qilish va ishlab chiqarishda mexnat faoliyatini amalga oshirishdan iboratdir. YOshlarning mexnat faoliyati quyidagi uchta muhim belgisi bilan boshqa Yosh davrlardan farqlanadi:

1. Mutaxassislikning moxiyatiga, ishlab chiqarish shart-sharoitiga, mehnat jamoasi a'zolarining xususiyatiga moslashish (ko'nikma)- mexnat faoliyatining dastlabki yillari (ta'minan 1 yildan 3 yilgacha) jamoada o'z o'rini topish va qadr qimmatga erishish;

2. Mutaxassis sifatida o'zini takomilashtirish uchun ijodiy izlanishni amalga oshirish yoki kasb-korlik maxoratini egallash;

3. Maxorat sirlaridan foydalanish, tashabbus ko'rsatish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ijtimoiy etuklikni namoyish qilish yoki ijod faoliyatidagi barqaror ijod bosqichida bir tekis 10 yillab ishlab sifatli maxsulot yaratish namunasini ko'rsatish.

YUqoridagi bosqichlar barcha kasbkor egalariga xos bo'lsa-da, lekin ishlab chiqarishga ertaroq va kechroq kirib kelgan odamlar o'rtasida Yosh jixatdan tafovut mavjud bo'ladi. Masalan, kasb-xunar kollejarini tamomlagan yigit-qizlar o'z mexnat faoliyatini oliy ma'lumotli yoshlardan oldin boshlaydilar, biroq ular ham mazkur bosqichlarni bosib o'tishlari shart.

Xozirgi mutaxassislarning ko'pchiligi o'quv yurtlaridagi nazariy bilimlar bilan amaliy ko'nikmalar o'rtasida uzilish mavjudligi sababli mustaqil faoliyatning dastlabki kunlaridan boshalab qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklar o'z moxiyatiga ko'ra 3 xildir:

- a) ijtimoiy qiyinchiliklar: notanish muhitni shart-sharoitlari, shaxslararo munosabatlarlar, mexnat jamoasining saviyasi, undagi kishilarning xarakter xislatlari, ishlab chiqarish jamoasining qadriyatlari, ma'naviyati, anxanalari va xakazo;

- b) bilim va bilimga oid qiyinchiliklar: maxsus o'quv yurtida olgan bilimlaridagi uzilishlar, saviyaning cheklanganligi, ijodiy izlanish faoliyatining zaifligi, tashabbuskorlikning etishmasligi va boshqalar;

v) mutaxassislik bilan bog'liq o'ziga xos qiyinchiliklar, ishlab chiqarishning moxiyati, xususiyati, texnologiya, qurilmalar, asboblari, amaliy ko'nikmaning bo'shligi yoki ular bilan etarli darajada tanishmaganlik, kasbning iqtisodiy negizini to'la anglab etmaslik, xavfsizlik texnikasi muammolari oldida lol qolish.

Bu qiyinchiliklarni engish davridagi insonning ruxiy xolatlari, jarayonlari, va xususiyatlarida miqdor hamda sifat o'zgarishlari ro'y beradi.

Psixofiziolog P.P.Lazarevning fikricha, eshitish, ko'rish, periferik va kinestetik sezgirlikning o'zgarishi 20 yoshdan boshlanadi. Bu ma'lumotni chet el psixologlari Ful'ds, Raven, Pako kabilar yanada rivojlantirib aqliy va mantiqiy qobiliyatning mezoni 20 yosh deb xisobladilar. B.G.Anan'ev o'zining ilmiy tadqiqotlarida yoshlik davrida yigit va qizlardagi o'zgarishlarni murakkab shaxs jihatlaridan umumiy ruxiy xolat, verbal va noverbal aqliy (mantiqiy funksiyalar) sodda jarayonlarga (organizmdan issiqlik paydo bo'lishdan metabolizm-modda almashinuvigacha), xatto shaxsning xususiyatigacha bo'lgan xolatlarni o'z ichiga qamrab olishini matematik usullarga aylangan ilmiy ma'lumotlar va ularning chuqur sifat tahlili orqali ko'rsatib o'tadi. Ko'zlarning farqlashdagi sezgirliги inson yoshiga qarab o'zgarishini tadqiq qilgan S.V.Kravkov ko'rish sezgirligining ortishi 25 yoshgacha davom etishini, barqarorlashuvi esa 25 yoshdan keyin ham davom qilishini ta'kidlaydi. B.G.Anan'ev laboratoriyasidan olingan natijalar inson funksional darajasining 23-27 yoshlaridagi yigit-qizlarda 44%, funksional xolatning barqarorlashuvi 19,8%, funksional darajasining pasayishi 36,2% tengdir. Bu ma'lumotlar kamolot bosqichining turli mikroavrlarida o'sish jihatlarining o'zaro munosabati xar-xil kechishini ko'rsatib turibdi. YU.N.Kulyutkin katta kishilarning diqqat, xotira, tafakkur, bilish jarayonlarini birgalikda oraliqni tekshirib, 22-25 yoshlarda diqqat va xotira 100,5% tafakkur 102,5%(xotira 97,0 ballga tengligini 26-29 yoshlarda esa diqqat 102,8 xotira 97,0 tafakkur 95,0 ball ekanligini isbotlab berdi. Amerikalik olim V.SHevchuk voyaga etgan odamlarda ijodiy faoliyatning boshlanish nuqtasini tadqiq qilib, 11-20 yoshlar oralig'ida 12,5%, 21-30 yoshlarda esa 66% ekanini aniqladi. Ziyolilarning ilmiy maxsul dinamikasini o'rgangan Z.F.Esarova uning boshlanishi matematiklarda 18-23, fiziklarda 24-27, biologlarda 25-31, psixologlarda 27-30, tarixchilarda 27-32, filologlarda 28-33 yoshlarni tashkil qilishni ko'rsatib o'tadi. YOshlarning ijtimoiy hayotda qatnashuvini o'rgangan V.SHevchuk ijtimoiy faoliyatga kirishni eng yuqori cho'qqisi 25 yosh ekanini aniqlab, bu xol odamlarning 45,4% bo'lishini ma'lum qiladi. Uning fikricha, qolgan yosh davrlarida insonning jamoatchilik faoliyati nisbatan juda kichik birlikni tashkil qiladi, xatto u 45 yoshda 3% teng bo'ladi.

Kishilarda ko'rish maydoni chegarasi xususiyatini o'rgangan L.N.Kuleshova va M.D. Aleksandrovalar 18-35 yoshlardagi xaydovchilarda uning uch xil: normadan ortiq 11%, normada 47%, qolgalarida etalon bo'yicha normadan kam bo'lishini ta'kidlaydilar. 23-28 yoshgacha davrda qator funksiyalar darajasining o'zgarishi, takomilashuvi: ko'rish maydonining ko'lami, ko'z bilan masofani chamalash, fazoviy tasavvur, bilish darajalari; anglash, diqqat va idrokning yaxlitligi hamda o'zgarimaslikning o'sishi boshqa

faoliyat va ko'rish ta'sirchanligi, qisqa muddatli ko'rish xotirasi yoki mustaxkamlanishi namayon bo'ladi: 22-25 yoshlarda 2 xil omillar doirasi vujudga keladi va ular mnemologik va attensional majmuasidan iborat bo'ladi.

YOshlik davrida yigit-qizlar kamolotiga 3 ta muhim psixologik mexanizm; mehnat jamoasi, oila mikro muhiti va norasmiy ulfatlar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, mehnat jamoasidagi psixologik iqlim, ma'naviyat olami, berqarorlik, ijtimoiy ong, ijtimoiy qadriyatlar, muayyan an'analar va odatlar yangi a'zoning xarakterida ijobiy yoki salbiy o'zgarishni vujudga keltirish mumkin. Mazkur ta'sir natijasida asta-sekin umuminsoniy fazilatlar tarkib topishi yoki muayyan shaxsiy nuqtai-nazar yo'qolishi mumkin. Mehnat jamoasiga yangi quyilgan a'zo unda o'z o'rni va qadr-qimmatini qaror toptirish uchun bir qator yon berishga, o'z maslagidan sal bo'lsa-da chetlashishga majbur bo'ladi. Bu yo'l jamoasidagi psixologik iqlimga moslashish maqsadida ichki ruxiy ziddiyatlarga, murakab kechinmalarga, unsiz tug'yonga qarshi qo'yilgan qadam xisoblanadi. SHuning uchun yakka shaxs xarakterini shakllantiruvchi yoki uning mustaqil ichki rishtalarini emiruvchi omil mehnat jamoasidagi ijtimoiy fikrdir. Jamoaga bo'ysunish xar bir a'zoning burchidir. Ayrim xollarda ko'pchilikning tazyiqiga uchragan shaxsda prinsipiiallik, adolatlilik singari xislar, shaxsiy nuqtai-nazar bo'shashib qoladi., natijada unda ikkilanish tuyg'usi paydo bo'ladi. YOshlik gashtini surayotgan yigit va qizlar ota-onasiga, buva-buvisiga, opa-singillariga, aka-ukalariga, turmush o'rtog'iga farzandlariga oqilona munosabatda, oila a'zolarining har biri bilan to'g'ri muloqotda bo'lishi, muayyan qoidaga asoslangan muomala qilish shart. Oiladagi shaxslararo munosabatlar ko'lami kengligi sababli bir nechta bosqichli muloqotga asoslanishi shart. Lekin oila tinchligi, totuvligi va axilligiga xalal bermaslik niyatida Yosh yigit va qizlar vijdon amriga qarshi xatti-xarakat qilishga ham majbur bo'ladilar. O'z maslaklari, fikrlari, shaxsiy qarashlariga xilof yo'l tutadilar. Dilkashlik uchun har bir oila a'zosi bilan umumiy «til» topishga intiladilar. SHunga ko'ra oila muhiti ham yigit qizlarning ruxiyati hamda ma'naviyatini o'zgartiradigan omil vazifasini o'taydi.

Inson uchun psixologik mexanizm rolini bajaruvchi yana bir omil ulfatlar davrasidir. Ulfatlar odatda shaxsiy mayli, qiziqishi, intilishi, orzu-istagi, maqsadi, qarashlari, yoshi va xulqi bir-biriga mos tengdoshlardan iboratdir. Ko'ngilchanlik, do'stlar ra'yiga qarshi bormaslik tufayli yoshlar xarakterida xislar, barqaror e'tiqod, ilmiy dunyoqarash, ichki kechinmalar, mustaqillik va tashabbuskorlik tuyg'ulari namayon bo'ladi, ya'ni «Do'sting uchun zaxar yut» qabilida ish tutiladi. Natijada maxsuliyatsizlik, loqaydlik, ikkiyuzlamachilik, bevafoqlik singari illatlar tarkib topa boshlaydi. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, ulfatlar davrasida yangi fazilatlarni ishbilarmonlikni, amaliy ko'nikmalarni egallash imkoniyati ham yuzaga keladi.

SHu boisdan ulfatchilikka faqat maishat nuqtai-nazaridan yondoshmay, uning mazkur imkoniyatlaridan foydalanish ayni muddaodir.

YOshlik davri insonning kuch-quvvatga orzu havasga, ijodiy rejalariga, izlash va izlanishlariga, imkoniyatlarga boy davridir. Kelajak taqdiri, mo'lko'lchilik, farovonlik, madaniyat yoshlarga bog'liq, shuning uchun



ularning istiqbol rejalari, yaratgan loyixalari, shakllanayotgan ma'naviy va ruhiy olami hech kimni befarq qoldirmasligi kerak.

Kamol topishning bu bosqichiga 28-35 yoshlardagi erkak va ayollar kiradilar. Etuklik davrida odam o'zining barcha kuch-quvvati, qobiliyati, aql-zakovati, ichki imkoniyatlarini o'z kasbiga ijtimoiy faoliyatiga, jamoat ishlariga to'la safarbar qila oladi. Erkak va ayollarning bu davrda mehnat va ijtimoiy faoliyatida muayyan tajribaga egaligi ularni istiqbol sari etaklaydi. Etuk shaxsning boshqalarga munosabati, ularni baholashi, dinamik stereotipda sezilarli o'zgarishni yuzaga keltiradi. U endi faqat o'zining xatti-xarakati uchun emas, balki boshqa odamlarning qilmishlari, uchun ham javobgarligini angelay boshlaydi, ayniqsa, hayot tajribasiga ega bo'lmagan yoshlarning o'z farzandlarining xulq-atvori, yurish-turishi uchun ham kuydiradi, ularga imkoniyat boricha yordam berishga intiladi.

Etuklik, kattalik, donishmandlik, rahnamolik, g'amxo'rlik, xomiylik davridir. Boshqa Yosh davrlaridagi kabi mazkur davrda ham muayyan darajada inqiroz bo'ladi. Bu davrda inson qanday ishlarni amalga oshirishga, qaysi imkoniyatlardan foydalanmagani, ayrim xatolar, tushunmovchiliklar sababli, ko'ngilsizliklar vujudga kelganini angelay boshlayli. O'ziga o'zi xisob berish shu davrning muhim psixologik xususiyatidir. Organizmdagi ayrim o'zgarishlar, umrning tez o'tishi, kishini qattiq tashvishga va iztirobga soladi. U bundan keyingi hayotning har bir daqiqasidan unumli foydalanishga qaror qiladi. Ayrim orzu istaklarini amalga oshirish uchun jismoniy va ruhiy imkoniyatlari etishmasligini anglash uning psixikasida «turg'unlik» tuyg'usini vujudga keltiradi. Buning asosiy sababi 33-35 yoshlarda mnemologik-attension majmua tubdan qayta qurilishidir. YAxlit mnemologik markazning mnemik (xotira) va mantiqiy (tafakkur) qismlariga ajralishi ro'y beradi. Attensional xolatning omilari saqlanib qoladi, lekin katta yoshdagi inson intellektida xotira va tafakkur muhim o'rin tutadi. Biroq o'zgarishlar uning ruhiy dunyosida, kechinmalarida, his-tuyg'ularida chuqur iz qoldirmaydi, etuk shaxs xotirasida illyuzion xususiyatga ega bo'lgan tasavvur obrazlari (yoshlik tuyg'usi, kayfiyati, orzusi, xom xayoli) saqlanib qoladi. Etuklik bosqichida jismoniy va aqliy imkoniyatlardan to'laroq foydalanish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Bu xol butun kuch-quvvat, aqliy, zo'riqish, iroda kuchi, asab taranglashuvi xisobiga emas, balki muayyan ko'nikma, malaka va mahorat asosida ro'y beradi.

Etuklikning turli davrlarida kamol topish jabhalarining o'zaro munosabatini tadqiq qilgan B.G. Anan'ev laboratoriyasida xodimlari 29-32 yoshlarda funksional darajaning oshishi 46,2 barqarorlashuvi 15,8 funksional darajaning pasayishi 38,0, 33-35 yoshlarda 11,2, 33,3%, 55,5% tashkil qilishni aniqlashgan

YU.N.Kulyutkin tadqiqotining natijasiga qaraganda, 30-35 yoshlarda diqqat 102,8, xotira 99,5, tafakkur 102,3 birlikka barovardir. Etuklik davri faoliyatining maxsuldorligini o'rgangan G.Leman uning cho'qqisi kimyogarlarda 30 yosh, matematiklarda 30-34, geologlarda 30-35 Yosh ekanligini va o'rtacha maxsuldorlik cho'qqisi 37 yoshda bo'lishni qayd qilgan. Psixofiziolog S.V.Kravchikov ko'zning farqlash sezgirligi yoshga qarab o'zgarishini 4 yoshdan 80 yoshgacha bo'lgan odamlarda tekshirib,

sezgirlikning ortishi 25 yoshgacha, sezgirlikning barqarorlagshuvi 25-50 yoshgacha davom etishi mumkinini aniqlagan.

Z.F.Esarova oliy maktab o'qituvchilari aqliy faoliyatining maxsuldorligi muammosini tadqiq qilib, kandidatlik dissertatsiyasini yoqlashni matematiklar-26, psixologlar-32, filologlar-34, tarixchilar-31, fiziklar-30, biologlar-32 yoshida amalga oshirish mumkinligini aniqlagan.

Kamolotning birinchi bosqichidagi etuk kishilarda ijtimoiy faoliyatida qatnashish istagi 30 yoshda 18,3%, 35 yoshda 6,2% ni tashkil etadi. V.Shevchuk demak, ijtimoiy tashkilotlar faoliyatida qatnashish ko'lami torayib boradi. Bu davrda erkak va ayollarning tafovutlari namayon bo'ladi: jismoniy, jinsiy, ruxiy kamoloda ayollar ilgarilab kelgan bo'lsalar, endi erkaklar oldinga o'tib oladilar va bu xol inson umrining oxirigacha saqlanib qoladi. Etuklik davrida ijodiy faoliyatning maxsuldorligini Z.F.Esarova quyidagi mezonlar bilan o'lchashni lozim topadi:

1. e'lon qilingan ilmiy ishlarning miqdori;
2. chop qilingan asarlar ichida o'quv qo'llanma, darslik va monografiyalarning mavjudligi;
3. ilmiy tadqiqotda yangi yo'nalishning ochilishi;
4. ilmiy muammoni hal qilishda yangi usulning kashf etilishi;
5. ilmiy maktabning tashkil qilinishi;
6. boshqa mualliflarning ishlariga murojaat qilish va ilova berish miqdori;
7. o'qituvchining ilmiy ma'lumotlaridan talabaning mustaqil ishlaridan foydalanish ko'lami;
8. o'qituvchi raxbarligidagi diplom va dissertatsiya ishlarning miqdori va sifati;
9. o'qituvchining ilmiy faoliyatidagi muvaffaqiyat munosabat bilan taqdirlanish;
10. dotsent va professor degan ilmiy pedagogik unvonlarga sazovor bo'lish kabilar.

Mazkur yoshda shaxsiy hayotdagi yutuqlar, g'alabalar yoki muvaffaqiyatsizliklar kishining ruhiy dunyosiga qattiq ta'sir etadi. Natijada unda takaburlik, mag'rurlik xislari paydo bo'ladi, o'zining boshqalardan ustun qo'ya boshlaydi yoki aksincha, hayot zaxmatlari unda loqaydlik tuyg'usini vujudga keltiradi. Lekin har ikkala ko'rinishga ega bo'lgan ruxiy xolat ham oila a'zolari, tengqurlari, mexnat jamoasi, a'zolarining ta'siri orqali asta-sekin muayyan yo'nalishga tushib qoladi. Umuman, kamolot bosqichidagi odamlar istiqbol rejasi bilan xarakat qiladi, voqelikka turmush ikir-chikirlariga. Tabiat, jamiyat koinot, xodisalariga befarq qaramaydilar, imkoni boricha xotirjamlik, totuvlik, tinchlik, do'stlik, dunyo lazzatlaridan oqilona foydalanish tuyg'usi bilan yashaydilar.

Etuklik davri 36-55 (60) yoshlardagi erkak va ayollarni o'z ichiga oladi. Mazkur davrda ijodiy faoliyatni qaytadan baholashda o'z ifodasini topuvchi yangi xislat namayon bo'ladi. ular shu kungacha mehnat faoliyatida miqdor ketidan quvib yurgan bo'lsalar, endi mexnat maxsulining sifati ustida bosh qotira boshlaydilar. Oilaviy turmushga ijtimoiy hayotga, yashashning maqsadiga, inson

qadr-qimmatiga, tevarak-atrofga, o'zlariga va boshqa odamlarga yangi mezon bilan qaray boshlaydilar. Turmushning iker-chikirlari, ijtimoiy-xodisalarga vazmin, sabr-toqat bilan hayot tajribasiga suyangan holda munosabatda bo'ladilar, har bir narsaning nozik tomoni yoki yomon oqibati xaqida o'z fikrlarini biladiradilar. Hayotda qo'ldan boy bergan imkoniyatlari, xato va kamchiliklari ularda etti o'lchab, bir kes qabilida ish tutish tuyg'usini vujudga keltiradi. SHuning uchun ular umrining biror daqiqasi bekor o'tishiga achinadilar. YOshlik yillarida yo'qotganlarini aql-zakovat, donishmandlik bilan to'ldirishga intiladilar. Etuklik davrining ikkinchi bosqichida qarilik alomatlari ko'proq o'rin egallay boradi, uning boshlanish nuqtasi 45-50 yoshlardir. Lekin odamlarning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra bu chegara turlicha, masalan, bu bir kishida 60 yoshda, boshqa birida esa 70 yoshda bo'lishi mumkin. SHu sababli Yosh davrning chegaralari faqat shartli belgilanadi. Bu omil odamlar yashayotgan oila muhitiga, tarixiy-ijtimoiy shart-sharoitga jo'g'rofiy iqlim va xokozolarga ham bog'liqdir.

Mazkur Yosh davrning o'zgaruvchanligini insonning biologik, ijtimoiy va tarbiyaviy omillari (irsiy alomat, ijtimoiy muhit, uzluksiz tarbiyaviy ta'sir) belgilaydi. YU.N.Kulyutkin bir xil davrdagi odamlarda har-xil jarayonlar, xolatlar, xossalar, xususiyatlarning o'sishi, o'zgarishi baravar emas, balki ularning birovdan oldin xotira, keyin tafakur, boshqa birovda aksincha, rivojlanishni, bir psixik jarayonning zaiflashuvi, ikkinchisini jadal sur'at bilan o'stirishini o'qtiradi.

SHaxsning o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga intilishi faoliyatning barcha turlarida ma'naviy va ruhiy jihatdan o'zini anglashini yanada takomillashtirdi. Etuklik davridagi erkak va ayollarning o'zligini anglashdagi «Men» uch xil ko'rinishdan ifodalanadi: «Men» ko'pincha «Men-obraz» shaklida o'zi tomonidan talqin qilinadi. SHaxsning «Men-obrazi»

1. retrospektiv «Men» dan iborat bo'lib, o'tmishdagi o'zligini aks ettiradi;

1. aktual «Men» sifatida tasavvur etilib, o'zining hozirgi davrini ifodalaydi;

2. ideal «Men» obrazi esa yaqin kelajakda o'zini qanday tasavvur qilish bilan bog'liq holda yaratiladi.

SHuning uchun o'z imkoniyatlarini hayotda to'la safarbar qilish istagi ijtimoiy turmushning barcha jabhalarida o'zining o'tmishi obrazini hozirgisi bilan solishtirib, shaxsiy ideal modelini vujudga keltiradi, shaxs mazkur modeliga asoslanib, turmush rejalarini, xatti-xarakat maqsadini, usul va vositalarini tanlay boshlaydi. Insonning o'tmishdan hozirgi kunda, hozirgi kundan kelajakka intilishi o'zini anglashning bosh mezonini xisoblanadi. O'zligini anglashning boshqa mezonlari ham mavjud bo'lib, o'zini o'zi baxolash, nazorat qilish, tekshirish, qo'lga olish, o'ziga buyruq berish kabilarda aks etadi. O'zini anglash ko'pincha, o'ziga boshqa kishilar:

A) yoshi ulug' odamlar;

B) tengdoshlar;

V) o'zidan kichik odamlar nuqtai-nazaridan qarashda ko'rinadi.

Mazkur Yosh davridagi odamlarning ko'rish maydonini o'rgangan L.N.Kulnova va M.D.Aleksandrovalar 36-50 yoshli erkaklarda ko'rish chegarasi quyidagicha ekanini aniqlaganlar:

Normadan ortiq 4%, normada 53%, qolganlari normadan kam. YU.N.Kulyutkin 36-40 yoshli sinaluvchilarda diqqat, xotira, tafakkurning 0-130 gacha shkalada 94,8, 93,7, 99,0 birligiga ega ekanligini isbotlab berdi. B.G.Anan'ev esa mazkur yoshdagilarda shaklni idrok qilishni bipopulyar va mopopulyar yo'llarida muayyan darajada tafovutlar yuzaga kelishini aytadi.

Qator olimlar (Klapared, Mayle, Bellis, Filipp) mazkur yoshdagilarning tovush va yorug'likdan ta'sirlanish vaqti o'zgarishini o'rganganlar. Olingan ma'lumotlar amaliy ahamiyatga ega bo'lib, o'z qimmatini hozirgacha saqlab kelmoqda. Ful'de, Raven, Pako kabi tadqiqotchilar intellektning qobiliyatini tekshirib, 30 yoshda 96, 40 yoshda 87, 50 yoshda 80, 60 yoshda 75% bo'lishni aniqlaganlar. Ularning ijtimoiy faoliyatiga kirish xususiyatini faollik nuqtai-nazaridan V.Shevchuk 35 yoshidagi odamlarning 6,2% bu faoliyatda qatnashish istagini bildirsa, 40 yoshda 2,2% qatnashishini xoxlaydi, 2,8% esa undan chiqishga qaror qiladi. Ahvol shunday davom etadi.

Z.F.Esarova oliy maktab o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini xususiyatlarini o'rganib, doktorlik ishlarini yoqlashni matematiklar 33, psixologlar 46, filologlar 46, tarixchilar 47, fiziklar 37, biologlar 40 yoshda amalga oshirishni aniqlagan. Umuman etuklik davrining ikkinchi bosqichiga mansub kishilar bir tomondan, butun imkoniyatini mehnat va ijtimoiy faoliyatlariga bag'ishlanadi, ikkinchi tomondan, ijtimoiy faolliklari susayib boradi. Chunki, insonning keksayishi ham quvonchli, ham o'tinchli damlarga, kechinmalarga, xis-tuyg'ularga serobligi bilan boshqa Yosh davrdagi odamlardan ajralib turadi. Xotirjam dam olish istagi bilan ijtimoiy faoliyatdan uzoqlashish tuyg'usi o'rtasida inqiroz vujudga keladi. Qanday qarorga kelish, ya'ni mehnat jamoasi bilan aloqani uzmaslik yoki mutlaqo ijtimoiy faoliyatdan cheklanish muayyan xolatlardagi motivlar kurashiga bog'liqdir. Xozirgi zamon kishilarining o'rtacha umr ko'rishi XX asr boshlaridagiga nisbatan qariyb 1,5, 2 marta uzayganligini, etuklik davridagi erkak va ayollarning ijtimoiy baquvvatligi, ma'naviyati va ruxiyati tekisligi ijtimoiy faollikni susaytirish xaqida so'z bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatmoqda. Demak, ularning ishchanligi, aqliy qobiliyati, kasbiy maxorati, turmush tajribasi, ongining yuksakligi, ma'naviyatining boyligi, ruxiyatining sofliги yangi zafar, mehnat quvonchlari sari dadil qadam tashlashga to'la kafolat beradi.

### **PSIXOGERONTOLOGIYA**

Psixogerontologiya psixologiya fanining tarkibiy qismi ekanini ilmiy jixatdan S.Xoll asoslagan bo'lsa-da, lekin bu yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida Sitseron («Katta Katon yoki keksayish xaqida» asarida), I.I.Mechnikov («Optimizm etyudlari» kitobida), O'rta Osiyo allomalari donolik, donishmandlik xaqidagi durdonalarida falsafiy fikr va muloxazalarni bildirganlar. Amerikalik psixolog S.Xoll (1846-1924) «Keksayish» monografiyasida amaliy va metodologik ahamiyatga molik qator g'oyalarni ilgari surgan.

Mezonlar	Maks. ball	Guruh natijalarini baholash				
		1	2	3	4	5
Axborotning to'liqligi	3 b.					
Axborotning grafik shaklda ifoda etilishi	1 b.					
Guruhning faolligi	1 b.					
Ballarning maksimal summasi, jami	5 b.					

#### 4-ilova


- ✚ Tarbiyaviy ish metodlari va shakllari.
- ✚ Jamoa va uning tarbiyaviy tasiri.
- ✚ Tarbiyada individual yondoshishning psixologik asoslari




**“Klaster” grafiği asosida o‘quvchining o‘qituvchi psixologiyasi mavzusiga doir bilimlarini tizimlashtirish**



**2-topshiriq.**




**3-topshiriq.**



**4-topshiriq.**





## «BIRGALIKDA O‘QIYMIZ»

### TEXNIKASI

**Birgalikda o‘qish:** o‘quv guruhi kichik guruhlarga bo‘linadi. Har bir kichik guruh o‘rganilayotgan mavzuning ma’lum bir sohasida ekspert bo‘ladi va boshqalarni o‘rgatadi.

Har bir guruhning maqsadi boshqa barcha guruhlar ishtirokchilari mavzu savollarini to‘la hajmda egallab olishdan iborat.

*«Birgalikda o‘qiyimiz» texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi*

1. Bilim darajasiga qarab 3-5 kishidan iborat bo‘lgan har xil turdagi guruhlar tuziladi.



2. Har bir guruhga *bitta* topshiriq beriladi –umumiy mavzuning bir *qismi*, uning ustida butun o‘quv guruhi ish olib boradi hamda tayanchlar – **ekspert varaqlari** – taqdim etiladi.



3. Har bir guruh ichida umumiy topshiriq taqsimlanadi.



4. Hamma *yakka tartibdagi topshiriqni* bajaradi.



5. Barcha guruh a’zolarining mini-ma’ruzalari tinglanadi. Umumiy natija (butun ekspert varag‘i bo‘yicha savollar javobi)ni shakllantiradi va uni taqdimotga tayyorlashadi.



6. Spiker yoki guruh barcha a’zolari birgalikda bajargan ish natijalarini taqdimot etishadi.

**2-ilova**

#### *Гуруҳларда ишлаш қондаси*

Шеригингизни диққат билан тингланг.

Гуруҳ ишларида ўзаро фаол иштирок этинг, берилган топшириқларга масъулият билан ёндашинг.

Агар ёрдам керак бўлса, албатта мурожаат қилинг.

### 3-ilova

#### *Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlari*

Mezonlar	Maks. ball	Guruh natijalarini baholash				
		1	2	3	4	5
Axborotning to'liqligi	3 b.					
Axborotning grafik shaklda ifoda etilishi	1 b.					
Guruhning faolligi	1 b.					
Ballarning maksimal summasi, jami	5 b.					

### 4-ilova

- ✚ Hozirgi zamon o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar.
- ✚ SHarq mutafakkirlarini o'qituvchi kasbi to'g'risida.
- ✚ O'qituvchi kasbiga xos xislatlar.
- ✚ Pedagogik qobiliyatlar.
- ✚ Didaktik qobiliyatlar.
- ✚ Akademik qobiliyatlar.
- ✚ Perseptiv qobiliyatlar.
- ✚ Nutq qobiliyati.
- ✚ Tashkilotchilik qobiliyati.
- ✚ Avtoretart qobiliyat.
- ✚ Pedagogik hayol.
- ✚ Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati

## Keyslar banki

### **Keys: Pedagogik nizo va uni hal etish yo'llari**

Ma'lum muddat tibbiy davolanishda bo'lib, yangi o'quv yilidan yana qaytadan ishga qaytgan "Pedagogika va psixologiya" kafedrasini o'qituvchisi I.Allabergenov pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi 103 guruhida pedagogika nazariyasi fanidan seminar mashg'ulotini o'tkazayotgan edi. Seminar mashg'ulotida talabalarni kichik guruhlarda ishlashlarini tashkillashtirdi. Talabalar kichik guruhlarda ishlarni davom ettirayotgan bir paytda, mashg'ulot boshlanganiga o'ttiz daqiqa bo'lganida mazkur guruh talabasi A.Petrova eshigini ochib, auditoriyaga kirishga ruxsat so'radi. O'qituvchi esa mashg'ulot boshlanganiga ancha vaqt bo'lganini, u bir necha marotabadan bo'yon kechikib kelayotganini aytib, mashg'ulot vaqtida kechga qolgan talaba A.Petrovaning auditoriyaga kirishiga ruxsat bermadi. Talaba esa, auditoriyadan chiqib ketishni xohlamadi. O'qituvchi undan auditoriyadan chiqib ketishni talab etdi va oxir-oqibat xonadan chiqarib yubordi. Ertasi kuni auditoriyaga kiritilmagan qizning onasi nomidan fakultet dekanatiga shikoyat xati kelib tushdi. SHikoyat xatida talaba-qizning onasi homilador ekanligiga qaramasdan va har qanday holatda ham o'qituvchi talabani mashg'ulotga kiritmasdan, uni turtib auditoriyadan chiqarib yuborgani pedagogik etika zid ish ekanligi, o'qituvchining kompetentligini aniqlash uchun Davlat test markazidan xolis ekspertlar chaqirib, sinovdan o'tkazish va shikoyatga yozma ravishda javob qaytarish, agar kerakli chora ko'rilmasa, yuqori tashkilotlarga murojaat qilishi haqidagi talabni qo'ygan edi. Ertasi kuni fakultet dekani va o'rinbosari I.Allabergenovni bu haqida ogohlantirdi. O'qituvchi esa dekanga u hech qanday ortiqcha harakat qilmagani, talaba qiz hamma vaqt darsga kechikib kelishini aytib qo'pol munosabatda bo'ldi. Bir hafta muddat o'tib, dekan kafedra mudiridan mazkur masalani yig'ilishda muhokama qilib, qaror chiqarib berishni so'radi.

Kafedra majlisida mazkur masala muhokama etildi. Kafedra professor-o'qituvchilari har qanday vaziyatda ham I.Allabergenovni qo'llab-quvvatlashlarini bildirdi. Biroq talaba-qizning homilador ekanligini hisobga olib, undan uzr so'rash haqidagi taklifni kiritishdi. I.Allabergenovga so'z berilganda esa, u pedagoglik odobiga zid hech qanday xatti-harakat sodir etmaganligini, talaba-qizdan uzr so'ramasligini bildirdi. Oradan bir hafta muddat o'tib, I.Allabergenov kafedra mudirining ishdan bo'shamasligi haqidagi iltimosiga karamasdan, o'z arizasiga ko'ra vazifasidan ozod etildi.

YUqorida keltirib o'tilgan vaziyatni tahlil eting. Siz I.Allabergenovning o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz? I.Allabergenovning ishdan bo'shab ketishi to'g'ri bo'ldimi?

## Aniq vaziyatlarni bosqichma-bosqich tahlil etish va hal etish bo'yicha tinglovchilarga uslubiy ko'rsatmalar

Ish bosqichlari va vaqti	Maslahat va tavsiyanomalar
1. Keys bilan tanishish (individual) – 3 daqiqa	Taqdim etilgan aniq vaziyatlar bilan tanishib chiqing. Muammoli vaziyat mazmuniga alohida e'tibor qaring. Muammoli vaziyat qanday masalani hal etishga bag'ishlanganligini aniqlang.
2. Keysdagi asosiy va kichik muammolarni aniqlash (individual va kichik guruhlarda) – 5 daqiqa	Keysdagi asosiy va kichik muammolarni aniqlang. O'z fikringizni guruh bilan o'rtoqlashing. Muammoni belgilashda isbot va dalillarga tayaning. Keys matnidagi hech bir fikrni e'tibordan chetda qoldirmang.
3. Muammo echimini topish va erishiladigan natijani aniqlash – 7 daqiqa	Guruh bilan birgalikda muammo echimini toping. Muammoga doir echim bir necha variantda bo'lishi ham mumkin. SHu bilan birga siz topgan echim qanday natijaga olib kelishi mumkinligini ham aniqlang.
4. Keys echimi uchun taklif etilgan g'oyalar taqdimoti (kichik guruhlarda) – 5 daqiqa	Guruh bilan birgalikda keys echimiga doir taqdimotni tayyorlang. Taqdimotni tayyorlashda sizga taqdim etilgan javdalga asoslaning. Taqdimotni tayyorlash jarayonida aniqlik, fikrning ixcham bo'lishi tamoyillariga rioya qiling.

### Keys echimi uchun taklif etilgan g'oyalar taqdimoti uchun chizma namunasi

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Echim	Natija

### KEYS: ZAMONAVIY PEDAGOGIK ATAMALAR

2011 yilning mart oyida “Pedagogika” kafedrasida “Zamonaviy pedagogik atamalar” mavzusiga bag'ishlangan seminar-trening o'tkazildi. Seminar-treningda hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan “metodika”, “texnologiya”, “interfaol metod”, “strategiya”, “grafik organayzerlar” kabi atamalar tahliliga alohida e'tibor qaratildi. Seminar-treningda pedagogik texnologiyalar sohasiga doir qator izlanishlar olib borgan mutaxassis olimlar taklif etildi.

Moderator birinchi bo‘lib so‘z navbatini “metodika” va “texnologiya” tushunchalari mohiyatini aniqlashtirib berish uchun pedagogika fanlari doktori, professor I.Jo‘raevga berdi. Olim o‘z nutqida “Metodika – qat’iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o‘rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo‘lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, yo‘llari majmuasi”ni, “texnologiya – bu rejalashtirilgan o‘qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi”ni ifoda etadi, degan umumiy fikrni berdi. SHundan so‘ng, “Pedagogika” kafedrasida katta o‘qituvchisi M.Alieva I.Jo‘raevga shunday savol bilan murojaat etdi: “Domla, kechirasiz, sizningcha, metodika va texnologiyaning bir-biridan farqi nimada?”. I.Jo‘raev qisqa qilib “Metodika o‘rgatadi, texnologiya o‘ynatadi” degan javobni berdi. M.Alieva javobni tushunmasdan hayron bo‘lib, indamay qo‘ydi. Olim unga “Nega siz javobdan qoniqmadingizmi?” savol nazari bilan qaradi, M.Alieva esa indamadi. Kafedra o‘qituvchisi G.Qo‘ldosheva M.Alievaga “Nimaga tushunmaysiz, domla aytmoqchilarki, o‘qitish metodikasi talabalarni faollashtira olmaydi, texnologiya esa ta’lim oluvchini faollashtirib, o‘yin asosida mashg‘ulotlarni qiziqarli o‘tishini ta’minlaydi” deb tushuntirgan bo‘ldi.

I.Jo‘raev o‘z chiqishini yakunlagach, moderator so‘zni pedagogika fanlari doktori, professor D.Abdullaevaga berdi va “zamonaviy pedagogik texnologiyalar” haqida ma’lumot berishni so‘radi. D.Abdullaeva bugungi kunda ko‘plab zamonaviy pedagogik texnologiyalar mavjudligi, ularga Aqliy hujum, B-B-B, kaskad, pinbord, klaster, zigzag, tarmoqlar, o‘yinli texnologiyalar kabilar borligini aytib, ularga qisqa-qisqa izoh berdi. D.Abdullaeva so‘zini yakunlagach, dotsent A.Ikromov unga quyidagi savol bilan murojaat etdi: “Ustoz, meni bir savol ko‘p vaqtdan beri qiziqtiradi: “Texnologiya bilan interaktiv metod” tushunchasi bir narsami? Har doim ularni aralashtirib qo‘llayveramiz, shu to‘g‘rimi?”. D.Abdullaeva savolga quyidagicha javob berdi: “Siz manimcha, savolni man yuqorida bir nechta texnologiyani sanab o‘tganimdan kelib chiqib beryapsiz. Ularni “texnologiya” deb aytish ham, “interfaol metodlar” deb nomlash ham mumkin” degan javobni berdi. Javobni eshitgach, A.Ikromov “unda birini qo‘llayversak bo‘lmaydimi?” degan savol nazari bilan qaradi. Unga javoban olimi “Istaganigizni ishlatavering” deb javob berdi. SHu bilan D.Abdullaeva ham chiqishini yakunladi.

Uchinchi bo‘lib so‘z navbati L.Vasiljonovaga berildi. U “Nutq so‘zlashdan avval men sizlarni qiziqtirgan savollarni eshitmoqchiman” degan fikr bildirdi. SHunda qolganlar indamasdan turganda, A.Ikromov “man savol bersam, maylimi?” deb ruxsat so‘radi. Bering, degan ishora qilingach, u “Men hali professor D.Abdullaevaga ham shunga o‘xshash savolni bergandim, sizning ham fikringizni bilmoqchiman: Metod bilan texnologiyani bir-biridan nima farqi bor? Sizni pedagogik texnologiyaga doir kitobingizda keys-stadi, o‘quv loyihasi haqida ma’lumot berilganda, ularga nisbatan ham metod, ham texnologiya so‘zlari qo‘llanilavergan. O‘zi bu tushunchalarni qanday qo‘llash o‘rinli bo‘ladi?”. L.Vasiljonova: “Menimcha, siz D.Abdullaevaning fikrlariga yaxshi e’tibor qaratmabsiz, ular bu tushunchalarning ikalasini ham qo‘llayverish mumkin, deb aytdilar. Men sizga osonroq tushuntirib beraman. Mana e’tibor qarating: men ishxonada Vasiljonova Latofat Abdurashidovnaman, farzandim

uchun onaman, turmush o'rtog'im uchun ayoliman, baribir o'sha Latofatman" degan javobni berdi. Hamma miyig'ida kulib, bir-biriga qarab qo'ydi.

A.Ikromov yana savol berishga ruxsat so'radi. UZR so'ragan holda, L.Vasiljonovaga "Siz kitobingizda grafik organayzerlarni "ta'lim vositalari" deb bergansiz. Men bu fikrga qo'shilmadim. CHunki biz didaktik vositalar deganda kitob, chizma, rasm, jadval, nutq, laboratoriya jihozlari, o'quv qurollarini tushunamiz. Grafik organayzerlarni vosita deb aytish to'g'rimi?" L.Vasiljonova savolga quyidagicha javob berdi: "Grafik organayzerlar tuzilishiga ko'ra chizma, jadval ko'rinishiga ega bo'lganligi uchun ularni "vosita" deb talqin qilganmiz". So'ng A.Ikromovga savol bilan murojaat qildi: "Siz grafik organayzerlarni qanday xarakterga ega deb hisoblaysiz?" A.Ikromov "Grafik organayzerlarni vosita emas, metod deb qo'llash o'rinli bo'ladi" degan javobni berdi. Unga javoban L.Vasiljonova "Siz istasangiz shunday qo'llashingiz mumkin" deb aytdi.

L.Vasiljonova chiqishini tugallaganidan so'ng, moderator umumiy tarzda seminar-treningga yakun yasadi. Kafedra-o'qituvchilarining ko'pchiligi seminar-trening davomida zamonaviy sharoitda keng qo'llanilayotgan tushunchalar haqida aniq ma'lumot olishmaganini o'zaro bir-birlariga sekin-sekin shivirlab qo'yishdi...

**Siz nima deb o'ylaysiz, seminar-trening oldiga qo'yilgan maqsad to'liq amalga oshdimi? Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq holda qo'llanilayotgan tushunchalarning mohiyati etarlicha aniqlashtirildimi? Siz mazkur tushunchalarni qanday izohlagan bo'lar edingiz? Seminar-treningda qaysi tushuncha mohiyatiga umuman e'tibor qaratilmadi? "Metodika" va "texnologiya" tushunchalarini farqlashga doir I.Jo'raev tomonidan berilgan javobga siz qanday munosabat bildirasiz? D.Abdullaevaning o'z nutqida Aqliy hujum, B-B-B, kaskad, pinbord kabilarni texnologiya deb ishlatishi to'g'rimi? L.Vasiljonovaning "metod" va "texnologiya" tushunchalariga nisbatan aytan fikrini qanday baholaysiz? Grafik organayzerlarni "ta'lim vositasi"mi yoki "metod" sifatida talqin etish maqsadga muvofiqmi?**

## **KEYS-STADI: OLIY TA'LIMDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISH**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hay'ati tomonidan 2010 yilning 17 aprelida "Ilg'or pedagogik texnologiyalarni oliy ta'lim ta'lim muassasalarida joriy etishni tashkil etish" to'g'risidagi 3/1 sonli qarori qabul qilindi. Barcha oliy ta'lim muassasalari kabi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ham mazkur qaror ijrosini ta'minlashga doir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Dastlab Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida universitetning 10 nafar o'qituvchisi (uch nafar pedagog, bir nafar psixolog, ikki nafar matematik, bir nafar kasb ta'limi o'qituvchisi, bir nafar tarixchi, bir nafar rassom, bir nafar biolog) to'rt kunlik

trening-ceminarda ishtirok etib kelishdi. Keyin malaka oshirib kelgan o'qituvchilardan guruhlar tashkil etilib, har bir fakultetda to'rt kunlik dastur bo'yicha o'qish tashkil etildi. So'ngra o'qituvchilarga barcha fanlar bo'yicha ikki oy ichida ta'lim texnologiyalarini yaratish vazifasi yuklatildi. Kafedralarda o'qishlar tashkil etilib, o'qituvchilarga ta'lim texnologiyasini yaratish o'rgatildi. Qaysidir kafedralarda o'qitish tizimli tashkil etilgan bo'lsa, ba'zi kafedralarda bir-ikki marotaba trening o'tkazish bilan ish yakunlab qo'yildi. So'ng kafedrada o'qitiladigan fanlar o'qituvchilarga taqsimlanib, universitet o'quv bo'limi tomonidan ko'rsatib berilgan vaqt davomida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlardan ta'lim texnologiyasini yaratish shart ekanligi haqida ko'rsatma berildi. Kimdir vazifani o'zi xohlagan holda, kimdir o'zi tushunmay turib

<b>O'quv mashg'ulotining tuzilishi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'quv kursi va mashg'ulot mavzusiga kirish.</li> <li>2. Avval egallangan bilimlarni mustahkamlash.</li> <li>3. Ma'ruza matnini tarqatish.</li> </ol>
--	--

majburan ishga kirishishdi. Belgilangan vaqt o'tib bo'lgandan so'ng, kafedra mudirlari o'qituvchilardan ta'lim texnologiyalarini olib kelib topshirishni talab qilisha boshlashdi. Biroq o'qituvchilar belgilangan vaqt tugab bo'lgan bo'lsa ham ta'lim texnologiyasini tugallay olishmadi. Ayrim fan o'qituvchilari yarim-yorti tarzda yaratishgan bo'lsa, ayrimlari umuman topshiriqni bajarishmagan edi. Kafedra mudirlari o'qituvchilardan bajarishni qattiq talab qila boshlashdi. Kafedra mudirlari o'qituvchilar uchun har majlisda gap eshitib yurmasligini, kimki o'z vaqtida bajarmasa, o'sha o'qituvchini biriktirilgan fandan dars berishdan mahrum qilishlarini aytib, ularga bosim o'tkaza boshlashdi. Turli ta'na-dashnomlar ostida o'qituvchilarning ko'pchiligi ta'lim texnologiyasini yaratishni jadallashtirdi, ayrimlar esa fandan dars o'tmaslikka ham rozi bo'ldilar. Bu orada o'quv-metodik boshqarmadan ta'lim texnologiyalarini to'plashga mutaxassisligi fizik-matematik bo'lgan mas'ul tayinlandi. Mas'ul rahbar yaratilgan texnologik ishlanmalarni olib kelib topshirishni talab qila boshlashdi. Avvaliga ta'lim texnologiyalarini elektron va qog'oz variantda kafedra mudirlarining o'zlari o'quv-metodik boshqarmaga olib borishdi. Xato bajarilgan deb qabul qilib boshlangandan so'ng, har bir fan o'qituvchisi o'zi ishni topshirishga harakat qila boshlashdi. O'qituvchilar ta'lim texnologiyalarini qabul qilishda universitet bo'yicha mas'ulning oldiga borganlarida topshira olmasdan qayta boshladilar. Ularning deyarli barchasiga "Ta'lim texnologiyasi modeli"ning uchinchi bandi - "o'quv mashg'ulotining tuzilishi" (1-rasm)ni noto'g'ri bajargansiz degan ayb qo'yildi. O'qituvchilar mas'ulga ularga berilgan namunada shunday yozilganligini aytishganda, "yo'q, u bandeda mashg'ulot rejasini kiritasizlar" (2-rasm) degan talab qo'yildi.



	<p>4. Taqdimot texnologiyasi asosida ma'ruzani taqdim etish.</p> <p>5. Mavzuning asosiy tushunchalarini aniqlashtirish.</p> <p>6. Mavzuni yakunlash.</p>
<b>Mashg'ulotning rejasi</b>	<p>5. Pedagogika fanining ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalari.</p> <p>6. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari.</p> <p>7. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.</p> <p>8. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.</p>

**1-rasm. O'qituvchilar tomonidan bayon qilingan o'quv mashg'ulotining tuzilishiga doir ko'rsatma**

**2-rasm. Ta'lim texnologiyasini qabul qilishga doir mas'ul tomonidan taklif etilgan variant**

O'qituvchilarning hammasi shu tariqa qaytadan ta'lim texnologiyasini ishlashga kirishishdi. SHu bilan barobar ular trening mashg'ulotlarini o'tkazgan o'qituvchilarga mas'ul tomonidan ko'rsatilgan kamchilik yuzasidan arz qilib, "Siz bizga bunaqa deb tushuntirmagan ediz-ku?!" degan savolni ham berib ulgurishdi. Xullas, hamma mashg'ulotning tuzilishini o'rniga mavzu rejasini

<b>Mashg'ulotning rejasi</b>	<p>1. Pedagogika fanining ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalari.</p> <p>2. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari.</p> <p>3. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.</p> <p>4. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.</p>
------------------------------	---

qo'yib chiqishdi.

O'qituvchilarga mas'ul tomonidan ko'rsatilgan ikkinchi kamchilik mashg'ulot rejasi nechta bo'lsa, pedagogik vazifalar va kutiladigan natijalar ham shuncha miqdorda (mashg'ulot rejasida to'rtta masala mavjud bo'lsa, pedagogik vazifalar miqdori to'rtta bo'lishi) yozilishi haqida bo'ldi (3-4 rasmlar).

<p><b>Pedagogik vazifalar:</b></p> <p>1) pedagogika fanining ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalarini aniqlashtirish;</p> <p>2) pedagogika fanining asosiy kategoriyalarini ajratib ko'rsatish;</p> <p>3) pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini bayon etish;</p> <p>4) pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini ajratib ko'rsatish.</p>	<p><b>O'quv faoliyati natijalari:</b></p> <p>1) pedagogika fanining ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalarini bilib oladilar;</p> <p>2) pedagogika fanining asosiy kategoriyalarini o'zlashtiradilar;</p> <p>3) pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini taqqoslaydilar;</p> <p>4) pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlariga doir tasavvurlarga ega bo'ladilar.</p>
---	--

**3-rasm. Kirish ma'ruzasi bo'yicha mas'ul tomonidan taklif etilgan pedagogik vazifalar va o'quv faoliyati natijalari**

**4-rasm. Kirish ma'ruzasi bo'yicha o'qituvchilar tomonidan loyihalangan pedagogik vazifalar va o'quv faoliyati natijalari**

Mas'ul tomonidan berilgan keyingi kamchilik ma'ruza matnini ta'lim

<p><b>O'quv mashg'ulotining tuzilishi</b></p>	<p>1. O'quv kursi va mashg'ulot mavzusiga kirish.</p> <p>2. Avval egallangan bilimlarni mustahkamlash.</p> <p>3. Ma'ruza matnini tarqatish.</p> <p>4. taqdimot texnologiyasi asosida ma'ruzani taqdim etish.</p> <p>5. Mavzuning asosiy tushunchalarini aniqlashtirish.</p> <p>6. Mavzuni yakunlash.</p>
<p><b>Pedagogik vazifalar:</b></p> <p>5) fanning tuzilishini sharhlash;</p> <p>6) fan miqyosidagi metodik va tashkiliy ishlarning xususiyatlari, muddati va baholash mezonlari bilan tanishtirish;</p> <p>7) fanning ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalarini aniqlashtirish;</p> <p>8) fanning asosiy kategoriyalarini ajratib ko'rsatish;</p> <p>9) fanning metodologik asoslarini ochib berish;</p> <p>6) fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligini bayon etish.</p>	<p><b>O'quv faoliyati natijalari:</b></p> <p>5) fanga ajratilgan umumiy soatlar, ularning auditoriya va auditoriyadan tashqari vaqtda taqsimlanishi, fanning modul-bloklari haqida tushunchaga ega bo'linadi;</p> <p>6) fan bo'yicha mashg'ulotlarning borishi, BKMLarni nazorat qilish turlari, shakl, metod va vositalari, nazoratlarni o'tkazish vaqti va baholash mezonlari haqida aniq tasavvurlar shakllantiriladi;</p> <p>7) fanning ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalarini bilib oladilar;</p> <p>8) fanning asosiy kategoriyalarini o'zlashtiradilar;</p> <p>9) fanning metodologik asoslariga doir tasavvurlar hosil qilinadi;</p> <p>10) fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligini taqqoslaydilar.</p>

## **Pedagog faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolar bilan bog‘liq vaziyatlar**

### **1-Keys**

Pedagogika va psixologiya fakultetining o‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari professor-o‘qituvchilarni bir marotaba mashg‘ulotga kelmagan talabani oraliq nazorat kiritmaslik haqida ogohlantirdi. Professor-o‘qituvchilardan ayrimlari dekan o‘rinbosarining ko‘rsatmasiga asosan, bir marotaba mashg‘ulotga kelmagan talabalarni ham oraliq nazoratga kiritmadi. Ayrim o‘qituvchilar uch-to‘rt marotaba mashg‘ulotga kelmagan talabalarning ham oraliq nazoratni yozishlariga ruxsat berdi.

Noyabr oyida bo‘lib o‘tgan “Pedagogika” kafedra majlisida ham talabalarning davomat masalasi muhokama qilinib, qoldirilgan mashg‘ulotlarni o‘zlashtirish uchun qayta topshirish qanday amalga oshirilayotganligi muhokama etildi. Professor-o‘qituvchilardan biri qoldirilgan mashg‘ulotlar uchun qayta topshirishni olmasligi, talaba qancha mashg‘ulotga qatnashmaganligidan qat’iy nazar, oraliq nazoratga kirishi mumkinligi va mashg‘ulotlarni qoldirganligi uchun oraliq nazoratga kirishga ruxsat berilmasligi “Reyting to‘g‘risida”gi Nizomda ko‘rsatilmaganligini bayon etdi.

YUqorida keltirilgan vaziyatga aniqlik kiriting. Aniq vaziyatda aks etgan asosiy muammo va kichik muammolarga oydinlik kiriting.

### **2- Keys**

Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi 102-guruhi talabalaridan 8 nafari hamma fanlardan besh bahoga sessiyani yopayotganligini, faqat pedagogika nazariyasi fanidan ularning uch nafariga uch baho, to‘rt nafariga to‘rt baho qo‘yilayotganligini aytishdi. O‘qituvchidan esa, ularga besh baho qo‘yib berishni so‘radi. O‘qituvchi esa, bu holatni o‘rganib chiqishni zarur, deb topdi. Xuddi shu guruhga darsga kiradigan ikkita o‘qituvchidan “besh” baho so‘rab kelgan talabalar haqida so‘rab ko‘rdi. O‘qituvchilar mazkur talabalar boshqa fanlarning hammasidan besh olganmiz, deb ulardan baho qo‘ydirib olganligini aytishdi.

Mazkur vaziyatni aniqlik kiriting. O‘qituvchi mazkur vaziyatda qanday yo‘l tutishi lozim. Aniqroq qilib aytganda, o‘qituvchi qat’iy ravishda o‘z nuqtai nazarini saqlab qolishi kerakmi, yoki tolerant yondashuv asosida ularga so‘ragan bahosini qo‘yib berishi lozimmi?

**1-masala.** Dars jarayonida o‘quvchilar bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnatilmadi. O‘quvchilar o‘zining o‘qituvchiga nisbatan hurmatsizligi dars davomida yaqqol ko‘zga tashlandi.

Ana shunday jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan muloqotni qay tarzda tiklashi mumkin?

**2-masala.** Guruhingizda xulqi og‘ir sinfdoshingiz bor, uning hatti – harakatlari darsning bo‘lishiga yoki ko‘proq o‘qituvchilarning nasihatlarini bilan dars yakun topadi. Bu kimlar uchundir quvonchlidir, yana kimlar uchundir qayg‘ulidir. Ushbu sinfdoshingizning hatti – harakatlarini qay tarzda to‘g‘rilash mumkin?

**3-masala.** Bitiruv kechasi chiroyli bo‘lishi uchun o‘quvchilarning ota-onalari va o‘qituvchilar bilan kelishilgan holda ma‘lum miqdorda pul yig‘iladigan bo‘lishdilar. Lekin ushbu pul miqdori nafaqat sizni balki ba‘zi o‘quvchilarning

ota-onalari ham sharoiti ko'tarmasligi tufayli majlisda ikkiga bo'linish yuzaga keldi va bir qarorga kelisha olmadilar.

Ushbu jarayonda o'qituvchi qanday yo'l tutishi lozim?

**4-masala.** 5-sinf o'quvchisi Akbar otasi vafot etgani sababli darsdan so'ng onasiga yordamlashib, ukalariga qarar edi. SHu sababli u hamma darslari to'liq bajara olmas edi. Tarix fanidan yangi kelgan o'qituvchi Akbarni doskaga chiqardi. U dars tayyorlay olmaganini aytdi. O'qituvchi: " SHu oddiy vazifani bajara olmadingmi? Bunchalar ham ma'sulyatsiz bo'lasanmi? Bu ketishingda sendan farrosh ham chiqmaydi" – dedi. Bu voqeadan so'ng Akbar bu darsga qatnamay qo'ydi. Baho esa uni umuman qiziqtirmas edi. Akbarni bu vaziyatga tushib qolishiga kim sababchi?

**5-masala.** Bitiruvchi sinf o'quvchilari Dilnoza Dildora doimo birga yurishar va inoq do'st edilar. Dilnoza badavlat oila farzandi bo'lib hamma bilan ham gaplashavermas edi. Dildoraning esa do'stlari ko'p bo'lib hatto boshqa sinflarda ham bor edi. Dilnoza dugonasining bu hislatini (muomalaga kirishib keta olish) ko'ra olmas edi. SHunday kunlarning birida u dugonasi to'g'risida to'qigan yolg'onini sinf rahbariga juda ishonchli tarzda aytdi. Sinf rahbari Dildora bilan gaplashmay qo'ydi. Unga nisbatan yashirin nafrati kundun-kunga ortdi. YAkuniy imtihonlarda ijobiy natijalarga erishsa ham, sinf rahbari unga past baho qo'ydi. Dildora bu voqeani asl sababini tushunmay aybni o'zidan ahtara boshlaydi. SHuning natijasida kelajakda Dildora o'ziga ishonchini yoqotadi.

**6-masala.** 8-sinf o'quvchisi Nodir kam ta'minlangan oila farzandi bo'lganligi uchun sinfdagi tashkiliy ishlarga har doim ham qo'shila vermas edi. Kino, teatr va muzeylarga deyarli bormas, sinf to'lovlarini ham vaqtida to'lay olmas edi. SHunday kunlarning birida sinfni ta'mirlash uchun pul yig'ilayotganida Nodir vaqtida pulni olib kela olmadi. SHunda o'qituvchi "Seni pullaringsiz ham sinf ta'miri bitadi. O'zi bu sinf uchun nima ish qilgansan. Aslida foydangdan ko'ra zararing ko'proq. O'tir joyingga" – deb hammaning oldida izza qildi. Nodir shunday oilada tug'ilganidan, shu sababli o'qituvchisi hammaning oldida izza qilganidan qattiq ranjidi. Natijada Nodir hammaga nafrat ko'zi bilan qaray boshladi. Uni to'g'ri yo'lga qaytarish uchun kimlar bu ish bilan shug'ullanishilari kerak.

**7-masala.** Bobur boshlang'ich sniflarda a'lo baxoga o'qigan lekin kiyinchalik uning o'zlashtirishi pasayib ketadi snif raxbari bu vaziyatni uning ota-onasidan so'rashtirganda bir galgi dars tekshirishdan keyin arzimagan xato tufayli otasi qttiq jazolaganini aytadi Bobur ulardan o'ch olish maqsadida shu yo'lni tanlagan. Snif raxbariga maslaxatingiz.

**8-masala.** Zarif sportga juda qiziqganligi uchun darsda befarq sinf raxbari uning otasidan bu masala bo'yicha chora ko'rishini talab qiladi otasi esa uni jazolab darsda yaxshi qatnashib a'loga o'qishini talab qiladi. Zarif darsga yuzaki qarab faqat yaxshi baxo olish uchungina o'qiydi. Bu masalada otasi va ustoz to'g'ri yo'l tutdimi.

**9-masala.** Ilgari qalin do'st bo'lgan ikki o'rtoq urishib qolishadi va buning natijasida sinfda bir-biriga qarshi bo'lgan o'g'il bolalar guruxi paydo bo'ladi. Bu vaziyatda sinf raxbariga maslaxatingiz. Guruhda o'zlashtirishi past va biroz tarbiyasiz o'quvchi bor. U bilan gaplashish befovdaligini bilib ota-onasini chaqirdingiz lekin ular ham kelmadi. Bu o'quvchi bilan jiddiy shug'ullanmasa bo'lmaydi. Bunday vaziyatda qanday yo'l tutasiz?

**10-masala.** Dars paytida, ikkita o'rtoq arzimagan narsaning ustidan urush boshlashdi. Ular janjallariga o'qituvchilar va ota-onalar aralashdi. Bu janjalni bartaraf qilib, bolalarni yarashtirish uchun qanday chora tutish lozim? Darsda ikkita o'quvchi janjallasha siz o'qituvchisiz, qanday yo'l tutasiz?

**11-masala.** Guruhingizda darsda ko'p qatnashmaydigan talaba bor. U bilan suhbat qilganingizda oilasi nochor holda yashganligi uchun u ishlashga majbur ekanligini, o'qishga qatnashishi iloji yo'qlini aytdi. SHunda siz qanday yo'l tutasiz?

**12-masala.** Bir sinfda o'qiydiga ikki o'rtoqlar bor edi. Ulaning biri yaxshi o'qir va barcha uy vazifalarini o'z vaqtida bajarib borardi. Uning o'rtog'i esa o'zlashtirishi past bo'lib doimo o'rtog'idan ko'chirishga urinardi. O'qituvchisi buni sezib a'lochi o'quvchisining o'rtog'iga ko'chirtirmasligini tayinlaydi. SHunda uning boshi qotti. Ko'chirishga bermasa o'rtog'i bilan xafalashib qoladi, agar bersa o'qituvchi uni ham jazolaydi. U nima qilishi kerak? O'qituvchi-chi?

**13-masala.** Kasb hunar kollejarining biridagi o'quvchilar yangi yil bayramini nishonlash uchun bazm tashkil qilmoqchi bo'ldilar va bo'ladigan harajatlar uchun pul pul yig'a boshladilar. SHu guruhda o'qiydigan bir o'quvchi bu pulni berishga qurbi etmasligini aytib bazmga qatnashishdan bosh tortdi. Guruhdagilar esa uni ham qo'shilishga majbur qilishdi. Bu guruhimiz bayrami unda hamma qatnashishi kerak deyishdi. U esa oila a'zolarining pul topib berishga majbur ekanligini aytdi. Uning ota-onasi esa bunda kollej rahbarlarini ayblab ularga sizlar aytgansizlar deb aytganlar. Vaziyatdan behabar rahbarlar buni eshitib bazmni qoldirdilar va o'tkazishni taqiqladilar. Guruhdagilar esa bo'lib o'tgan ishlarda o'sha o'quvchini ayblab, uni yog'izlatib qo'yishdi. Bunday vaziyatda ayibdor kim va u qanday hal etiladi?

**14-masala.** Zolimligi bilan nom chiqargan Hajjoji zolim aqlli bir xotinning erini, o'g'lini va akasini bandi qiladi. Ayol yig'lab, faryod qilib Hajjojning oldiga keldi.

Hajjoj:

- Bu uch kishidan birini avf etaman. YAxshilab o'ylab ko'r. Qaysi birining ozod bo'lishini xohlaysan? Eringnimi, o'g'lingnimi, akangnimi?- dedi. Ayolning qanday oqilona javobi va to'g'ri so'zligi Hajjojga qattiq ta'sir qildi. va:

- Hammasini kechirdim, sen ulardan birini kechirishimni so‘rab to‘g‘ri so‘zladim. Sening aqlli va to‘g‘ri so‘zliging menga yoqdi, - dedi. Va ularning hammasini birdan ozod etdi.

**15-masala.** YUqori sinf o‘quvchisi Zarina o‘qishi davomida do‘q – po‘psalarga va haqoratlariga to‘la anonim xatlar ola boshlaydi. Bu xatlarni u yig‘i aralash o‘qituvchilariga va dugonalariga ko‘rsatadi, ulardan yordam berishlarini va himoya qilishlarini iltimos qiladi. Tekshirishlar tezda shuni ko‘rsatadiki, bu xatlarni Zarining o‘zi o‘ziga yuborarkan. Zarining bunday vaziyatlarni yaratishiga nimalar sabab bo‘lgan?

**16-masala.** Injener Zafarning oilasida ikkinchi farzand, o‘g‘il bola, uning opasi 12 yoshga kirganda tug‘ilgan. Qizcha ota – onasiga so‘zsiz bo‘ysungan holda tarbiyalandi, hech qachon biron narsada qarshi turishga urinib ko‘rmadi. Aftidan, bunga biron – bir sabab yo‘qday edi – ota – onalarining talablari mutlaqo bama’ni edi. Biroq bu talablarni bola oldiga qo‘yilishida ular shafqatsizligi hiyol e’tirozlarga murossasizligi bilan ajralib turardi. Ota – onalar o‘g‘ilni tarbiyalashga ham huddi ana shu muomala uslubini tanlab olishdi. Lekin ko‘p o‘tmay, qizchada itoatkorlikka undagan narsa o‘g‘ilda indamasdan, lekin shiddatli qarshilik bilan kutib olindi. Buning qachon boshlanganini aytish qiyin, lekin ota–onalarining o‘zlari buni bola buvisinikida mehmon bo‘lgan davr bilan bog‘lashadi. Ammo bunday holatlar maktabning birinchi sinfidayoq boshlangan edi. Bola odamovi, qo‘pol va shubha bilan qaraydigan bo‘lib qoldi. Oltinchi sinfda birinchi marta uydan qochib ketadi. Sakkizinchi sinfda yana shu holat takrorlanadi va bu gal uyga umuman qaytib kelmaydi. Psixolog bolaning ota – onasi bilan suhbatda ular shunday fikrni ta’kidlashardi. Biz bolalarimizni bir hil tarbiyaladik qizim bizni baxtli qildi, nevaralarim bor. O‘g‘lim esa bizni sharmanda qildi degan fikrni aytishdi. Bolaning uyidan qochib ketishiga sabab nimada deb o‘ylaysiz?

**17-masala.** –Qizim, sen, menga o‘xshab kelesakda o‘qituvchi bo‘lishingni orzu qilaman.

- Oyjion men bu sohadan borishni xohlamayman.
- Nima uchun?
- Yosh jonimga nima keragi bor o‘qituvchi bo‘lib.
- Seni o‘zi hayotda bir maqsading bormi?
- Maqsad! Maqsad nima o‘zi?
- Ax, qizim-a. Ba’zida o‘ylab qolaman, shu qiz meni vujudimdan yaralganmikan deb.
- Oyi, menga qaerdagi safsataboz gaplarni aytib boshimni qotirasiz-a.
- O‘zingdan chiqqan baloga qayga boray davoga?

Ziyoli insonning farzandi shunday badaxloq bo‘lishiga kim sababchi?

**18-masala.** – Ustoz nega meni baholarimni past qo‘ydingiz, yaxshi o‘qisam, Umirov mendan past o‘qisa-da, unga 5 baho qo‘ydingiz.

Bu vaziyatni tahlil qiling. Bunday paytlarda mahoratli pedagoglar qanday yo‘l tutishlari kerak?

**19-masala.** Dars jarayonida o'qituvchi hammaga uyga vazifani tekshirishini aytdi. Sardor ismli o'quvchi darsda jim o'tirmay, sho'xlik qildi. O'qituvchi unga ko'p marotaba tanbeh berdi. U ogohlantirishlarga qaramay, jim o'tirmadi. O'qituvchi uning yoniga kelib;

- Qani daftaringni och. Nega uyga vazifani bajarmading?
- YOzgim kelmadi, yozmadim.  
O'qituvchining jahli chiqib, uni darsdan chiqarib yubordi.  
Bu vaziyatda o'qituvchining tutgan yo'li to'g'rimi?

**20-masala.** - Bugungi darsimiz takrorlash hisoblanadi. Qani kim javob beradi? Sitora, nega sen telefon o'ynab o'tiribsan? Yig'ishtirib qo'y.

- Nima ishingiz bor, telefon menikimi yoki siznikimi? Menga hech kim xo'jayin emas.

Vaziyatni tahlil qiling.

**21-masala.** O'qituvchining kiyinishi juda oddiy. Hozirgi zamonaviy talaba o'quvchilar bunday o'qituvchilarni mensimasligi, gapiga kirmasligiga qanday qaraysiz.

**22-masala.** Kursda guruhlar paydo bo'la boshlasa. Siz bu vaziyatga qanday qaraysiz?

**23-masala.** Bir talaba qizni Yosh o'qituvchi yoqtirib qoldi. Bu juda tez hammaga ovoza bo'lgani sababli, qiz darslarga kelishga tortinib, tengqurlaridan ajralib qoldi.

Bu vaziyatni qanday tahlil qilgan bo'lardingiz?

**24-masala.** Agar o'qituvchi ota-onalar majlisiga kech qolib kelsa – bu JINOYAT. Agar ota-onalar yig'ilishga kech qolishsa bu – SABAB.

Quyidagi fikrga qanday qaraysiz?

**25-masala.** Maktabda bo'yanib yuradigan qizlar va chekib yuradigan o'gil bolalar bilan qanday shug'ullanish mumkin?

**26-masala.** O'qituvchi bir o'quvchi gap qaytargani uchun qo'l ko'tardi. Ma'lum vaqtdan keyin o'sha o'qituvchini ishdan bo'shatildi.

Vaziyatni tahlil qiling.

**27-masala.** Farhod o'qishdan kelib choy taxlashga o'rindi. U endigina 9 yoshga to'lgan edi. Farhodning otasi ishdan kech qaytardi. Uning onasi Fotima opa uy-ishlaridan kechgacha ortmas, bu orada opa 2 yashar qizi Zaxroga ham qarab charchab ketar edi. Chunki Zaxro juda injiq va nimjon bo'lgani uchun ko'p kasal bo'lar edi. Ota-onasining barcha e'tibori kichik Zaxro tomon qaratilgani Farhodning jahlini chiqarar va rashkini keltirar edi. Bir tomondan buvisining Farhodga qiladigan nasihatleri, o'gitlari uni uylashga, mulohaza qilib, senglisi Yosh bo'lgani uchun unga ko'p e'tibor kerak degan xulosaga kelardi. Ammo buvisi onasiga ko'p tanbeh berishi Farhodni bezota qilib qo'yar edi. Farhodning uyidagi bu holat uning o'qishiga ta'sir qilmay qolmadi. Oldingi quvnoq, jim deganga quloq solmaydigan o'yinqaroq bola, endi har narsaga harxasha qilar edi. Oilaning bunday holatga kelib qolishiga sabab nimada deb o'ylaysiz?

**28-masala.** Dilfuza uyiga yig'lab keldi. Ota-onasining yolg'izi, oq-u qorasi bo'lgan, Dilfuzani ota-onasi avaylab-asrashar edi. Dilfuzani onasi Nazira opa undan qancha so'rab-so'rishtirmasin, u hech narsa aytmadi. Bu holat Nazira

opaga tinchlik bermadi. Dilfuzani maktabda Lobar degan sinfdoshini o'ziga yaqin olishini bilardi. SHuning uchun Lobardan bo'lib, o'tgan voqeani so'rab-so'rishtirdi. Kimyo darsida o'tkazilayotgan laboratoriyada qo'shmaslik lozim bo'lgan suyuqlikni qo'shib yuborgani uchun uni o'qituvchisi qattiq o'rishgani va bunga qo'shimcha bo'lgan sinf rahbarini tarbiyaviy soatda bergan tanbehiga chiday olmasdan gap qaytarib, yomon so'zlar bilan haqoratlab eshikni yopib chiqib ketganini aytdi. Nazira opa yolg'iz oq-u qorasi bo'lgan Dilfuzani hech kimga xafa qildirib qo'ymayman deb jahl ustida o'qituvchilarga nimalar deganini bilmay qoldi. Dilfuza bo'lib o'tganlarini eshitib o'zida ham xato o'tganini, onasini qilgan ishini tushunishga harakat qildi. Ammo endi maktabga qanday borishi, o'qituvchilari va o'quvchilarining oldida kim degan odam bo'lganini o'ylab siqilar edi. Dilfuza bu vaziyatda qanday yo'l tutishi to'g'ri bo'ladi?

**29-masala.** Oilasida kam ta'minlangan bolalar mavjud sinfda rahbarsiz. Siz uning oilaviy sharoitidan behabar tarzda uni butun o'quvchilar oldida pul olib kelishi haqida gapirib uyaltirdingiz. Bunday hal bo'lganidan keyin o'quvchi darsga kelmay qoladi. Uyiga borib uzr so'rab maktabga borishini aytsangiz ham darsga kelmay qoldi. Bunday holda qnday munosabat bildirasiz?

### **Mustaqil ta'lim mavzulari**

#### **Mustaqil ish bo'yicha ko'rsatmalar**

#### **1.Maktab o'quvchisiga psixologik xarakteristika tuzishga doir uslubiy tavsiyalar**

Talabalarning pedagogik amaliyoti «Talim to'g'risida» qonuni. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talabalari asosida tashkil etiladi va oliy pedagogik ta'lim tizimida muhim o'rin egallaydi. Pedagogik amaliyot davrida talabalarning nazariy bilimlari chuqurlashuvi va mustahkamlanishidan tashqari.Ular pedagogika mehnat ko'nikma va malakalarini ham xosil qiladilar.Amaliyotchi talabalar ta'lim tarbiya jarayonini kuzatadi.Uning mohiyati va mazmunini chuqurroq anglab oladi, uni amalga oshirishda bevosita ishtirok etadi,eng muhimi o'quvchilar bilan pedagog sifatida munosabatda bo'ladi, sinf jamoasini, jamodagi o'quvchilarshaxsini o'rganadi.

Pedagogik amaliyot davrida amaliyotchi talabadan o'quvchi shaxsiga va sinf o'quvchilar jamoasiga psixologik-pedagogik xarakteritsika tuzish talab qilinadi. Maktab o'quvchisiga psixologik xarakteritsika tuzish ilmiy tadqiqot xarakterida bo'ladi. SHu boisdan amaliyotchi bu ishda bir qancha tadqiqot metodlaridan uslubiyatlaridan foydalanadi.

Psixologik tadqiqot metodlaridan kuzatishdir. Kuzatish muayyan soxaga tegishli ruhiy xodisani tizimli ravishda imtiyoziy idrok qilishdir. Kuzatuvchanlik qobiliyati, esa tegishli ob'ektni kuzatishga layoqatli bo'lish, uni aniq maqsadga muvofiq rejali qilishdan iborat.

Amaliyotchilar o'quvchilar shaxsini ta'lim-tarbiya jarayonining turli sharoitlarida (darsda, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, sinf va maktab o'qo'vchilari jamoasi faoliyatida, jamoat ishlarida, oilada va hokoza). Kuzatish



va ma'lumotlar to'plashi mumkin. Kuzatish jarayonida o'quvchlar psixik taraqqiyotining muhim jihatlari uning ehtiyoj va intilishlari, qiziqishlari va his-tuyg'u (emotsional) xususiyatlari irodaviy, aktivligi, mutsaqilligi, tashabbuskorligi, o'zini anglashi puxta bilishi, fikr yuritishi va nutq xususiyatlari, xarakter xislatlari, qobiliyati, temperamenti va boshqa individual-psixologik xususiyatlari haqida ma'lumotlar tuplaydi. Kuzatish ob'ektiv sharoitda olib boriladi.

Tadqiqot metodlaridan yana biri suxbatdir. O'quvchi shaxsini o'rganish uchun kuzatish materiallarining o'zi kifoya qilmaydi. Shu sababli amaliyotchi-talaba o'quvchining o'zi va jamoa faoliyati tug'risidagi fikr mulohazalaridan ham foydalanishi mumkin.

Psixologik xarakteritsika tuzishda faoliyat-samaralarining ahamiyati katta. O'quvchi faoliyatining natijalari (yozma ishlari, yasagan buyumlari va hokoza). Muhim ma'lumot beradi, bu ma'lumotlar kuzatish materiallarini to'ldiradi va boyitadi.

O'quvchiga xarakteritsika tuzishda maktab xujjatlaridan foydalanish kerak. Maktabda psixologik xizmat ko'rsatish xodimi bilan suxbatlashish maslaxatlashish kerak. Maktab olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini aks ettiruvchi xujjatlar (sinf jurnallari, o'quvchi shaxsiga oid materiallar, kundalik daftarlari, pedagogik kengash qaror bayonlari) o'quvchilar to'g'risidagi ma'lumot-manbai bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodlaridan biri eksperimentdir. Bu metod psixologik tadqiqotlarda muxim o'rin ogan va ko'p qo'llaniladi. Agar maktabda sharoit bo'lsa, diqqat, idrok, tafakkur, xotira va boshqa psixik funktsiyalarning xossalari eksperimental usul bilan laboratoriyada asboblarda yordamida yoki tabiiy sharoitlarda (odatda o'qish yoki tarbiyaviy ish jarayonlarida o'rganiladi).

Psixologik xarakteristikaning xulosa qismi pedagogik amaliyot davrida o'quvchi shaxsini o'rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishining yakuni bo'ladi. Xarakteritsika oxirida o'quvchining muhim shaxsiy xususiyatlari, o'quv predmetlarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni, uning sabablari va bartaraf qilish yo'llari hamda ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlar to'g'risida tegishli tavsiyalar beriladi. qo'yidagi maktab o'quvchisiga psixologik xarakteritsika tuzi shva sinf jamoasiga psixologik xarakteritsika tuzish yuzasidan amaliyotchi talabalarga namunali tavsiya etiladi.

\_\_\_\_\_ nomli № \_\_\_\_\_ maktab  
\_\_\_\_\_ sinf o'quvchisi

\_\_\_\_\_  
(ismi, sharifi, otasining ismi)

O'quvchining jismoniy kamolati va salomatligi.

O'quvchi shaxsining yo`nalishiga oid xususiyatlar-g'oyaviy yo`nalishi ideallari, qiziqishi, kasb-kor tanlash va uning motivlari.

Temperamentiga \_\_\_\_\_ oid \_\_\_\_\_ xususiyatlar \_\_\_\_\_ nerv-psixik jarayonining kuchli, kuchsizligi, muvozanatli-muvozanatsizligi, ildam-sutslilik sifatleri, ularning o'quvchi xulqida namoyon bo'lishi.

Xarakterga oid xislatlar-odamlarga, o'ziga, mehnatga, buyumlarga, o'z burchiga va tabiatga munosbat xislatlari.

Xissiyotga oid xususiyatlar-emotsional xislatlar, xissiyotning qo'zg'alish tezligi, barqarorligi, kayfiyatlari va hokoza.

Irodaviy sifatlar maqsadga intilish, o'zini tutishi, aktivlik, mutsaqillik, qat'iyat, chidam va mintaqiyat xislatlari.

Bilim-tajribaga oid sifatlar-o'quv predmetlarini o'zlashtirish, bilimning puxtaligi, ularni amaliy ishlarda tadqiq qila olishi, ko'nikma va malakalari, ularning puxtalik darajalari.

Ayrim psixik funksiyalarga oid xususiyatlar;

a) Idrok-kuzatuvchanlik vaidrokning boshqa sifatleri.

b) diqqat-diqqatning taqsimlanishi, ko'chishi, barqarorligi, parishonxotirlik va xakoza.

v) xotira-xotira turlari. Esda olib qolish va unutish tezligiga ko'ra xotira tiplari.

g) Tafakkur-fikrlash ildamligi, mantiiqiyiligi, keng va mazmundorligi, tanqididyligi va hakoza.

d) Nutq- o'quvchi nutqining boyligi, ifodaligi, izchi ligi, kommunikativ xususiyatlari.

9. Xulosa.

## **2.SINF JAMOASIGA PSIXOLOGIK XARAKTERISTIKA TUZISH.**

Sinf jamoasi haqida umumiy ma'lumot sinf jamoasi sotsavi-safi (o'quvchilar soni, o'g'il bolalar, qizlar).

Sinf jamoasining g'oyaviy yo'nalishi.

Sinf jamoasi oldidagi xozirgi va itsiqboldagi ko'zlangan maqsadlar, ularni amalga oshirishda o'quvchilarning birdamligi.

Sinf jamoasidagi an'analar, yangi an'analar.

O'quvchilarning qiziqishlari (bilimga, texnikaga, san'atga va hakoza).

Kasb-kor tanlash va uning motivlari;

Sinf jamoasida uyushqoqlik, tashabbuskorlik, ishchanlik.

### **JAMOADA SHAXSLARARO MUNOSABAT**

SHaxslararo munosabat tizimi (ish yuzasidan va shaxsiy munosabatlar)

Jamoa liderlari-raxbarlari (sinf raxbari, kamolat etakchisi xodimlari).

Fiziologik va psixlogik moslik.

Do'tslik munosabatlari, ahillik, bir-birini qo'llash, o'g'il bolalar bilan qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlar.

O'qi shva ijtimoiy foydali mehnat munosabatlari va hakoza.

Jamoa faolitada ayrim psi xik funksiyalarning namoyon bo'lishi.

Idrok- kuzatish va kuzatuvchanlik, analitik-sintetik va emotsional idrok xususiyatlari.

Diqqat-diqqatning taqsimlanishi, ko'chishi, kuchi va barqarorligi parishonxotirlik va hakoza.

Xotira-xotira turlari, materialni esda olib qolish va unitish tezligiga ko'ra xotira tiplari.

Tafakkur-tafakkurning ildamligi, mantiqiyliigi, kengligi, chuqurligi, mazmundorligi va tanqidiyligi.

Nutq-nutqning kommunikativ xususiyatlari (kishilar gapdonlik va hakoza). Nutq uslubi (ilmiy), adabiy-badiiy, ish va turmushga oid.

### **BILIM EGALLASH VA MEHNATGA MUNOSABAT.**

Sinf o'quvchilarning o'zlashtirish, bilim egallashdagi yutuq va kamchiliklar, ularning sabablari (sunra 2-3 yil ichida o'zlashtirish).

O'quv va ijtimoiy foydali mehnatga munosabat, onglilik, faollik, ma'naviy burch xisob va hakoza.

## **XULOSA**

### **3.DARSNI PSIXOLOGIK TAXLIL QILISH SXEMASI**

\_\_\_\_\_yil \_\_\_\_\_ kun \_\_\_\_\_ oy  
sinf

O'qituvchi \_\_\_\_\_ o'quv predmeti \_\_\_\_\_

Dars mavzusi, uning maqsadi. \_\_\_\_\_

Darsning jixozlanishi. \_\_\_\_\_

#### **DARSNING BORISHI;**

O'qituvchining darsga tayyorgarligi va ularni tahlil qilish.

O'z topshiriqlarini tekshirish uslubi, mahorati.

O'qituvchilar javobi (yozma ishlar)ni reyting usulida baholash.

Dars maqsadini o'quvchilar ongiga etkazish.

Darsda yangi o'quv materiallarni o'rganish usullari va ularning effektivligi.

Darsni tashkil qilish va olib borishda o'qituvchining mahorati; dars mazmunining ilmiy asoslanganligi, ilmiy g'oyaviy va mafkuraviy yo'nalishi, mutsaqillik ma'naviyati va tarbiyasi asoslari bilan bog'langanligi, bayon qilishining tizimli va izchilligi, tushunarli va ifodali bo'lishi va hokaza.

Dars materialini puxta o'zlashtirish uchun qo'llaniladigan takrorlash va mutsaxkamlash usullari.

Darsda foydalanilgan ko'rgazma materiallar, texnik vositalar.

O'quvchilarga uy topshiriqlari berish.

#### **DARSDA O'QUVCHILARNING IDROK XUSUSIYATLARI;**

YAngi materialni idrok qilishga o'quvchilarni tayyorlash.

YAngi o'quv materialini aniq va to'la idrok qilish uchun yaratilgan sharoit; muommali vaziyat, diqqatni jalb qilish, ko'rgazmali materiallardan foydalanish va hokazo.

Materialning muhim o‘rinlarini ta’kidlash uchun foydalanilgan usullar; intonatsiya (qattiq talaffuz qilish), savollar, taxtada (doskada) yozish, ayrim o‘rinlarni alohida talqin etish hokazo.

Darsda idrokning qaysi sifatlari ko‘proq namoyon bo‘ldi (ayrim sezgi organlari yoki tashkil qilingan ko‘p tomonlama idrok).

#### DARSDA O‘QUVCHILARNING DIQQAT XUSUSIYATLARI:

Dars boshlang‘ich paytda o‘quvchilar diqqati. Diqqatni dars mavzuiga ko‘chirish vaqti, uni belgilovchi shartlar. Diqqatni dars mavzuigako‘chirish vaqti, uni belgilovchi shartlar. Diqqatni to‘plash va yo‘naltirish uchun o‘qituvchi qullagan usullar.

Ayrim o‘quvchilar, javoiga sinfnng munosabati, bunda o‘qituvchi qo‘llagan vositalar.

O‘quvchilarning yangi materialni idrok qilishga tayyorlash, masala (savol) qo‘yish uning o‘quvchilar diqqatiga ta’siri.

YAngi materialni o‘zlashtirish darsda o‘quvchilar diqqati. Darsning qaysi momentlarida diqqatning chalg‘ib turishi yuz berdi, uning sabablari.

O‘qituvchi o‘quvchilar diqqatining barqarorligi qaysi yo‘l bilan erishdi. (O‘qituvchi nutqining tezligi va boshqa vositalar )

Dars oxirida, uni mutsahkamlash va uy topshirig‘i berish paytida o‘quvchilar diqqati.

Darsni olib borishda o‘qituvchining diqqati, uning qaysi xossalari Ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi.

#### XOTIRAGA OID XUSUSIYATLAR

O‘quv materialini esda olib qolish tezligi va to‘laligi.

